ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
MEKTEPKE SHEKEMGI HÁM MEKTEP BILIMLENDIRIW MINISTRLIGI

ÁJINIYAZ ATÍNDAĠÍ
NÓKIS MÁMLEKETLIK PEDAGOGIKALIQ INSTITUTÍ

MEKTEPKE SHEKEMGI TÁLIM FAKULTETI

MEKTEPKE SHEKEMGI TÁRBIYA HÁM DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Ayrıqsha bilimlendiriwge mútáj bolǵan balalardı oqıtıw hám tárbiyalawdıń zamanagóy tendenciyaları” atamasındaǵı respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya

MATERIALLARÍ TOPLAMÍ



NÓKIS-2026 23-aprel

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
MEKTEPKE SHEKEMGI HÁM MEKTEP BILIMLENDIRIW MINISTRLIGI

ÁJINIYAZ ATÍNDAĠÍ
NÓKIS MÁMLEKETLIK PEDAGOGIKALIQ INSTITUTÍ

MEKTEPKE SHEKEMGI HÁM BASLAWÍSH TÁLIM FAKULTETI

“Ayrıqsha bilimlendiriwge mútáj bolǵan balalardı oqıtıw hám tárbiyalawdıń zamanagóy tendenciyaları” atamasındaǵı xalıq aralıq ilimiy-ámeliy konferenciya

MATERIALLARÍ

NÓKIS-2026

“Ayrıqsha járdemge mutáj balalardı oqıtıw hám tárbiyalawdıń zamanagóy tendensiyaları” atamasındaǵı Xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya materialları toplamı. Nókis. NMPI baspaxanası 2026 j. 367 bet

“Ayrıqsha járdemge mutáj balalardı oqıtıw hám tárbiyalawdıń zamanagóy tendensiyaları” atamasındaǵı Xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya toplamına Respublikamız hám sırt el joqarı oqıw orınları professor-oqıtıwshıları, doktoratlar, magistrantlar, talabalar, ilimiy-izertlew institutları ilimpazları, ulıwma orta bilim beriw oqıtıwshıları hám taraw qánigeleriniń ayrıqsha járdemge mutáj balalardı oqıtıw hám tárbiyalawǵa baylanıslı n ilimiy bayanatları kirgizilgen.

Konferenciya materiallarınan ilimpazlar, oqıtıwshılar, studentler hám arnawlı pedagogika tarawı menen qızıǵıwshılar metodikalıq qollanba sıpatında paydalanıwı múmkin.

Esletpe: Toplamda kirgizilgen materiallardaǵı maǵlıwmatlardıń hám mazmunınıń durıslılıǵına avtorlar juwapker, olardıń pikirleri redakciyanıń pikirleri bolıp esaplanbaydı.

Shólkemlestiriw komiteti baslıǵı: **K.A. Kadirov**

Aǵzaları: T.Tadjiev, M.Allambergenova, J.Bekmanova, E.Orazimbetov, F.Salamova, M.Erjanova, A.Saparov, A.Tajimuratov, S.Shakirova, F.Reymova, SH.Jabbarbergenov, A.Qurmangaliyeva, SH.Ibraymova

Konferenciya materialları toplamın Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Keńesiniń 2026-jıl 5-may kúngi 9-sanlı qararı menen baspadan shıǵarıwǵa usınıs etilgen.

© NMPI, Mektepke shekemgi tárbiya hám defektologiya kafedrası

ALǴI SÓZ

Ayrıqsha járdemge mutáj balalardı oqıtıw hám tárbiyalaw bul insan huqıqlarınıń tiykarǵı komponentlerinen biri esaplanadı. Globallasıw hám informaciyalıq texnologiyalardıń rawajlanıwı inklyuziv bilimlendiriwge kóz-qaraslardı qayta kórip shıǵıwdı talap etpekte.

Ayrıqsha járdemge mutáj balalardı oqıtıw hám tárbiyalawdıń zamanagóy tendensiyaların talqılaw, milliy bilimlendiriw sistemalarına jańa tájiriybelerdi qollanıw zárúrli bolıp tabıladı. Sapalı bilimlendiriw mayıplıǵı bolǵan balalardıń bilim alıw mútajliklerin social ortalıqtan uzaqlastırmastan qandırıwdı óz ishine aladı. Mayıplıǵı bolǵan balalardıń bilim alıwǵa bolǵan mútájliklerin qandırıw principleri inklyuziv bilimlendiriwdiń tiykarın quraydı. Bunda jámiyettiń inklyuziv bilimlendiriwge bolǵan unamlı qatnasınıń rawajlanıwın tolıq kórip shıǵıw zárúr. Bul jaǵday arnawlı hám inklyuziv bilimlendiriwge jańasha qaraw múmkinligin kórsetedi.

Sonlıqtan inklyuziv bilimlendiriwdiń nátiyjeliligin asırıwda pútkil dúnyada infrastruktura hám texnologiyalıq qollap-quwatlawǵa úlken itibar berilmekte. Mektepler infrastrukturasın inklyuziv bilimlendiriwdi qollap-quwatlawǵa baǵdarlaw birinshi gezekte fizikalıq imkaniyatlar yaǵnıy mektepler mayıplıǵı bolǵan oqıwshılar ushın qolaylıqlar hám kóriw hám esitiw qábileti sheklengen balalarǵa arnawlı texnologiyalar, sóylew sintezatorları hám audio kitaplar menen támiyinleniwi názerde tutılǵan. Bunday texnologiyalar oqıwshılarǵa bilim alıw prosesinde erkin háreket etiwine járdem beredi.

Búgingi kúnde jámiyetlik turmısqa jańasha kóz-qaras penen qaraw, jańa reformalardı ámelge asırıw, arnawlı hám inklyuziv bilimlendiriw tarawımıń rawajlanıwında áhmiyetli faktor bolıp xızmet etedi. Ásirese arnawlı hám inklyuziv bilimlendiriw tarawın zaman talaplarına sáykes jańalap barıw imkaniyatı sheklengen balalardı jámiyetke qosıwda juwapkerli wazıypalardı júkleydi.

Shólkemlestiriw komiteti

1-SEKCIYA. INKLYUZIVLIQ BILIMLENDIRIW: TEORIYADAN ÁMELIYATQA - KESELLIKLER HÁM RAWAJLANIW NOQATLARI

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА АЛОХИДА ТАЪЛИМГА МУХТОЖ (АТМ) БЎЛГАН ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАЪЛИМИЙ ЮТУҚЛАРИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ: ҲОЛАТИ, МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМ ЙЎЛЛАРИ

Л.Р. Муминова - педагогика фанлари доктори, профессор, Низомий номли ЎМПУ, логопедия кафедраси

Мавзунинг долзарблиги. Таълим тизимини модернизация қилиш шароитида алоҳида таълим эҳтиёжларига эга бўлган болаларни ўқитишни ташкил этиш алоҳида долзарб аҳамият касб этмоқда. Инклюзив таълим шундай шарт-шароитларни яратишни назарда тутадики, унда ҳар бир бола, ривожланиш хусусиятларидан қатъи назар, умумий таълим муҳитида сифатли таълим олиш имкониятига эга бўлади. Алоҳида ўринни психик ривожланишида орқада қолишига, енгил ақли заифлик, аутизмли, кохлеар имплантга эга бўлган ўқувчилар инклюзив синфларга жалб этилган — бу алоҳида таълим эҳтиёжларига эга ўқувчиларнинг энг кенг тарқалган тоифаларидан биридир. Ўзбекистонда инклюзив таълимни ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Барча болалар учун тенг таълим имкониятларини таъминлаш муҳим вазифа ҳисобланади. АТМ бўлган ўқувчиларнинг таълимий ютуқларини адолатли баҳолаш тизимини такомиллаштириш зарур. Инклюзив таълимнинг асосий мақсади:

- барча болалар учун сифатли таълимни таъминлаш;
- индивидуал эҳтиёжларни ҳисобга олиш
- ижтимоий интеграцияни таъминлаш
- таълимда тенг имкониятлар яратиш.

Юқорида келтирилган барча ўқувчилар махсус таълим эҳтиёжларига қуйидагилар киради: таълим воситалари орқали махсус ёрдамни эрта олиш; фан соҳалари мазмуни орқали ҳам, коррекцион ишлар жараёнида ҳам амалга ошириладиган коррекцион-ривожлантирувчи жараённинг узлуксизлигини таъминлаш мажбурийлиги; таълим мазмунининг илмий, амалий йўналтирилган ва самарали характери; таълим жараёнида амалга ошириладиган билиш вазифалари мазмунининг тушунарлилиги; таълим олиш муддатларини узайтириш; ўқувчиларда шаклланган билим ва кўникмаларни мунтазам янгилаб бориш; уларни ўзгариб борувчи ўқув, билиш, меҳнат ва бошқа вазиятларга мос равишда “кўчириш”га махсус ўқитиш; — ақлий нуқсони бўлган ўқувчиларнинг марказий асаб тизими ҳолати ва психик жараёнлар нейродинамикасини ҳисобга олган ҳолда умумтаълим муҳитининг ташкил этилишини таъминлаш; ўқувчилар фаолияти ва хулқ-атворини рағбатлантиришда асосан ижобий воситалардан фойдаланиш, уларга нисбатан дўстона ва ҳурматли муносабатни намоён этиш; ўқувчининг ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда атроф-

муҳитни билишга қизиқиш ва мотивацияни ривожлантириш, ўқиш ва ижтимоий ўзаро таъсирга тайёрлигини ошириш; билиш фаоллигини рағбатлантириш, атроф-муҳитга нисбатан ижобий муносабатни шакллантириш.

Адаптив УмумТаълим Дастури иккита вариантлари:

1-вариант шуни назарда тутадики, ўқувчи таълимни ўз тенгдошлари билан бир муҳитда ва бир хил муддатларда таълим олади , ўқиш якунида натижалар жиҳатидан тўлиқ равишда уларнинг таълимига мос келади.

2-вариант шуни назарда тутадики, ўқувчи таълимни узайтирилган муддатларда олади, яъни ўқувчи таълимни мазмуни ва якуний натижалари жиҳатидан соғлом тенгдошларининг кўрсаткичларига мос келмайдиган ҳолда, узайтирилган муддатларда, индивидуал дастур асосида таълим олади. Ушбу дастур варианти асосида таълим ташкилоти махсус индивидуал ривожланиш дастурини (МИРД) ишлаб чиқади.

Таълим ютуқларини баҳолашга комплекс ёндашув қуйидагилар орқали амалга оширилади: фанга оид ва метафан натижаларини баҳолаш; ўқувчиларнинг индивидуал таълим ютуқлари динамикасини баҳолаш ҳамда якуний баҳолаш учун асос сифатида турли баҳолаш жараёнлари мажмуасидан фойдаланиш; олинган натижаларни таълим сифатини бошқариш мақсадида тўғри талқин қилиш учун контекст маълумотларидан (ўқувчиларнинг хусусиятлари, таълим шароитлари ва жараёни ва бошқалар) фойдаланиш; бир-бирини тўлдирувчи турли баҳолаш усуллари ва шаклларидан фойдаланиш: стандартлаштирилган оғзаки ва ёзма ишлар, лойиҳалар, амалий (жумладан, тадқиқот) ва ижодий ишлар; ўқувчиларни мустақил баҳолаш фаолиятига жалб этиш имконини берувчи иш шаклларидан фойдаланиш (ўз-ўзини таҳлил қилиш, ўз-ўзини баҳолаш, ўзаро баҳолаш); билим ва кўникмаларни ўзлаштириш динамикасини мониторинг қилиш, жумладан ахборот-коммуникация (рақамли) технологиялари орқали шакллантириладиган кўрсаткичларни баҳолаш.

Асосий муаммолар:

1. Адаптив умумтаълим Дастур вариантлари ишлаб чиқилмаганлиги.
2. Баҳолаш мезонларининг мослаштирилмаганлиги.
3. Педагогларнинг етарли тайёргарликка эга эмаслиги.
4. Диагностик воситаларнинг камлиги
5. Психологик тўсиқлар.

Муаммолар ечими

АТМ бўлган ўқувчиларнинг таълимий натижаларини баҳолаш тизими моделини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш. Моделни таркибига куйидаги блоклардан иборат бўлади: индивидуал таълим режаси; диагностик; мониторинг; коррекцион ишлар; натижавий; баҳолаш тизими мазмунини аниқлаш; баҳолаш механизмларини ишлаб чиқиш; методик таъминотини яратиш; натижаларни мониторинг қилиш. Натижада баҳолашда қуйидаги йўналишларни қамраб олади: шахсий натижалар, метапредмет натижалар, предмет натижалар, коррекцион-ривожлантирувчи натижалар.

Амалга оширилган натижасида: инклюзив таълим сифати ошади;баҳолаш тизими такомиллашади; педагогларга, махсус педагогларга,

психологларга методик ёрдам берилади;АТМ бўлган болаларнинг таълим самарадорлиги ошади.

Хулоса

Инклюзив таълим шароитида баҳолаш тизимини такомиллаштирилади: таълим сифати ошади; барча ўқувчилар учун тенг имкониятлар яратилади; болаларнинг ижтимоий мослашувига хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Алехина С. В.Инклюзивное образование: теория и практика. — Москва: Просвещение, 2018.
2. Коробейников И. А. Специальная педагогика. Москва: Академия, 2017.
3. Марголис А. А. Инклюзивное образование: методология и практика. — Москва: МГППУ, 2019.
4. Муминова Л.Р. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асаслари. Тошкент, “COMPLEX PRINT” нашриёти, 2018

LOGOPEDIK MASHG‘ULOTLARDA MAYDA MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISH

Nukus davlat pedagogika instituti
Allambergenova M.X., pedagogika fanlari doktori, dotsent.
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani

Annotatsiya: Mazkur maqolada logopedik mashg‘ulotlarda mayda motorikani rivojlantiruvchi vositalardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy samaradorligi defektologiya va neyropsixologiya fanlari nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Mayda motorika va nutqiy rivojlanish o‘rtasidagi neyrobiologik bog‘liqlik, turli vositalar (plastilin, munchoq, Montessori materiallari, barmoq o‘yinlari, qum terapiyasi va b.)ning logopedik mashg‘ulotlarga integratsiyasi hamda ularning bolalarda nutq funksiyasini tiklashdagi roli tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы и практическая эффективность использования средств развития мелкой моторики на логопедических занятиях с точки зрения дефектологии и нейропсихологии. Проанализирована нейробиологическая связь между мелкой моторикой и речевым развитием, интеграция различных средств (пластилин, бусы, материалы Монтессори, игры пальцами, песочная терапия и др.) в логопедические занятия, а также их роль в восстановлении речевой функции у детей.

Abstract: This article examines the theoretical foundations and practical effectiveness of using fine motor development tools in speech therapy sessions from the perspectives of defectology and neuropsychology. The study analyzes the neurobiological relationship between fine motor skills and speech development, the integration of various tools (plasticine, beads, Montessori materials, finger games, sand therapy, etc.) into speech therapy sessions, and their role in restoring speech function in children.

Nutq va harakat funksiyalari miya po‘stlog‘ida anatomik jihatdan yaqin joylashgan bo‘lib, ularning rivojlanishi o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi

nevrologik tadqiqotlar orqali isbotlangan. Akademik A.R. Luriya (1962) “nutqni tashkil qiluvchi va harakatni boshqaruvchi neyron tarmoqlar miya po‘stlog‘ida qo‘shni hududlarni egallaydi” deb ta’kidlagan. Bu neyrobiologik haqiqat logopediya amaliyotida mayda motorika mashqlaridan foydalanishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Zamonaviy defektologiya fani ma’lumotlariga ko‘ra, nutq nuqsoni (alaliya, dizartriya, ONR, FFNR) tashxisi qo‘yilgan bolalarning 70–80 foizida mayda motorika rivojlanishi yoshiga mos ko‘rsatkichdan orqada qoladi (Mastyukova, 2003). Bu holat mayda motorika mashqlarini logopedik korreksiya jarayoniga maqsadli integratsiya qilishni obyektiv zarurat darajasiga ko‘taradi.

Maqsadimiz shuki — logopedik mashg‘ulotlarda mayda motorikani rivojlantiruvchi vositalarning turi, qo‘llash metodikasi va samaradorligini ilmiy-amaliy asosda tadqiq etish. Mayda motorika va nutq rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi ilk bor rus neyrofiziologi I.P. Pavlov tomonidan oliy nerv faoliyati nazariyasi doirasida ko‘tarilgan. Keyinchalik M.M. Koltsova (1973) o‘zining klassik tadqiqotlarida qo‘l barmoqlari nozik harakatlarini rivojlantirish bolalarning nutq markazini faollashtirishini eksperimental jihatdan isbotlagan. Uning “qo‘l — nutqning ikkinchi nutq organi” degan xulosasi logopediya faniga asosiy postulat sifatida kirib kelgan.

T.A. Tkachenko (2001) logopedik mashg‘ulotlarda mayda motorika vositalarini qo‘llashning kompleks metodikasini ishlab chiqib, uning samaradorligini klinik kuzatuvlar orqali tasdiqlagan. S.E. Bolshakova (2005) ONR (umumiy nutq rivojlanmaganligi) tashxisli bolalarda sensomotor integratsiya mashqlarining nutq imkoniyatlarini kengaytirishga ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan Case-Smith va O’Brien (2010) maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorika mashqlari o‘tkazilgan guruhlarda nutq leksikasining 34 foizga tezroq kengayganini aniqlagan. Berlin neyroplastiklik markazi ma’lumotlari (Draganski et al., 2014) ko‘rsatishicha, sensomotor stimulyatsiya miya po‘stlog‘ida neyron ulanmalarning sonini 18–22 foizga oshiradi, bu esa nutq funksiyasining tiklanishiga bevosita zamin yaratadi.

O‘zbekiston miqyosida Z.M. Axmedova, M.Yu. Ayupova va M.P. Xamidova tomonidan yaratilgan “Logopedik o‘yin” darsligida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda logopedik o‘yinlarning ahamiyati va samarali qo‘llanish usullari yoritilgan. Asosiy e’tibor o‘yin orqali bolaning nutqiy, kognitiv va kommunikativ rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan:

logopedik o‘yinlarning nazariy asoslari (o‘yinning rivojlantiruvchi roli) tushuntiriladi;

turli nutq kamchiliklarida (dislaliya, dizartriya va boshqalar) qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar keltiriladi;

tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, lug‘at boyligini oshirish, grammatik tuzilishni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar berilgan;

o‘yinlarni tashkil etish, bolalar yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Mayda motorika va nutqning neyrobiologik bog‘liqligi

Neyrovizualizatsiya tadqiqotlari (fMRI) ko‘rsatishicha, qo‘l barmoqlarining nozik harakatlari paytida Broka nutq markazi ham faol bo‘ladi (Gentilucci & Corballis,

2006). Bu holat mayda motorika va nutq funksiyalari uchun umumiy neyron substrat mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, serebellum (miyacha)ning ham nozik harakatlar, ham nutq prosodikasini boshqarishdagi ishtiroki ushbu bog‘liqlikni yanada mustahkamlaydi.

Logopedik amaliyotda qo‘llaniladigan vositalarning tasnifi

Logopedik mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan mayda motorika vositalarini quyidagi to‘rt guruhga tasniflash mumkin:

Sensor-taktil vositalar: qum (suv, g‘alla) terapiyasi, plastilin, loy, tosh massaji, tiklik taxtalari (sensor patch). Bu vositalar taktil retseptorlarni faollashtirib, sensomotor integratsiya jarayonini kuchaytiradi.

Manipulyatsion vositalar: munchoq tizish, och-yum mashqlari, bolt-gayka burama, Montessori ramkalari (tugma, yopishtirgich, ilgak). Bu vositalar barmoqlarning koordinatsiyasi va kuchini rivojlantiradi.

Ijodiy-konstruktiv vositalar: origami, mozaika, konstruktor, bo‘yash, nozik chizish. Ular vizuomotor koordinatsiyani va diqqat-e’tiborni rivojlantirib, nutqni rejalashtirish mexanizmlarini faollashtiradi.

Logoritmik-kinetik vositalar: barmoq o‘yinlari, nutq bilan uyg‘unlashgan mimik va qo‘l harakatlari, logoritmika mashqlari. Bu guruh nutq va harakatni sinxronlashtirib, nutq tempi va ritmini yaxshilaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, logopedik mashg‘ulotlarda mayda motorikani rivojlantiruvchi vositalardan tizimli va maqsadli foydalanish bolalar nutqiy rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlaydi. Neyropsixologik tadqiqotlar asosida aniqlanganidek, qo‘l barmoqlari harakatlari va nutq markazlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik mazkur yondashuvning ilmiy asosini tashkil etadi.

Amaliyot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sensomotor faoliyatni faollashtirish orqali:

nutq funksiyasini tiklash jarayoni tezlashadi;

bolalarning kommunikativ faolligi oshadi;

kognitiv jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur) mustahkamlanadi.

Shu munosabat bilan, logopedik mashg‘ulotlarda mayda motorika vositalarini integratsiya qilish zamonaviy korreksion pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi va amaliyotga keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кольцова М.М. Двигательная активность и развитие функций мозга ребёнка. — М.: Педагогика, 1973. — 144 б.

2. Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека. — М.: МГУ, 1962. 431 б.

3. Мастюкова Е.М. Лечебная педагогика: ранний и дошкольный возраст. — М.: ВЛАДОС, 2003. — 304 б.

4. Ткаченко Т.А. Развитие фонематического восприятия и навыков звукового анализа. — СПб.: ДЕТСТВО-ПРЕСС, 2001. — 192 б.

5. Большакова С.Е. Преодоление нарушений слоговой структуры слова у детей. — М.: ТЦ Сфера, 2005. — 56 б.

6. Case-Smith J., O'Brien J.C. Occupational Therapy for Children. — 6th ed. — St. Louis: Mosby Elsevier, 2010. — 892 p.

7. Draganski B. et al. Temporal and spatial dynamics of brain structure changes during extensive learning // Journal of Neuroscience. — 2014. — Vol. 34(14). — P. 4843–4851.

8. Gentilucci M., Corballis M.C. From manual gesture to speech: A gradual transition // Neuroscience & Biobehavioral Reviews. — 2006. — Vol. 30(7). — P. 949–960.

9. Каримов Х.Т. Болаларда нутқ нуқсонларини бартараф этишда миллий ўйинлардан фойдаланиш. — Тошкент: Ўзбекистон, 2008. — 112 б.

10. З.М.Ахмедова, М.Ю.Аюпова ва М.П.Хамидова Логопедик ўйин Логопедик дарсликда — Тошкент: ТДПУ нашриёти, 2013.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI YARATISH

Kalbayeva X.D. A.I.Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkentdagi filiali
Korrektson pedagogika kafedrasi dots.v.b., tel.97 4254915

Ta'lim muhitini moslashtirish jarayonlari orqali inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlariga ega ta'lim oluvchilarni qulay ta'lim shakli bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta'limni rivojlantirishdagi o'rni O'zbekiston va chet el pedagogikasida inklyuziv ta'lim tajribasi asosida ochib berilgan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslar uchun moslashuvchan ta'lim muhitini yaratishda raqamli rexnologiyalarning qo'llanilishi aniqlangan. Elektron ta'lim muhiti usullari va uni tashkil etish modellarining qisqacha tavsifi berilgan. Raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limni sifatli o'zgartirishni ta'minlaydi. Buni inklyuziv ta'limni amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud shaxslar, raqamli texnologiyalar, ta'limiy platforma, mobil ilova, sun'iy intellekt,VR virtual reallik, to'ldirilgan reallik AR.

Ta'lim jarayonini raqamlashtirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish - davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16- fevraldagi PF-22-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari, "O'zbekiston-2030"strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat Dasturi, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi ta'lim sohasida bir qator yirik islohotlarni amalga oshirilishi nazarda tutadi. Bu islohotlar ta'lim tizimining umumjahon tendentsiyalar asosida taraqqiy etishini ta'minlash, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, shuningdek, yoshlarning bilim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan[1].

Raqamli texnologiyalar - bu kompyuterlar, internet, multimedia vositalar, interfaol platformalar, dasturiy ta'minot, mobil qurilmalar, sun'iy intellekt vositalari orqali ta'limni tashkil etish va boshqarish tizimidir. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli

texnologiyalar ta’limning sifati, moslashuvchanligi, individualligi, uzluksizligi va interfaolligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi[2].

Inklyuziv ta’lim sharoitida ayniqsa raqamlashtirish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim - umumiy ta’limni tashkil etishning alohida yondashuvi sifatida, har bir ta’lim oluvchining alohida ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashga qaratiladi. Mazkur yondashuv jahon miqyosida International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF) (Funktsionallik, hayotiy faoliyat cheklovlari va salomatlikning Xalqaro klassifikatsiya(MKF)) konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. MKF modeliga ko‘ra, nogironlik nafaqat tibbiy muammo sifatida emas, balki shaxsning funksional imkoniyatlari, hayotiy faoliyati va ijtimoiy ishtiroki bilan belgilanadi. Shuning uchun inklyuziv ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etishda nafaqat ta’lim oluvchining salomatligi, balki uning atrofdagi insonlar bilan o‘zaro faoliyati, kommunikativ imkoniyatlari va faol ishtirok etish darajasi ham hisobga olinishi zarur[].

Raqamli texnologiyalar alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning sifatli va to‘laqonli ta’lim olishidagi murakkabliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli texnologiyalar inkyuziv ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish, uni individuallashtirish hamda o‘quv materialini moslashuvchan tarzda taqdim etish imkonini beradi. Ta’lim dasturlari, dasturiy ta’minot va onlayn manbalar yordamida ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materialni o‘zlashtirish tezligini, idrok etish va boshqa individual xususiyatlarni hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlari yaratiladi.

Raqamli texnologiyalar vositasida materiallar va resurslarning turli ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, axborotni qabul qilish darajasi, idrok eish yo‘llari, o‘zlashtirish sur’ati hisobga olgan holda tarzda taqdim etish mumkin bo‘ladi. Misol uchun eshitish qobiliyati cheklanganlar uchun darslik va topshiriqlar video formatda, ko‘rish qobiliyati cheklanganlar uchun katta shriftli matnlar yoki audio fayllar vositasida yetkaziladi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan, psixik rivojlanishi orqada qolgan va eshitish qobiliyati cheklangan ta’lim oluvchilar uchun raqamli texnologiyalar muloqotni yaxshilashda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim platformalari, mobil ilovalari va dasturlari ta’lim oluvchilar uchun bilish jarayonini yanada qiziqarli va rag‘batlantiruvchi qiladigan o‘yin elementlaridan foydalanadi. Video darslar, animatsiyalar, simulyatsiyalar orqali o‘quv materialini tushunish va yod olish osonlashadi.

Raqamli tizimlar orqali ta’lim oluvchilar faoliyatini tahlil qilish, reyting, baholash, davomatni nazorat qilishimkoniyati kengayadi. Ta’lim oluvchi va o‘qituvchi istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim jarayonini davom ettira oladi.

Eng muhimi, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta’limdagi to‘siqlarni kamaytirishga yordam beradi, ta’lim oluvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortadi va o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi. Jumladan, virtual ekskursiyalar, ta’limiy oyinlar, mashq trenajorlari va multimedia resurslar ta’lim oluvchilarga maktab sharoitida ishtirok etishi qiyin bo‘lgan ta’lim tadbirlarida qatnashishga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim oluvchilar ko‘proq mustaqil o‘qishga o‘rganadi, o‘z bilimini baholash va rivojlantirishga mas’ul bo‘lishadi. Bu esa

zamonaviy jamiyat uchun zarur bo‘lgan raqamli savodxonlik, kommunikatsiya, kooperatsiya, tanqidiy fiklash, kreativlik ko‘nikmalarni shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar orasida raqamli ta’lim platformalari muhim o‘rin tutadi. Raqamli platformalar vositasida ta’lim jarayoni masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etilishi mumkin. Ushbu platformalar orqali o‘qituvchilar o‘z fanlariga oid materiallarni joylashtiradi, topshiriqlar beradi, baholaydi, ta’lim oluvchilar esa mustaqil o‘rganadi, fikr almashadi, savollar beradi.

O‘zbekistonda quyidagi ta’lim platformalari o‘qituvchi,ta’lim oluvchilar, ota-onalar tomonidan keng qo ‘llaniladi.

1.Yagona raqamli ta’lim tesurslari va xizmatlari portali. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining ta’limda metodik yordam ko‘rsatish ekotizimida quyidagi materiallar: unklyuziv ta’lim uchun raqamli ta’lim resurslari, interfaol ta’lim resurslari va multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar, STEM mashg‘ulotlarning raqamli resurslari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun raqamli resurslar, psixologik qo‘llab-quvvatlashga oid resurslar joy olgan.

HEMIS.uz, EMIS.edu.uz.,Moodle.uz., Kundalik.com platformalari – ochiq manba asosida yaratilgan o‘quv boshqaruv tizimi bo‘lib, O‘zbekistonda ko‘plab maktablar, litseylar, oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan qo‘llanilmoqda. Bu platformalar orqali fanlar modullarga bo‘linadi, video darslar, testlar, forumlar yaratiladi, har bir ta’lim oluvchining faolligi tahlil qilinadi.

Google Classroom platformasi – soddaligi va tez o‘zlashtirilishi sababli ayniqsa umumiy o‘rta ta’lim maktablarida keng qo‘llaniladi. Ushbu platforma, topshiiiriqlarni yaratish, tarqaish, tekshirish vazifalarini va sinf ichidagi raqamli boshqaruvni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Coursera, EdX, Khan Academy platformalarida dunyoning eng yaxshi universitetlari tomonidan taklif etiladigan bepul va pullik kurslar mavjud. O‘quvchilar xalqaro sifatdagi bilimlarni onlayn tarzda egallab, sertifikatga ega bo‘lishadi. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega shaxslar uchun ham moslashuvchan topshiriqlarni bajarish imkoniyatlari mavjudligi bilan ahamiyatlidir.

ZiyoNET va Edu.uz – O‘zbekistonda ishlab chiqilgan milliy raqamli platformalar bo‘lib, ular orqali maktab va kasb-hunar ta’lim muassasalari uchun elektron darsliklar, interaktiv testlar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxona xizmatlari taqdim etiladi.

Ushbu platformalar nafaqat ta’lim olish, balki pedagoglarning darsga tayyorgarlik ko‘rishi, baholash jarayonini avtomatlashtirishi, tahliliy ma’lumotlarni shakllantirishi, o‘quvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Ular ta’lim jarayonini interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan va ijodiy qilishi bilan ahamiyatlidir

Sun’iy intellekt (AI) yordamida inklyuziv ta’lim jarayoni sezilarli darajada avtomatlashtirilmoqda. Bu esa qiyin mavzularni tushuntirish, materiallarni tayyorlash va moslashtirish, rivojlanishidagi muammolarni korrektsiyalash imkonini bermoqda.

Sun’iy intellektga asoslangan neyron tarmoqlardan bolaning individual ehtiyojlariga mos keladigan moslashuvchan o‘quv platformalarini yaratish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, mashinali o‘rganishga asoslangan tizimlar

shaxsiylashtirilgan topshiriqlar va materiallarni taklif qilish orqali ta’lim oluvchining yutuqlari va qiyinchiliklarini tahlil qilishi mumkin. Bu ularga qulay tezlikda o‘rganish va qiyin bo‘lgan joyda yordamdan foydalanish imkonini beradi. Platformalarga qo‘shimcha ravishda adaptiv algoritmlarga ega bo‘lgan interfaol dasturlar bo‘ladi, ular ta’lim oluvchi uchun qulay vaqtda o‘qishga jalb qiladi, adaptiv algoritmlar rivojlanishni kuzatadii va vazifalarning murakkablik darajasini sozlaydi. Misol uchun, Yandexning catboost neyron tarmog‘idan foydalanib, avval tobora murakkablashib borayotgan testlarni taklif qiladigan, so‘ng mos ta’lim traektoriyasini taklif qiladigan vosita yaratildi [5]. Salomatligida cheklovlari bo‘lgan foydalanuvchilar uchun STEPS [6] nomli ilovalar Axborot texnologiya universitetida yaratilgan. Ularning katta afzalligi shundaki, individual ta’limni amalga oshirilishi mumkinligi, bu ayniqsa autizmli insonlarning AI bilan muloqot rejimida (sun’iy intellektga ega axborot-ta’lim muhiti) samarali amalga oshiriladi. Dialog asosida mavjud ta’lim tizimlarining bir nechta turlarini ko‘rib chiqamiz: bular CIRCSIM, AUTOTUTOR, WATSON TUTOR chet el tizimlari, shuningdek ChatGPT.

CIRCSIM o‘quv tizimi 1980-yillarning boshlarida Illinoys texnologiya universitetida yaratilgan bo‘lib, inson bilan individual o‘quv dialoglarini olib bordi, tabiiy tilni qayta ishlash va ishlab chiqarishni amalga oshirdi. CIRCSIM dasturi birinchi marta savolning biron bir tafsilotini yoki hatto mohiyatini tushunmaydigan odam bilan muloqot qilish algoritmini yaratdi va nutqni tushunish yo‘naltiruvchi-navigator rolini o‘ynadi. Dastur tibbiyot sohasi talabalari uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uning algoritmi universal hisoblanadi, mazkur neyrotarmoq o‘qituvchilar tomonidan rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan ishlashi uchun dialogli ta’lim dasturlarida qo‘llaniladi. Agar ta’lim oluvchining javobi to‘g’ri bo‘lsa, dastur davom etadi. Agar javobi qisman to‘g‘ri bo‘lsa, dastur uni tasdiqlaydi/tuzatadi va davom etadi. Javob noto‘g‘ri bo‘lgan taqdirda, to‘g‘ri javob beradi, dastur ishlashni davom ettiradi.Bu ta’lim oluvchining muloqot tizimi bilan mashg‘ulotni davom ettirish istagiga foydali ta’sir ko‘rsatadi.

“Autotutor” dasturi Memfis universitetida 20 yil davomida yaratilgan bo‘lib, u o‘qitish vazifalariga ancha kengroq yondashadi – uning maqsadi qisqacha to‘g‘ri javoblarni berishni o‘rgatish emas, balki javob berishdan oldin savolni tushunish edi. Dastur ta’lim oluvchi tomonidan yozilgan matnni tegishli darsliklarning katta qatoridan olingan ko‘p o‘lchovli tushunchalar matritsasi bilan taqqoslash uchun yashirin semantik tahlil (lsa) deb nomlanuvchi statistik texnikadan foydalanadi. Uning “Autotuter” dasturidan foydalanishning maqsadi shundan iboratki, ta’lim oluvchi topshiriqlardan xulosa chiqarishni, mustaqil ravishda aks ettirishni, harakat va natija, harakat va reaktsiya o‘rtasida mantiqiy aloqani o‘rnatishni o‘rganadi. Ishlab chiquvchilar modelni o‘qitish uchun olingan javoblar asosida suhbatni rivojlantirish izlanuvchan dialog usulidan foydalanilgan[3.5,6].

“Autotutor” dasturining ishi besh bosqichdan iborat bo‘lib, Dastur belgi ko‘rinishida muammoni bayon etadi yoki savol beradi. Ta’lim oluvchi klaviaturada matn kiritish yoki ovoz bilan ovoz berish orqali javob beradi. Dastur ta’lim oluvchining muhokama qilinayotgan tushunchani tushunishini baholaydi. Agar dastur yetarlicha mazmunli javob berilmagan deb qaror qilsa, u tuzatuvchi va yo‘naltiruvchi savollar, ma’lumotlar, maslahatlarni taklif qiladi va to‘g‘ri javob berishga undaydi. Ta’lim

oluvchi gap nima haqida ekanligini tushunmaguncha 2-4 bosqichlarni takrorlaydi, savollar o‘zgaruvchan tarzda taqdim etiladi.

“Watson Tutor IBM” va Pearson dasturi yangi bilimlarni taqdim etish uchun mo‘ljallanmagan , uning maqsadi mavjud bilimlarni chuqurlashtirishdir [5]. Ushbu dastur, avvalgisidan farqli o‘laroq, katta hajmdagi axborot bilan ishlamaydi, balki bitta darslikka asoslanadi va ta’lim oluvchining javoblariga qarab, yordamchi strategiyadan foydalangan holda qo‘shimcha materiallarga tayanishi, mavzu bo‘yicha “bo‘sh joyni to‘ldirish bilan” 600 tagacha savol va javob variantlarini berishi mumkin. Bu har qanday dasturga osongina moslashadigan pedagogik model ta’lim oluvchining bilim olish yo‘nalishini tuzishning statistik usuli bilan to‘ldirilib, nafaqat bilim darajasini, balki ulardagi mavzulardagi bo‘shliqlarni ham ochib beradi. Alihida ehtiyojli ta’lim oluvchilarni o‘qitishda bu qulay, chunki bunda har qanday murakkablikdagi bilim darajasi va muloqot qilish darajasini belgilash mumkin bo‘ladi.

ChatGPT dan ta’lim oluvchilar ushbu suhbatdan muammolarni hal qilish, savollarga javob olish, rasm chizish, qo'shiqlar va musiqa yaratish, shunchaki turli mavzularda suhbatlashish va o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun faol foydalanmoqdalar.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega ta’lim oluvchilar uchun inklyuziv ta’limda GPTChatdan va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish mumkin. Ushbu yondashuvning afzalliklari shundaki, maksimal ta’lim ma’lumotlarini olish, o‘zaro muloqot qilish va kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyati mavjud.Ta’lim oluvchilar bir o‘quv xonasida bo‘lmasdan turib, jamoaga aylanadilar, ularda o‘quv sheriklik malakalari rivojlantiriladi, shuningdek, tarkibning o‘zgaruvchanligini hisobga olgan holda individual ta’lim yo‘nalishini yaratish mumkin bo‘ladi.

GPTChat uy vazifalarini bajarishda yordam beradi: ta’lim oluvchilar test topshiriqlarini topshirishi, o‘quv testlaridan o‘tishi, ijtimoiy tarmoq tashabbuslarida ishtirok etishlari mumkin.

Biroq, tadqiqotlarga ko‘ra, inklyuziv ta’limda ChatGPT chatbotidan foydalanish ta’lim oluvchilarning bilim faoliyati uchun xavf tug dirishi mumkin. Ular turli xil ma’lumot manbalarini qayta ishlash va o‘z xabarlarini tuzish zarurati yo‘qligi, shuningdek botning nomukammalligi va noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etish bilan bog‘liq.

Eshitishida nuqsono bo‘lgan ta’lim oluvchilar uchun mo‘ljallangan ta’lim resurslari qatoriga umumiy rivojlantiruvchi va kasbga yo‘naltiruvchi “Surdoclass”, “Edusurd”,“Academiya” platformalari kiradi. “Surdoclass”, “Edusurd”, ”IT4Everyone”, “Creativsity”platformalarida eshitishida muammosi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilgan, imo-ishora tiliga tarjima qilingan shi jumladan IT va dizayn sohasi uchun on-layn o‘quv kurslar. “Academiya”, “Solt” platformalari- eshitishida va ko‘rishida muammosi bo‘lgan shaxslar uchun ta’limiy platforma,unda barcha materiallar videoformatda surdotarjima bilan taqdim etilgan. Moslashtirilgan mobil ilova va servislardan “Yandeks-razgovor”- muloqot qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, Spread Signs- imo-ishora tili lug‘atini taqdim etadi. Duolingo ilovasidagi adaptiv testlar, Khan Academydagi shaxsiylashtirilgan topshiriqlar, “Coursera”dagi sun’iy intellekt yordamida turli adaptiv o‘quv kurslarni taqdim etadi[2,5,6].

To‘ldirilgan reallik(AR), virtual reallik(VR) inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan, har bir ta’lim oluvchining jismoniy va aqliy

imkoniyatlari va alohida ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatiga ega samarali vosita sanaladi. To‘ldirilgan reallik(AR) maxsus ko‘zoynak yoki mobil qurilmalar vositasida raqamli elementlarini jonli hayotga uyg‘unlashtiradi. Bunda o‘quvchilar bevosita real atrof muhitda o‘quv axborot bilan o‘zaro faoliyatda bo‘ladilar, uning afzalligi ta’lim oluvchilarning tajriba o‘rganish uchun havfsiz muhitda faol ishtiroki, interfaol usullarning mavjudligi, ta’lim olish jarayonini jozibadorligi bilan izohlanadi. Misol uchun, bolalar virtual olamlarga sho‘ng‘ish orqali biologiya, geografiya yoki tarix kabi turli fanlarni o‘rganishlari mumkin. Bu, ayniqsa, diqqat yetishmasligi va giperfaolligi bo‘lgan bolalar uchun foydalidir. To‘ldirilgan reallik AR texnologiyalari ma’lumotni yaxshiroq o‘rganishga, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, shuningdek, harakatlarni, faoliyatini muvofiqlashtirishga va fazoviy tafakkurni shakllantirishga yordam beradigan mashqlarni yaratish uchun qo‘llaniladi[2,3].

Inklyuziv ta’lim sharoitida raqamli ta’lim texnologiyalarining tahlili, uning rivojlanishi uchun ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari - o‘qituvchilar, ta’lim oluvchilar, maxsus pedagoglarning o‘zaro hamkorligini ta‘minlash kerakligini ko‘rsatadi. Inklyuziv ta’limda raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli ta’lim oluvchilarni o‘qitish uchun o‘quv faoliyati turlarini kengaytiradigan, o‘qitishning yangi tashkiliy usullarini takomillashtiradigan va yaratadigan noyob imkoniyatlar va sharoitlarni yaratadi. Ko‘rib chiqilgan inklyuziv ta‘limda qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar ta’lim sifati o‘sishining o‘ziga xos drayverlari hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16.02.даги “Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш” йилида устувор йўналишлар бўйича ислоҳотлар дастурлари ва “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини амалга ошириш бўйича давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-22-сон Фармони https://lex.uz/docs/8050787

2.Alimov R.T. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari https://uzmarkaz.uz/news/zamonaviy-talimda-raqamli-texnologiyalardan-foydalanish-istiqbollari

3.Гафурова Н.М., Абдураимова Ф.М. //Информационные технологии в инклюзивном образовании //Colloquium-journal. 2022. №11 (134). URL: https://cyberleninka.ru (дата обращения: 21.04.2026).

4.Международная классификация функционирования, ограничений жизнедеятельности и здоровья Всемирная организация здравоохранения, 2001, Санкт-Петербургский институт усовершенствования врачей – экспертов Министерства труда и социального развития РФ, 2003- 138 с.

5. Рындак В.Г., Аллагулов А.М., Челпаченко Т.В. //Цифровые технологии как средство развития инклюзивного образования // Вестник ОГУ. 2021. №3 (231). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-tehnologii-kak-sredstvo-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya (дата обращения: 22.04.2026).

6.Чеботарева А. В. //Роль цифровых технологий в инклюзивной образовательной среде https://www.sgu.ru/

INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH, ISLOHOTLAR VA MAVJUD MUAMMOLAR

B.Sh.Aymbetov - Ózbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Ijtimoiy ximoya milliy agentligi Qoraqalpoǵiston Respublikasi boshqarmasi Inklyuziv ta’limni rivojlantirish va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish shu’basi mudiri

Kirish. Jahonda inklyuziv ta’lim konsepsiyasi barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham mazkur yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish va ularni jamiyatga integratsiya qilish masalasi davlat siyosati darajasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

I. Nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim bilan qamrovi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim ta’lim huquqiga ega (50-modda) ekanligi belgilab qo‘yilgan.2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi Qonunda inklyuziv ta’lim ta’lim shakllaridan biri sifatida e’tirof etilib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim olish xuquqi kafolatlangan. Mamlakatimizda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami **10 474 nafar** nogironligi bo‘lgan bola ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning asosiy qismi **7–18 yosh** toifasiga to‘g‘ri keladi. Ta’lim bilan qamrab olish imkoniyati mavjud bo‘lgan 3–18 yoshdagi **9 673 nafar** boladan **9 058 nafari** (93,6%) ta’lim bilan qamrab olingani ijobiy ko‘rsatkich sifatida baholanadi. Jumladan,- **25 nafari** oliy ta’lim muassasalariga;

- **98 nafari** texnikumlarga;
- **4515 nafari** umumta’lim maktablarining oddiy sinflariga;
- **1310 nafari** umumta’lim maktablarining uy ta’limiga;
- **411 nafari** umumta’lim maktablarning inklyuziv sinflariga;
- **881 nafari** maxsus maktab-internatlariga;
- **1444 nafari** maktabgacha ta’lim tashkilotlariga;
- **367 nafari** ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTTlariga;

Ta’lim shakllari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalarning katta qismi umumta’lim maktablarining oddiy sinflarida ta’lim olmoqda. Shu bilan birga, uy ta’limi, inklyuziv sinflar va ixtisoslashgan maktab-internatlar orqali ham ta’lim xizmatlari ko‘rsatilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida **3 ta** ixtisoslashtirilgan maktab-internat va **1 ta** ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat ko‘rsatadi. Ularda **812 nafar** bola qamrab olingan.

II. Inklyuziv ta’limning joriy etilishi va rivojlanishi

Umumta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish uchun zarur sharoitlarni yaratishni kengaytirish maqsadida inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish

bo‘yicha yangicha yondashuv respublikada tatbiq etilmoqda. Alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlagan holda beriladigan ta’lim. “Inklyuziv ta’lim” umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida (maktablarda) jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun tashkil etiladi. So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida inklyuziv ta’limni kengaytirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2025 yilda **50 ta** maktabda inklyuziv sinflar tashkil etish rejalashtirilgan bo‘lsa, amalda **53 ta** maktabda **64 ta** sinf tashkil etildi va **260 nafar** bola qamrab olindi. Hozirgi kunda **121 ta** maktabda **266 ta** inklyuziv sinf faoliyat yuritib, ularda **409 nafar** bola ta’lim olmoqda. Bu ko‘rsatkichlar inklyuziv ta’limning bosqichma-bosqich rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Joriy yilda Respublikamiz bo‘yicha **86 ta** inklyuziv sinflar tashkil etilib, **94 nafar bola** qamrab olinadi. Natijada **94 nafar** nogironligi bo‘lgan bolalar oilasi, ota-onalari bag‘rida ta’lim-tarbiya olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga erishiladi. Maktabgacha ta’lim tizimida ham inklyuziv yondashuv joriy etilmoqda. Rejaga nisbatan yuqori natijalarga erishilib, inklyuziv guruhlar soni va qamrov darajasi oshib bormoqda.

2025 yilda maktabgacha ta’lim yoshidagi nogironligi bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga qamrab olish maqsadida har bir tuman (shahar)da 1 tadan, jami **17 ta** maktabgacha ta’lim tashkilotida **102 nafar** bolani qamrab olish rejalashtirilgan bo‘lsa, amalda **20 ta** maktabgacha ta’lim tashkilotida inklyuziv guruhlar tashkil etilib, **115 nafar** bola qamrab olindi (reja 112,7%).

Bugungi kunda **19 ta** maktabgacha ta’lim tashkilotida **98 nafar** bola inklyuziv ta’limga qamrab olingan. Joriy yilda Respublikamizdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida **60 ta** inklyuziv guruhlar tashkil etilib, **110 nafar** bolalar qamrab olinadi. **III. Davlat siyosati va institutsional islohotlar** Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 24 dekabrdagi 818-son qarori mazkur sohadagi islohotlarning huquqiy asosini belgilab berdi. 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab To‘rtko‘l tumanidagi 62-sonli ixtisoslashtirilgan maktab bazasida ko‘zi ojiz va eshitishida nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf (1-4 sinf) o‘quvchilari ko‘p tarmoqli maktabga qabul qilinadi.

Shuningdek, **“Ilk rivojlanish markazlari”**ni tashkil etish orqali erta yoshdan bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etildi. Bu markazlar bolalarning ijtimoiylashuvi va ta’limga tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 iyuldagi “Ilk rivojlanish markazlari faoliyatini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 439-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2025 yil 23 iyuldagi 395-13-0-Q/25-son qarori qabul qilinib, joriy yilda Chimboy, Amudaryo, To‘rtko‘l tumanlarida **“Ilk rivojlanish markazlari”** tashkil etildi hamda o‘z faoliyatini boshladi.

Hozirgi kunda Amudaryo tumani “Ilk rivojlanish markazi”ga **239 nafar**, jumladan, **50 nafar** “Kambag‘al oilalar reestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari,

To‘rtko‘l tumani “Ilk rivojlanish markazi”ga **210 nafar**, jumladan, **76 nafar** “Kambag‘al oilalar reestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari, Chimboy tumani “Ilk rivojlanish markazi”ga **58 nafar**, jumladan, **37 nafar** “Kambag‘al oilalar reestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari qamrab olindi. Joriy yilda **Kegeyli**, **Qonliko‘l**, **Qo‘ng‘irot**, **Taxtako‘pir**, **Shumanay**, **Xo‘jayli**, **Ellikqal’a** tumanlarida **“Ilk rivojlanish markazlari”** tashkil etiladi.

IV. Muammolar va rivojlanish istiqbollari Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim muammolar hali ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, **615 nafar** bola ta’lim olish imkoniyatiga ega emasligi tizimdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu **615 nafar** bolani pedagogik-tibbiy-psixologik komissiya ko‘rigiga jalb etib, ta’lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish bo‘yicha choralar ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, uy ta’limida bo‘lgan o‘quvchilar soni ham nisbatan yuqori bo‘lib, ularni bosqichma-bosqich inklyuziv yoki an’anaviy ta’lim shakllariga jalb etish muhim vazifa sifatida belgilangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyati tahlil qilinganda, 2026 yil aprel oyi holatiga ko‘ra Respublika bo‘yicha **737 ta** maktab faoliyat yuritib, ularda jami **360 697 nafar** o‘quvchi ta’lim olmoqda.

Uy sharoitida ta’lim olayotgan o‘quvchilar soni tahlil qilinganda, 2026 yil aprel holatiga ko‘ra **1310 nafar** o‘quvchi uy ta’limiga jalb qilingan. 2026 yil davomida uy ta’limida tahsil olayotgan ayrim o‘quvchilarni oddiy sinflarga, inklyuziv ta’lim sinflariga, maxsus maktablar hamda maktab-internatlarga yo‘naltirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Tahlillarga ko‘ra, joriy yilda **204 nafar** o‘quvchini uy ta’limidan chiqarish prognoz qilinmoqda. Mana shu maqsadlarga erishish uchun kelgusida:

- inklyuziv sinflar sonini ko‘paytirish;
- pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- infratuzilmani moslashtirish;

ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim.

V. Maktab-internatlarida bolalarni kelgusida kasbga tayyorlash borasida ishlar. Jumladan, 10-sonli maktab-internatida poyafzal, 4-sonli maktab-internatida oshxona anjomlari, yumshoq o‘yinchoqlar, 3-sonli maktab-internatida choyshab, sumka, 62-sonli maktabda choyshab ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa. Qoraqalpog‘iston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muayyan ijobiy natijalar bermoqda. Ta’lim bilan qamrov darajasining yuqoriligi va inklyuziv sinflar sonining ortib borishi buning yaqqol isbotidir. Biroq, barcha bolalarni to‘liq qamrab olish va ta’lim sifatini oshirish uchun tizimli ishlar davom ettirilishi zarur.
Xulosa qilib aytish kerakki, alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning nutqi va ma’naviy olami, dunyoqarashi va tafakkuri, erkin fikrlash faoliyatini samarali rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish lozimdir. Shu bilan bir qatorda rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalarga kompleks yondashilsa, u holda diagnostika, profilaktika, korreksion pedagogik yordam va reabilitatsiya bilan

ta’minlangan shaxs ma’naviy sog‘lom, barkamol bo‘lib shakllanadi va jamiyatimizda o‘z o‘rnini topa oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yilgi yangi tahrir), 50-modda.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020 yil 23 sentyabr).

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 24 dekabrdagi 818-son qarori (inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha).

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 iyuldagi 439-son qarori (“Ilk rivojlanish markazlari” faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida).

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlari (2017–2024 yillar).

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АДАПТИРОВАННЫХ ИГРУШЕК ДЛЯ РАЗВИТИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ С ТМНР

Сыроватский Георгий Игоревич - дефектолог-олигофренопедагог, магистр педагогических наук

Аннотация: В данной работе представлены результаты пилотного исследования эрготерапевтического вмешательства, направленного на развитие функциональных возможностей верхних конечностей у детей дошкольного возраста с тяжёлыми и множественными нарушениями развития (ТМНР). В исследовании приняли участие 10 детей в возрасте 5–6 лет, не имевших предшествующего опыта посещения коррекционных или образовательных учреждений. В основу вмешательства положена ведущая деятельность дошкольного возраста — игра. Для преодоления двигательных ограничений были разработаны адаптированные игрушки с встроенными переключателями и прерывателями, позволяющие детям одновременно участвовать в игровой деятельности и целенаправленно тренировать навыки функционального использования рук.

Ключевые слова: эрготерапия, тяжёлые и множественные нарушения развития (ТМНР), дети дошкольного возраста, игровая деятельность, верхние конечности, адаптированные игрушки, переключатели и прерыватели, функциональная самостоятельность, коррекционная работа, доказательная практика, реабилитация, междисциплинарный подход

Тяжёлые и множественные нарушения развития (ТМНР) представляют одну из наиболее сложных категорий в современной специальной педагогике и медицинской реабилитации. Дети с ТМНР нуждаются в принципиально иных подходах к обучению, развитию и социальной адаптации — подходах, основанных на доказательной практике и глубоком понимании индивидуальных возможностей каждого ребёнка.

Эрготерапия как дисциплина, фокусирующаяся на целенаправленной значимой деятельности, предлагает уникальный инструментарий для работы с данной категорией детей. Особую роль в этом процессе играет игра — ведущая деятельность дошкольного возраста, являющаяся одновременно мотивационным ресурсом и терапевтической средой.

Инклюзивное образование предполагает равный доступ к качественному обучению для всех категорий учащихся, включая детей с ограниченными возможностями здоровья. Однако такие учащиеся часто сталкиваются с повышенными физическими и психоэмоциональными нагрузками, что требует внедрения специальных педагогических решений, в том числе активное использование здоровьесберегающих технологий, которые выступают важным инструментом обеспечения благоприятных условий обучения, способствуют снижению уровня утомляемости, профилактике заболеваний и повышению эффективности образовательного процесса [2].

Понятие «здоровьесберегающие технологии» включает совокупность методов, форм и средств организации образовательного процесса, направленных на сохранение и укрепление здоровья обучающихся. С позиции педагогической науки данные технологии рассматриваются как интегративная система, включающая организационно-педагогические условия, психолого-педагогическую поддержку, гигиенические требования к образовательной среде и формирование культуры здоровья [3].

Здоровье обучающихся понимается как комплексное явление, включающее физическое, психическое и социальное благополучие. Это соответствует определению Всемирной организации здравоохранения, согласно которому здоровье — это состояние полного благополучия, а не только отсутствие болезней.

В инклюзивном образовании особую роль играет индивидуальный подход, поскольку состояние здоровья учащихся может существенно различаться. Поэтому внедрение здоровьесберегающих технологий требует учёта индивидуальных особенностей каждого ребёнка. Инклюзивное образование базируется на принципах доступности, равенства и уважения к индивидуальным особенностям обучающихся. Основной задачей является создание условий, при которых каждый ребёнок может реализовать свой потенциал [4].

Образовательный процесс в условиях инклюзии характеризуется разнообразием образовательных потребностей, необходимостью адаптации учебных программ, использованием специальных методов обучения и тесным взаимодействием педагогов, психологов и родителей. Дети с ограниченными возможностями здоровья могут иметь различные нарушения, включая нарушения опорно-двигательного аппарата, зрения, слуха, интеллекта или эмоционально-волевой сферы. Эти особенности требуют особого подхода к организации образовательного процесса, включая соблюдение режима нагрузок, создание комфортной среды и применение специальных технологий [5].

В педагогической практике выделяются различные группы здоровьесберегающих технологий, каждая из которых выполняет свою функцию в образовательном процессе. Организационно-педагогические технологии направлены на рациональную организацию учебной деятельности. Они включают оптимальное распределение учебной нагрузки, чередование различных видов деятельности, соблюдение режима труда и отдыха, а также

адаптацию расписания с учётом индивидуальных возможностей учащихся. Психолого-педагогические технологии обеспечивают эмоциональное благополучие обучающихся. Они предполагают создание ситуации успеха, поддержку учебной мотивации, снижение уровня тревожности и развитие коммуникативных навыков. Физкультурно-оздоровительные технологии способствуют укреплению физического здоровья. К ним относятся физкультминутки, дыхательные упражнения, коррекционная гимнастика и подвижные игры. Медико-гигиенические технологии направлены на соблюдение санитарных норм и создание благоприятных условий обучения, включая правильное освещение, вентиляцию помещений, организацию рабочего места и контроль за состоянием здоровья учащихся. Эффективное внедрение здоровьесберегающих технологий требует системного подхода и комплексной организации образовательного процесса. В педагогической практике широко используются активные методы обучения, включая игровые и проектные технологии, а также дифференцированный подход и индивидуальные образовательные маршруты. Особое значение приобретает грамотное использование цифровых технологий с учетом санитарных требований [6].

Организация образовательной среды играет ключевую роль. Она должна быть безопасной, доступной и комфортной для всех участников образовательного процесса. Это предполагает использование эргономичной мебели, наличие специальных технических средств и создание доступной инфраструктуры. Важным условием является взаимодействие всех участников образовательного процесса — педагогов, родителей и медицинских работников.

Педагог является центральной фигурой в процессе внедрения здоровьесберегающих технологий. Его деятельность направлена на создание условий, способствующих сохранению и укреплению здоровья учащихся. В обязанности педагога входит планирование учебных занятий с учётом индивидуальных особенностей обучающихся, наблюдение за их состоянием, создание благоприятного психологического климата и формирование навыков здорового образа жизни. Профессиональная компетентность педагога, реализующего инклюзивное образование включает знания в области психологии, физиологии и гигиены, а также умение адаптировать образовательный процесс в соответствии с потребностями учащихся [7].

Несмотря на значимость здоровьесберегающих технологий, их внедрение в образовательную практику сопровождается рядом трудностей. К ним относятся недостаточный уровень подготовки педагогов, ограниченность материально-технических ресурсов, высокая нагрузка на учителей и отсутствие системного подхода. Перспективы развития связаны с внедрением инновационных педагогических технологий, повышением квалификации специалистов, развитием междисциплинарного взаимодействия и усилением государственной поддержки.

Использование здоровьесберегающих технологий в инклюзивном образовании является важным условием обеспечения качества образовательного процесса. Они способствуют сохранению здоровья обучающихся, повышению

их учебной мотивации, успешной социальной адаптации и личностному развитию.

Комплексный подход к организации образовательной деятельности позволяет создать условия, при которых каждый ребёнок получает возможность для полноценного развития и реализации своего потенциала.

Список литературы

1. Маджуга А.Г. Основы здоровьесбережения в образовании. — М., 2015.
2. Староверова М.С., Ковалев Е.В., Захарова А.В. Инклюзивное образование. Настольная книга педагога, работающего с детьми с ОВЗ. — М.: Владос, 2019. — 167 с.
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — М., 2006.
4. Богданова Т.Г., Гусейнова А.А., Назарова Н.М. и др. Педагогика инклюзивного образования. — М.: ИНФРА-М, 2025. — 335 с. (Классический современный учебник, раскрывает теорию и практику инклюзии)
5. Назарова Н.М. Специальная педагогика. — М., 2012.
6. Смирнов Н.К. Здоровьесберегающие образовательные технологии в современной школе. — М.: АПК и ПРО, 2002. — 121 с.
7. Соловьева А.В. Методы и технологии инклюзивного образования. — М.: Научный мир, 2016.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES AS TOOLS FOR INCLUSIVE EDUCATION OF CHILDREN WITH DISABILITIES: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL POTENTIAL

Bekmanova Jamilya Abdulayevna — Associate Professor of Philosophy of Pedagogical Sciences, PhD, NGPI named after Ajiniyaza, Faculty of Preschool and Primary Education, Department of Preschool Education and Defectology
Saparbayeva M.A. is a student at the Faculty of Primary and Preschool Education, Department of Preschool Education and Defectology of the NGPI named after. Ajiniyaza

Introduction The rapid advancement of digital technologies and artificial intelligence (AI) has fundamentally transformed the landscape of modern education, presenting unprecedented opportunities for the development of inclusive learning environments. In contemporary pedagogical discourse, inclusive education is understood not merely as the physical integration of children with disabilities (CWD) into mainstream educational institutions, but as the creation of systemic conditions ensuring the full-fledged participation, development, and self-realization of every child regardless of their psychophysical characteristics. Within this paradigm, digital tools and AI-powered systems occupy a central position, offering adaptive, personalized, and highly accessible educational experiences that traditional methodologies are often unable to provide.

Keywords: digital technologies, artificial intelligence, inclusive education, children with disabilities, adaptive learning, assistive technologies, accessibility, zone of proximal development, scaffolding, educational innovation.

The urgency of this issue is particularly pronounced in the context of Uzbekistan, where state policy in the field of inclusive education has been actively developing since the early 2010s, culminating in a series of legislative and normative documents that mandate the modernization of special and inclusive educational practices. The integration of digital technologies into this process represents not only a pedagogical imperative but also a matter of social justice, ensuring equal access to quality education for all members of society.

The theoretical basis of applying digital technologies and AI in the education of children with disabilities rests upon several interconnected conceptual frameworks. First and foremost, the socio-cultural theory of L.S. Vygotsky (1978) provides the foundational understanding of the zone of proximal development (ZPD), within which technology may function as a dynamic scaffolding tool, mediating the learner's cognitive processes and supporting the gradual internalization of knowledge. Digital assistive technologies, when properly calibrated to the individual developmental profile of the child, effectively operationalize the concept of the ZPD by providing precisely the degree of support necessary to bridge the gap between actual and potential developmental levels.

Secondly, Universal Design for Learning (UDL), developed by the Center for Applied Special Technology (CAST, 2018), offers a robust framework for understanding how digital environments can be structured to accommodate the full spectrum of learner diversity. The three core principles of UDL — multiple means of representation, action and expression, and engagement — find their most effective practical implementation precisely through the affordances of digital platforms and intelligent tutoring systems, which allow for real-time adaptation of content presentation, interaction modalities, and motivational scaffolding.

Thirdly, contemporary research in educational neuroscience substantiates the efficacy of multisensory digital environments for children with various nosological categories of disabilities. For children with autism spectrum disorders (ASD), AI-driven social skills training applications and emotion recognition systems have demonstrated measurable improvements in communicative competence and social interaction (Cabibihan et al., 2013). For children with speech and language impairments, computer-based speech therapy programs employing real-time acoustic feedback have shown significant therapeutic and educational outcomes (Pennington, 2010).

The practical application of digital technologies and AI in the education of children with disabilities encompasses several principal directions. Adaptive Learning Systems (ALS) represent perhaps the most transformative development in this domain. Powered by machine learning algorithms, these systems continuously analyze learner performance data, identify knowledge gaps, adjust the difficulty level and presentation format of educational content, and generate personalized learning pathways. Unlike static curricula, ALS responds dynamically to the individual cognitive rhythm of each learner, ensuring that neither over-stimulation nor under-stimulation impedes the educational process.

Augmentative and Alternative Communication (AAC) technologies constitute another critical area of application. For non-verbal children or those with severe speech

disorders, AAC devices — ranging from simple picture-based communication boards to sophisticated speech-generating devices (SGDs) powered by natural language processing — provide essential communicative channels, enabling meaningful participation in the educational process. Modern AAC applications integrated into tablet devices have dramatically increased the accessibility and affordability of these tools.

The emerging field of robotics and socially assistive robots (SAR) has opened entirely new possibilities for the education and therapy of children with ASD and developmental delays. Robots such as NAO and Kaspar have been successfully employed as mediators in social learning scenarios, eliciting responses from children who display limited engagement with human interlocutors. The predictable, patient, and non-threatening nature of robotic interaction creates a psychologically safe environment that facilitates the gradual development of social and communicative skills.Virtual and augmented reality (VR/AR) technologies offer immersive, controlled, and endlessly customizable learning environments particularly beneficial for children with sensory processing disorders, phobias, and anxiety-related conditions. By simulating real-world situations in a safe virtual space, VR allows children to develop adaptive behavioral strategies and practice functional skills without the unpredictability and sensory overload inherent in real-life settings.Despite the considerable promise of digital technologies and AI in inclusive education, a balanced assessment necessitates acknowledgment of existing limitations and risks. The so-called 'digital divide' — the unequal distribution of access to technology across socioeconomic strata and geographic regions — poses a serious threat to the equitable implementation of technology-based inclusive practices. In the context of developing educational systems, including those of Central Asian countries, disparities in technological infrastructure may paradoxically exacerbate existing inequalities rather than mitigate them.

Furthermore, the uncritical adoption of technology without adequate pedagogical preparation of educators may lead to superficial implementation that fails to realize the genuine potential of these tools. Research consistently demonstrates that technology is most effective when integrated into a coherent pedagogical framework guided by a competent, reflective practitioner (Selwyn, 2016). Teacher professional development in the field of educational technology thus emerges as a non-negotiable prerequisite for successful implementation.Ethical considerations pertaining to data privacy, algorithmic bias, and the risk of over-reliance on technology at the expense of human relational components of education must also be carefully addressed. The design and deployment of AI systems in educational contexts involving vulnerable populations, including children with disabilities, demands rigorous ethical oversight and transparent accountability mechanisms.

Artificial intelligence and digital technologies represent a transformative force in the education of children with disabilities, offering unprecedented possibilities for personalization, accessibility, and the operationalization of inclusive educational values. Their effective integration into pedagogical practice requires a theoretically grounded approach, robust professional preparation of educators, and attentive ethical stewardship. In the context of evolving educational policy frameworks in Uzbekistan

and the broader Central Asian region, the systematic and reflective adoption of these tools has the potential to significantly advance the quality and equity of inclusive education, ensuring that every child, regardless of their developmental profile, has access to meaningful, empowering, and high-quality learning experiences.

References

1. Закон Республики Узбекистан "Об образовании" (новая редакция, 2020). — Ташкент, 2020.

2. О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования детей с особыми образовательными потребностями : Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 октября 2020 г. № ПП-4860.

3. Об организации инклюзивного образования детей с особыми образовательными потребностями : Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 12 октября 2021 г. № 638.

4. CAST (2018). Universal Design for Learning Guidelines version 2.2. Wakefield, M

5. Cabibihan, J.-J., Javed, H., Ang, M., & Aljunied, S. M. (2013). Why robots? A survey on the roles and benefits of social robots in the therapy of children with autism. International Journal of Social Robotics, 5(4), 593–618.

6. Pennington, L. (2010). Computer systems for people with motor speech disorders. In R. Ranta, C. Gowramma & I. Ranta (Eds.), Speech Technology for Disabled People. London: Imperial College Press.

7. Selwyn, N. (2016). Is Technology Good for Education? Cambridge: Polity Press.

8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press.

INKLYUZIV TA’LIMDA GOSPITAL PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

Nizomiy nomidagi O‘zMPU dotsenti. Malika Pulatxujayev
Beknazarov Og‘abek, 3 kurs talabasi.

Annotatsiya Ushbu maqolada inklyuziv ta’limda gospital pedagogika kasal bolalarga ta’lim jarayonidan uzilmasdan individual va uzluksiz bilim olish imkoniyatini yaratishi bilan muhim ahamiyatga egaligi qisman yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, inklyuziv ta’lim sinfi, gospital pedagogika, tibbiy va pedagogik hamkorlik.

Аннотация В данной статье частично освещается важность госпитальной педагогики в инклюзивном образовании, заключающаяся в том, что она предоставляет больным детям возможность получать индивидуальное и непрерывное образование, не прерываясь от образовательного процесса.

Ключевые слова: инклюзивное образование, класс инклюзивного образования, госпитальная педагогика, медицинско-педагогическое сотрудничество.

Inklyuziv ta’lim tizimida gospital pedagogikaning ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Gospital pedagogika — bu kasalxonada yoki uzoq muddat davolanayotgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik yo‘nalishdir[2].

Inklyuziv ta’lim — alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlagan holda beriladigan ta’lim[1].

Inklyuziv ta’lim sinfi — maktabdagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning boshqa (sog‘lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta’lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf[1].

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyili — har bir bolaga, uning sog‘ligi va imkoniyatlaridan qat’i nazar, teng ta’lim olish huquqini ta’minlashdir. Shu jihatdan gospital pedagogika quyidagi vazifalarni bajaradi:

Avvalo, bolaning ta’lim jarayonidan uzilib qolmasligini ta’minlaydi. Kasallik sababli maktabga bora olmaydigan bolalar uchun kasalxona sharoitida ta’lim tashkil etilishi ularning bilim darajasini saqlab qolishga yordam beradi.

Ikkinchidan, bolaning psixologik holatini barqarorlashtiradi. Dars jarayoni bolada ijobiy kayfiyat uyg‘otib, kasallikka bo‘lgan e’tiborini kamaytiradi va ruhiy qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, individual yondashuvni ta’minlaydi. Gospital pedagogikada ta’lim bolaning salomatligi, charchoq darajasi va individual ehtiyojlariga mos ravishda tashkil qilinadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bolalar o‘qituvchi va boshqa o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lib, jamiyatdan uzilib qolmaslik imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Gospital pedagogika — bu kasalxona sharoitida davolanayotgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga qaratilgan maxsus pedagogik yo‘nalish bo‘lib, u bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega[3].

Avvalo, individual yondashuv ustuvor hisoblanadi. Har bir bolaning sog‘ligi, kasallik darajasi va psixofiziologik holatiga qarab ta’lim mazmuni va usullari moslashtiriladi.

Ikkinchidan, ta’lim jarayonining moslashuvchanligi muhim xususiyatdir. Darslar vaqti, davomiyligi va yuklamasi bolaning holatiga qarab o‘zgartiriladi. Zarur hollarda qisqa va yengil shaklda o‘tkaziladi.

Uchinchidan, tibbiy va pedagogik hamkorlik ta’minlanadi. O‘qituvchilar shifokorlar bilan yaqin aloqada ish olib borib, bolaning davolanish jarayoniga zarar yetkazmasdan ta’limni tashkil etadilar.

To‘rtinchidan, psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Gospital pedagogika bolaning ruhiy holatini yaxshilash, qo‘rquv va stressni kamaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, ta’limning uzluksizligi ta’minlanadi. Bolalar kasalxonada bo‘lsa ham, ta’lim jarayonidan uzilib qolmaydilar va maktab dasturini davom ettiradilar. Shuningdek, ijtimoiylashuvni qo‘llab-quvvatlash ham muhim xususiyatlardan biridir.

Bolalar muloqot qilish, jamoada bo‘lish va ijtimoiy ko‘nikmalarini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Gospital pedagogikaning asosiy xususiyati — bolaning sog‘ligi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashuvchan, insonparvar va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, gospital pedagogika ta’lim muassasalari va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlaydi. Bu esa bolaning har tomonlama rivojlanishi va sog‘ligi tiklanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[3].

Xulosa qilib aytganda, gospital pedagogika inklyuziv ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u kasal bolalar uchun ham sifatli va uzluksiz ta’limni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-sonli qarori.

2. М.М.Атамуратова, Д.Х.Якубова. Инклюзивное образование. Госпитальная педагогика. Урганч, Bookmany print. 2024.

3. Асранбаева М.Х., Ориббоева Д.Д., Рафикова Р.А. Инклюзивное образование. Госпитальная педагогика. Наманган, SUNRISE-PRO, 2024.

ИНКЛЮЗИВ АМАЛИЁТДА АЛОҲИДА ЁРДАМГА МУҲТОЖ БОЛАЛАРНИ ТЮТОР ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Низомий номидаги Ўзбекистон миллий педагогика университети
п.ф.н.,проф. Д.А.Нуркелдиева
2 курс магистранти Н.Хасанова

Аннотация

Мақолада инклюзив таълим шароитида тюторнинг касбий фаолияти, унинг мақсад ва вазифалари таҳлил қилинган. Тюторнинг таълимда алоҳида ёрдамга муҳтож болаларни умумтаълим муҳитига мослаштириш, уларнинг ижтимоийлашуви ва шахсий ривожланишини қўллаб-қувватлашдаги ўрни ёритилган. Шунингдек, боланинг когнитив, коммуникатив ва эмоционал соҳаларини ривожлантириш, мустақиллигини таъминлаш ҳамда ота-оналар ва мутахассислар билан самарали ҳамкорликни ташкил этиш масалалари кўриб чиқилган. Тюторлик фаолиятининг босқичлари ва самарадорлигини таъминловчи омиллар асослаб берилган.

Аннотация

В статье анализируется профессиональная деятельность тьютора в условиях инклюзивного образования, его цели и задачи. Раскрывается роль тьютора в адаптации детей с особыми образовательными потребностями к условиям общеобразовательной среды, а также в поддержке их социализации и личностного развития. Рассматриваются вопросы развития когнитивной, коммуникативной и эмоциональной сфер ребёнка, формирования его самостоятельности, а также организации эффективного взаимодействия с

родителями и специалистами. Обоснованы этапы тьюторской деятельности и факторы, обеспечивающие её эффективность.

Инклюзив таълимда тютор олдида муҳим вазифа туради: таълимда алоҳида ёрдамга муҳтож болаларга жамиятда муваффақиятли бўлишга ёрдам бериш. Бу эса ривожланишида ўзига хос хусусиятлари бўлган болалар ҳаётини қўллаб-қувватлашни англатади. Бунда асосий жиҳат — махсус эҳтиёжли инсон учун янги таълим муҳити доирасида тўлиқ ва сифатли ҳаёт кечириш шароитларини яратишдир.

Тютор ўқитувчи ёки психологдан нимаси билан фарқ қилади? Тютор ишида педагогик воситалар ва психологик усуллардан фойдаланади. Шунингдек, у мақсадларни аниқлашга ёрдам беради. Тютор ўқитувчи эмас. Ўқитувчи муайян фанлар бўйича билим беради, тьютор эса инсоннинг таълимига умуман ёндашади. У ўқитмайди, балки нима ўқиш кераклиги, қандай ўқиш кераклигига ёрдам беради ва жараёнда ҳамроҳлик қилади. Тьютор психолог ҳам эмас. Психолог шахсий муаммолар, стресс, муносабатларни йўлга қўйиш каби масалаларга ёрдам беради. Тьютор эса таълимга йўналтирилган. У қийинчиликларда ёрдам бериши мумкин, лекин фақат ўқиш билан боғлиқ масалалар доирасида.

Тьютор нималарни билиши керак? Тьюторлик — педагогика ва психология кесишган соҳадаги фаолият. Ўқувчиларга профессионал равишда ҳамроҳлик қилиш учун идеалда педагогика ёки психология бўйича маълумотга эга бўлиш ва имкони бўлса қайта тайёрлаш курсларини ўташ керак. Шунингдек, махсус курслар орқали ҳам тютор бўлиш мумкин. Яхши тьютор: индивидуал иш учун педагогик усулларни билиши (суҳбат, саволлар, ресурслар харитаси, янги фаолиятни синаб кўриш);педагогика, ёш психологияси ва физиология асосларини билиши; вақтни бошқариш кўникмаларига эга бўлиши ва тайм-менежментни ўргата олиши; режалаштиришни яхши билиши керак.

Тютор нафақат боланинг таълимий қизиқишларини қўллаб-қувватлаши, балки унинг оиласини ҳам қўллаб-қувватлаши, бола атрофида унга нисбатан толерант ижтимоий-маданий муҳитни шакллантириши лозим.

Ҳар бир педагог ҳам таълимда алоҳидада ёрдамга муҳтож бола учун ҳамроҳ вазифасини бажара олмайди. Бу фаолият педагогдан юқори даражада толерантлик (болани шартсиз қабул қилиш), махсус педагогика ва махсус психология соҳасида етарли билим, шунингдек ривожланган коммуникатив кўникмаларни талаб қилади.

Инклюзив таълимда бундай мутахассислар педагог-ҳамроҳ, адаптор, куратор, синф раҳбари, қўллаб-қувватловчи деб ҳам аталади. Амалиётда тютор сифатида махсус педагоглар (логопедлар, дефектологлар ва бошқалар) фаолият юритадилар.

Инклюзив таълимда тюторнинг мақсад ва вазифаларига таълимда алоҳидада ёрдамга муҳтож болани умумтаълим муассасаси муҳитига муваффақиятли қўшишдир.

Боланинг мактаб ҳаётига муваффақиятли мослашуви қуйидаги йўналишлардаги ривожланиш орқали баҳоланади: когнитив (билиш) соҳаси — билим ва кўникмалар; коммуникатив соҳа — мулоқот қилиш қобилияти; ҳиссий

соҳа — синфда ўқиш жараёнига психологик мослашув, таълим жараёни ва мактаб муҳитига нисбатан ижобий эмоционал муносабатни шакллантириш ва сақлаш.

Тютор фаолиятининг аниқ вазифалари боланинг имкониятлари ва шахсий хусусиятларига боғлиқ. Ҳар бир бола ноёбдир, шунингдек мактаб муҳити ҳам ўзига хос хусусиятларга эга. Шу боис аниқ вазифаларни белгилаш мактаб консилиуми мутахассислари зиммасига юкланади.

Тюторнинг ота-оналар билан ишлаши алоҳида аҳамиятга эга. Ота-оналарнинг фаоллиги ва машғулотлар моҳиятини тушуниши таълим ва ижтимоийлашув жараёни самарадорлигининг муҳим шарти ҳисобланади.

Ота-оналар билан ишлашнинг асосий йўналишлари:

- янги келган болаларнинг ота-оналари билан алоқа ўрнатиш, вазифаларни тушунтириш, ҳамкорлик режасини тузиш;
- ҳиссий қўллаб-қувватлаш;
- бола ривожланиш хусусиятлари ва прогнозлари ҳақида маълумот беришга кўмаклашиш;
- болага нисбатан адекват муносабатни шакллантириш, муаммоларни таҳлил қилиш ва ёрдам стратегиясини амалга оширишда масъулиятни қабул қилиш кўникмасини ривожлантириш;
- таълим ва ижтимоийлашув жараёнида назарий ва амалий билимларга қизиқиш уйғотиш;

Бу жараёнда психолог, махсус педагог, шифокор, ижтимоий ходим ва бошқа мутахассислар иштирок этадилар.

Боланинг ресурс ва қийинчиликларини аниқлашда тютор боланинг ресурслари ва камчиликларини кўра билиши, таълим жараёнида юзага келадиган муаммоларни ҳал этиш йўлларини бола билан биргаликда топа олиши лозим. Боланинг нималарни мустақил бажара олиши, нима ёрдам бериши ёки чеклаши аниқланади.

Тютор қўллаб-қувватлашни ташкил этиш босқичлари

Индивидуал қўллаб-қувватлашнинг умумий босқичлари:

- бола ҳақида маълумот тўплаш;
- олинган маълумотларни ва шахсий кузатувларни таҳлил қилиш;
- бошқа мутахассислар билан ҳамкорликда тавсиялар ишлаб чиқиш ва индивидуал таълим режасини тузиш;
- белгиланган вазифаларни амалга ошириш;
- бола ривожланиш динамикасини таҳлил қилиш ва стратегияни тузатиш.

Дастлабки босқич қўллаб-қувватлаш бўйича сўровни қабул қилишни ўз ичига олади. Қўллаб-қувватлаш зарурати ота-оналар (қонуний вакиллар) аризаси асосида ёки психолого-медико-педагогик комиссия (ПМПК) хулосасига кўра белгиланади.

Тьюторнинг ПМПК мутахассислари билан самарали ҳамкорлиги унинг ишини енгиллаштиради ва болани янги таълим муҳитига қўшиш жараёнини самарали қилади. Дастлабки босқичда тьютор диагностика натижалари, тиббий карта, тасдиқланган таълим маршрути билан танишади, ПМПК ва бошқа мутахассислардан индивидуал таълим режаси (ИТР) бўйича тавсиялар олади.

Умумий маълумотларни олгандан сўнг, тютор бола ва унинг оиласи билан танишади, унинг хусусиятлари, қизиқишлари, кучли ва заиф томонлари ҳақида маълумот олади.

Тютор ота-оналарга ўзининг улар фарзанди билан ишлашга қизиқиши ва ижобий натижага чин дилдан интилayotganини ҳис эттириши лозим. Ота-оналарни тьюторнинг функционал вазифалари билан таништириш керак, бунда томонларнинг масъулияти ва мажбуриятлари таълим муассасаси билан тузилган умумий шартнома доирасида аниқ белгилаб берилади.

Ушбу босқичда болани олдиндан у машғулот ўтайдиган хоналар, иш жойи, синфлар, спортзал, ошхона, ҳожатхона жойлашуви билан таништириш зарур. Шунингдек, тютор ота-оналар, ўқувчилар ва педагогик жамоа билан учрашувлар ўтказиб, уларни таълимда алоҳида ёрдамга муҳтож боланинг келишига тайёрлаши, барча иштирокчиларда инклюзив таълимга ижтимоий қизиқишни шакллантириши мақсадга мувофиқ.

Бу ота-оналар йиғилишларида суҳбатлар, таълимда алоҳида ёрдамга муҳтож эга болалар ва инклюзив таълим ҳақида фильмлар намойиши орқали амалга оширилиши мумкин.

Тюторликнинг қўллаб -қувватлиги таълимда алоҳида ёрдамга муҳтож ўқувчиларнинг билим олиш, ижтимоийлашув жараёнидаги муаммоларини камайтиришга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар

Т. М. Ковалева Е. И. Кобыща С. Ю. Попова (Смолик) А. А. Теров М. Ю. Чередилина. Профессия «тьютор» М.-Тверь 2012г.: «СФК-офис».

2. Школа на пути к открытому образованию. Опыт освоения тьюторской позиции. Автор: Е.А. Волошина и др. Издательство Москва-Тверь: «СФК Офис», (Серия «Библиотека тьютора». Вып.4), 2013.

3. Сунцова А.С. Теории и технологии инклюзивного образования: учебное пособие. - Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2013

4. Тьюторство в открытом образовательном пространстве: становление профессиональной тьюторской деятельности. Автор: Коллектив авторов. Издательство: М.: МПГУ, 2014.

SHIFOXONA MAKTABLARI ISHTIROKCHILARINING O'QUV JARAYONIDAGI O'ZARO ALOQASI

E.K.Orazımbetov – Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.

Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuzivlik, insonparvarlik va individual yondashuv tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun tibbiyot muassasalari qoshida tashkil etilgan maktablar alohida ijtimoiy ahamiyatga ega. Bunday ta’lim maskanlari bolalarning nafaqat bilim olish, balki psixologik barqarorligini saqlash, jamiyatdan uzilib qolmaslik va kelajakka ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ta’limini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Mehrli Maktab loyihasi tibbiyot muassasalarida davolanayotgan bolalar uchun maxsus ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biridir.

Tibbiyot muassasalari qoshidagi maktablar umumta’lim maktablaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- O‘quvchilar sog‘lig‘i bilan bog‘liq cheklovlarga ega;
- Dars jarayoni davolanish grafigiga moslashtiriladi;
- Individual o‘quv rejalar asosida ta’lim beriladi;
- Psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi;
- Ota-onalar bilan doimiy muloqot talab etiladi.

Bu maktablarda ta’lim jarayoni faqat akademik bilim berish bilan cheklanmaydi. Asosiy maqsad — bolaning ruhiy holatini barqaror saqlash, stressni kamaytirish va ijobiy emotsional muhit yaratishdir.

Ota-onalar bolaning birlamchi tarbiyachisi va psixologik tayanchidir. Ayniqsa, sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan bolalar uchun ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi yanada muhimdir.

Ota-onalarning ishtiroki quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Psixologik qo‘llab-quvvatlash

Bola kasallik sababli ruhiy tushkunlikka tushishi mumkin. Ota-onaning ijobiy munosabati, rag‘batlantirishi va ishonchi bolaning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ta’lim jarayonida hamkorlik

- Individual ta’lim rejalarini tuzishda;
- Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda;
- Uy vazifalarini bajarishda yordam berishda ishtirok etadilar.

Ota-ona o‘qituvchi va tibbiyot xodimlari o‘rtasida axborot almashinuvida muhim vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Mehrli maktab - bu tashabbus uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun mehr-muruvvatga asoslangan ta’lim modelini yaratishga qaratilgan. Jumladan:

- Kasalxonalar qoshida sinfxonalar tashkil etilgan;
- Zamonaviy o‘quv qurollari bilan ta’minlangan;
- Psixolog va pedagoglar jamoasi shakllantirilgan;
- Ota-onalar uchun maslahat va treninglar yo‘lga qo‘yilgan.

“Mehrli Maktab” modelining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat.

- Mehr va insonparvarlik;
- Individual yondashuv;
- Oila bilan hamkorlik;
- Inklyuzivlik;
- Ijtimoiy moslashuvni ta’minlash.

Ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mexanizmlari

- *Ochiq muloqot tizimi;*
- Ota-onalar yig‘ilishlari;
- Individual suhbatlar;
- Onlayn platformalar orqali aloqa;

- Psixologik maslahatlar.

Hamkorlik memorandumlari

Maktab va ota-onalar o‘rtasida o‘zaro majburiyat va mas’uliyatni belgilovchi kelishuvlar tuziladi.

Seminar va treninglar

- Stressni boshqarish;
- Bolaning motivatsiyasini oshirish;
- Uy sharoitida ta’limni tashkil etish bo‘yicha treninglar o‘tkaziladi.

Ko‘ngillilik va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash

- Bayram tadbirlarini tashkil etishda;
- Ijodiy mashg‘ulotlarda;
- Kitobxonlik va ma’naviy-ma’rifiy loyihalarda ishtirok etishlari mumkin.

Ta’lim muhitining psixologik jihatlari

Tibbiyot muassasalaridagi maktablarda quyidagi omillar muhim:

- Xavfsizlik hissi;
- Mehribon pedagogik muhit;
- Ijobiy rag‘bat;
- Stressni kamaytiruvchi metodlar.

Ota-onalarning faol ishtiroki bolada:

- Ishonch;
- Ijtimoiylashuv;
- Maqsad sari intilish;
- O‘ziga baho berish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Muammolar:

- Ota-onalarning ruhiy zo‘riqishi;
- Axborot yetishmasligi;
- Vaqt taqchilligi;
- Ijtimoiy stigma.

Yechimlar:

- Psixologik yordamni kuchaytirish;
- Axborot platformalarini kengaytirish;
- Moslashuvchan ta’lim jadvali;
- Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Tibbiyot muassasalari qoshidagi maktablarda quyidagilar samarali hisoblanadi:

- Individual ta’lim trayektoriyasi;
- Masofaviy ta’lim elementlari;
- Art-terapiya;
- O‘yin asosidagi o‘qitish;
- STEAM elementlari.

Ota-onalar ushbu jarayonlarda faol ishtirok etishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda? tibbiyot muassasalari qoshidagi maktablarda ta’lim muhitini yaratish murakkab, ammo nihoyatda muhim jarayondir. Bu jarayonda ota-

onalar faqat kuzatuvchi emas, balki faol hamkor, mas’uliyatli ishtirokchi va pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALARNI O'QITISHDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

E.K.Orazımbetov – Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.
M.A. Maqsudova - Maxsus pedagogika (logopediya) ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

20 asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi va uning jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’sirini kuchayishi munosabati bilan jahon ta’lim tizimida jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Hukumatlar va oddiy fuqarolarning ta'limga munosabati o'zgardi. Ta’lim mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, uning jahondagi raqobatbardosh mavqeini mustahkamlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ta’minlash va innovatsion salohiyatni shakllantirish omili, shuningdek, qator muammolarni hal etish omili, insoniyatning omon qolishi bilan bog'liq global muammolar sifatida qarala boshlandi. Shu munosabat bilan ko'plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida tasniflangan.

Biz yashayotgan davr jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘zgarishlarning ortib borayotgan sur’atlari bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan talabalar tomonidan olingan bilimlarning tez o'zgaruvchan ilmiy-texnikaviy, normativ-huquqiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitlarga muvofiqligi muammosi tobora keskinlashmoqda. Axborot hajmining intensiv o'sishi natijasida yuzaga keladigan odamga ma'lumot yukining sezilarli darajada oshishi muammosi ham o'tkirdir, bu ayniqsa o'quvchilarning maktabda ta'lim olish davrida yaqqol namoyon bo'ladi.

Buning oqibati umumta'lim maktablarida muammoli, o'qimagan, maktabga mos kelmaydigan o'quvchilar orasida kasallikka chalingan bolalar sonining doimiy ravishda ko'payishidir. Bunday hollarda ta'lim muassasalarining vazifasi ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan ta'lim va rivojlanish uchun shunday shart-sharoitlarni ta'minlashda. Bu vazifa maktab o'quvchilarining mehnatini muhofaza qilish kontseptsiyasiga o'xshaydi.

O’qitish — bu sistematik ravishda ta'lim olishning eng muhim va ishonchli usuli. Shuningdek, Y.A.Komenskiy o'qitishning umumiy tartibini topishga harakat qildi, unda o’qitish inson va tabiatning yagona qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shunda o'rganish vaqtni, mavzularni va usullarni mohirona taqsimlashdan boshqa narsani talab qilmaydi. Ta'limga bunday yondashuvning dolzarbligi tufayli - texnologik, zamonaviy metodistlar va o'qituvchilar o'zlari uchun yangi bo'lgan tushunchalar - pedagogik texnologiyalar, o'qitish texnologiyalari, ta'lim texnologiyalariga murojat qilmoqdalar. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun sog'liqni saqlashni tejaydigan ta'lim texnologiyalari alohida ahamiyatga ega.

Binobarin, zamonaviy ta'lim muassasasi oldida talabaga mustaqil ish ko'nikmalarini egallash va doimiy yangilanib turadigan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradigan o'quv muhitini yaratish vazifasi turibdi.

Masofaviy ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar orasida eng keng tarqalganlari:

▪***keys texnologiyasi*** — har xil turdagi axborot vositalaridan (keyslardan) foydalangan holda talabalarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-uslubiy majmualar to‘plami shaklida axborot ta’lim resurslari bilan ta’minlashga asoslangan masofaviy ta’lim shakli;

▪I***nternet-texnologiya*** — bu talabalarning axborot ta'lim resurslariga kirishini ta'minlash va o'quv jarayonini amalga oshirish va boshqarish uchun uslubiy, tashkiliy, texnik va dasturiy vositalar majmuasini shakllantirish uchun global va mahalliy kompyuter tarmoqlaridan foydalanishga asoslangan axborotni uning sub'ektlari joylashgan joyidan qat'i nazar masofadan uzatish usuli;

▪***telekommunikatsion texnologiya*** — bu asosan sun’iy yo‘ldosh orqali ma’lumotlarni uzatish va teleeshittirish, shuningdek, o‘quvchilarning o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqalarini hamda o‘quvchilarning o‘quv axborot resurslariga kirishini ta’minlash uchun global va mahalliy tarmoqlardan, raqamli kutubxonalar, video ma'ruzalar va boshqa o'quv qo'llanmalardan–foydalanishga asoslangan texnologiya. Muayyan ta’lim texnologiyasini (shakli, metodikasi) ta’lim tizimiga baholash va joriy etishning asosiy mezoni uning samaradorligi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyalari ularning ta’lim olish huquqini ta’minlash, sog‘lig‘i cheklangan bo‘lsa-da, uzluksiz bilim olishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim mexanizm hisoblanadi. Bu jarayon gospital pedagogika tizimi doirasida amalga oshirilib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bolaning individual ehtiyojlariga moslashtiriladi.

UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALAR UCHUN TA’LIMNI TASHKIL ETISH

E.K.Orazımbetov – Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi dotsenti v.v.b.
K.A.Raximboyeva - Maxsus pedagogika (logopediya) ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun maxsus ta'lim (gospital pedagogika) 21 kundan ortiq statsionar davolanayotgan o‘quvchilarga shifoxona sharoitida yoki uyda yakka tartibda tashkil etiladi. Bu tizim moslashuvchan o‘quv rejasi, ruhiy ko‘mak va fanlararo integratsiyani o‘z ichiga olib, ta’lim olish huquqini kafolatlaydi.

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'limni tashkil etishning asosiy jihatlari quyidagicha belgilanadi:

- Davolash-profilaktika muassasalarida 21 kun va undan ortiq davolanayotgan maktab yoshidagi bolalar uchun ta’lim tashkil etiladi.

- Shifoxona sharoitida maxsus ta'limiy muhit yaratiladi, bunda o‘quv jarayoni bolaning jismoniy holatiga qarab moslashtiriladi.

- Agar bola shifoxonada emas, balki uyda uzoq vaqt davolanishi kerak bo‘lsa, unga uyda yakka tartibda ta’lim berish tartibi qo‘llaniladi.

- O‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi samarali muloqot bolaning ehtiyojlarini aniqlash va o‘quv jarayonini samarali moslashtirish uchun o‘ta muhimdir.

Ta'lim jarayonida inkluziv yondashuv, fanlararo integratsiya va o‘quvchining ruhiy-pedagogik ehtiyojlarini hisobga olish ustuvor hisoblanadi.

Bu tizimning asosiy maqsadi bolaning davolanish davrida ta'limdan uzilib qolmasligini ta'minlash va ularni ruhiy qo‘llab-quvvatlashdir.

O‘qituvchilar tibbiyot muassasalarida ikki asosiy yo‘nalishda muhim o‘rin tutadi: tibbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak shifokor va hamshiralarni tayyorlash, hamda gospital pedagogika tizimida uzoq vaqt davolanayotgan bolalarga ta’lim berish. Ular kasbiy bilim, deontologiya va bioetika qoidalarini o‘rgatish orqali yuqori malakali kadrlar yetishib chiqishini ta’minlaydi, shuningdek, bemor bolalarning ijtimoiy moslashuvi va ta’lim olish huquqini himoya qiladi.

Tibbiyot muassasalarida o‘qituvchilarning o‘rni va roli:

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va kollejlarida o‘qituvchilar (professor-o‘qituvchilar) bo‘lajak shifokorlarga tibbiy nazariya va amaliyotni, shuningdek, shifokorlik deontologiyasi va bioetika asoslarini o‘rgatadilar.

Shifoxonada uzoq vaqt davolanayotgan bolalar uchun maxsus pedagogik muhit yaratadilar. Bu jarayon bolaning ruhiy holatini yaxshilash, o‘qishdan orqada qolmasligini ta’minlash va reabilitatsiyasiga yordam beradi.

Tibbiyot xodimlarining pedagogik mahoratini oshirish, ularni bemorlar bilan to‘g‘ri muloqot qilish, kasbiy etikani shakllantirish va tibbiyotdagi yangiliklarni o‘rgatishda yetakchi o‘rin tutadi.

O‘qituvchilar gospital muhitda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etib, bemor bolalarning jamiyatga qaytishini osonlashtiradi. O‘qituvchilar tibbiyotda nafaqat bilim beradi, balki insonparvarlik tamoyillari asosida yuqori malakali kadrlar va sog‘lom avlodni shakllantirishda ko‘prik vazifasini bajaradi.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim jarayoni ularning jismoniy holatiga moslab tashkil etiladi. Dars davomiyligi odatda oddiy maktablardan qisqaroq (odatda 20–35 daqiqa) bo‘lib, individual yoki kichik guruhlarda, shifokor tavsiyasiga ko‘ra o‘quvchi charchab qolmasligi uchun rejalashtiriladi.

Uzoq muddat davolanayotgan bolalar ta’limida ota-onalar tibbiyot xodimlari va o‘qituvchilar bilan birgalikda yagona jamoa (hamkor) sifatida ishtirok etadi. Ular bolaning ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlash, darslar rejimini nazorat qilish va ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlashda asosiy ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Asosiy hamkorlik yo‘nalishlari:

- **Tibbiy-pedagogik hamkorlik:** Ota-onalar shifokorlar bilan birgalikda bolaning jismoniy imkoniyatidan kelib chiqib, yuklamani (dars vaqtini) belgilaydi.
- **Ruhiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash:** Oila muhitini saqlab qolish orqali bolada ta’limga motivatsiya uyg‘otadi.
- **Ta’lim uzluksizligi:** Uyda yoki statsionarda o‘qituvchilar bilan aloqada bo‘lib, topshiriqlarni bajarilishini nazorat qiladi.

• **Hujjatlashtirish va moslashish:** Tibbiy xulosalarni ta’lim muassasasiga taqdim etib, bolaga moslashtirilgan ta’lim dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Ota-ona ishtiroki bolaning davolanish davomida bilim olish huquqini kafolatlovchi asosiy manbadir.

O'qituvchining javobgarligi.

Ta'limni tashkil etish jarayonida o'qituvchining majburiyatlarining huquqiy asosi quyidagilardan iborat:

• Moslashtirilgan umumiy ta’lim dasturini ishlab chiqish (pedagog- psixolog bilan birgalikda).

• Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda fan bo‘yicha ish dasturini ishlab chiqish.

• O‘quv mashg‘ulotlari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni muayyan bolaning ehtiyojlariga moslashtirish.

• Bemor bola bilan mashg'ulotlar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv qo'llanmalarini tanlash.

• Zarur bo'lganda, maxsus texnik vositalardan foydalaning (agar ular tibbiyot muassasalari va ta'lim muassasalarida mavjud bo'lsa).

Shunday qilib, *o'qituvchining mas'uliyat sohasi faqat nogiron bola bilan ishlash uchun odatiy darslarini moslashtirishni o'z ichiga oladi.* Bu nafaqat o'qitish usullarini o'zgartirishni, balki bolalar uchun vazifalarni tanlashni ham o'z ichiga oladi. Maktab ma'muriyati odatda o'qituvchining standart ish nagruzkasini (yukini) to'ldirishga harakat qiladigan boshqa barcha narsalar uning bevosita mas'uliyatiga taalluqli emas.

INKLYUZIV TA’LIMNING IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN IJTIMOIY AHAMIYATI

Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi katta óqituvchisi K.A.Tajimuratova
Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 3-B guruh talabasi S.Abilezova

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimining transformatsiyasi inklyuziv yondashuvni talab etmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu faqat pedagogik model emas, balki ijtimoiy adolatni ta’minlash mexanizmi sifatida ham qaraladi. Ta’lim tizimida barcha bolalarga teng imkoniyat yaratish muhimligi asoslab beriladi. Shuningdek, inklyuziv ta’limni joriy etishda uchraydigan asosiy to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritiladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan tizim sifatida talqin etiladi.

Inklyuziv ta’limning nazariy-metodologik asoslari

Inklyuziv ta’lim nazariyasi bir nechta fundamental pedagogik konsepsiyalarga asoslanadi. Xususan, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim o‘quvchi tomonidan faol ravishda shakllantiriladi va bu jarayonda uning individual tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois inklyuziv ta’limda standartlashtirilgan emas, balki moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish talab etiladi.

Humanistik pedagogika vakillari (K. Rogers, A. Maslow) ta’lim jarayonida shaxsning o‘zini namoyon qilishi va psixologik qulaylik muhimligini ta’kidlaydi. Inklyuziv muhit aynan shu ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim ijtimoiy model asosida rivojlanadi. Ushbu modelga ko‘ra, muammo shaxsda emas, balki muhitda — ya’ni ta’lim tizimi moslashmaganida yuzaga keladi. Shu sababli asosiy e’tibor muhitni moslashtirishga qaratiladi.

Differensial va individual yondashuvning ilmiy asoslari

Inklyuziv ta’limning markazida differensial yondashuv turadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning:

- kognitiv darajasi
- psixologik holati
- o‘rganish tezligi
- ijtimoiy moslashuv darajasi
- kabi omillarni hisobga olishni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, individual o‘quv trayektoriyasini yaratish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda adaptiv metodlar (moslashtirilgan dasturlar, vizual materiallar, multimodal o‘qitish) muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba: tizimli yondashuv tahlili

Xalqaro tajribani tahlil qilish inklyuziv ta’limni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.Finlandiya modelida “early intervention” (erta aralashuv) tamoyili asosiy o‘rin tutadi. Bu orqali muammolar boshlang‘ich bosqichda aniqlanadi.Kanada tajribasida esa multidisipliner jamoa (psixolog, defektolog, pedagog) ishlashi yo‘lga qo‘yilgan.Germaniyada dual tizim orqali nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unlashtirilgan.

Ushbu tizimlarning umumiy jihati — davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlash va ilmiy asoslangan yondashuvdir.

Amaliyotdagi muammolar: tizimli tahlil

Inklyuziv ta’limni joriy etishda quyidagi tizimli muammolar kuzatiladi:

- Pedagogik muammolar

O‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa o‘quv jarayonining sifatiga ta’sir qiladi.

O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarur. Maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi kerak.

- Institutsional muammolar

Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi barcha o‘quvchilar ehtiyojlariga mos emas. Ayniqsa, jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun infratuzilma yetishmaydi.

- Ijtimoiy-psixologik muammolar

Jamiyatda mavjud stereotiplar inklyuziv muhit shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini qiyinlashtiradi.

Innovatsion yondashuvlar va rivojlanish strategiyalari

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda quyidagi ilmiy asoslangan strategiyalar samarali hisoblanadi:

AKT integratsiyasi — sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari

Blended learning — an’anaviy va onlayn ta’lim uyg‘unligi

Universal Design for Learning (UDL) — barcha o‘quvchilar uchun mos dizayn

Life-long learning modeli — uzluksiz ta’lim konsepsiyasi

Bundan tashqari, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash orqali inklyuziv muhitni samarali tashkil etish mumkin. Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim.

Inklyuziv ta’lim - bu jismoniy, intellektual, madaniy yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, barcha bolalar uchun teng ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim yondashuvidir. O‘quvchi ta’lim jarayoniga moslashadigan an’anaviy tizimdan farqli o‘laroq, inklyuziv muhitda ta’lim jarayonining o‘zi moslashtiriladi va har kim yashash joyidagi tengdoshlari bilan birga o‘qishi uchun maxsus sharoitlar yaratiladi.

Inklyuziv ta’lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion– uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi) imkoniyati cheklangan va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi tusiqlarni (diskriminasiyani) bartaraf etish, maxsus ta’limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron

bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim jarayoni yo‘lga qo‘yilar ekan, unda ta’lim oluvchi har bir shaxs o‘z qadrqimmati, o‘z qobiliyatini namoyon qilish, yutuqlarga erishish, dars jarayonida qatnashish, yutuqlarga erishish, bir-biri bilan muloqotga kirishish, bir-birini to‘ldirish imkoniga ega bo‘ladi [1].

Haqiqatan ham, inklyuziv ta’lim umumta’lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo‘lgan ta’limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olishiga oid qo‘shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta’lim olishiga qulay sharoit yaratadi.

Inklyuziv ta’lim asosiy ishtirokchilari ota-onalar, nadavlat, notijorat tashkilotlari, oddiy va imkoniyati cheklangan bolalar, sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xodimlar, xalq ta’limi tizimi, mutaxassislar, tibbiy psixologik-pedagogik komissiya, pedagoglardan iborat.

Inklyuziv ta’limni keng miqiyosda rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi.

Inklyuziv ta’lim tamoyillari:

Teng imkoniyatlar: Barcha bolalarga, ularning xususiyatlaridan qat’i nazar, bir xil imkoniyatlar berish;

Xilma-xillikni qabul qilish: O‘quvchilar o‘rtasidagi farqlarga to‘siq emas, balki resurs sifatida qarash;

Tizimni moslashtirish: Turli ehtiyojlarni qondirish uchun o‘quv jarayoni, o‘qitish usullari va ta’lim muhitini o‘zgartirish;

Ijtimoiylashuv: Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash, bag‘rikenglik, hamdardlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Inklyuziv ta’lim qanday amalga oshiriladi?

Maxsus sharoitlar yaratish: O‘quv xonalarini moslashtirish, individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va maxsus jihozlardan foydalanish;

Differensial yondashuv: Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda maxsus o‘qitish usullari va texnologiyalarini qo‘llash;

Shaxsiy qo‘llab-quvvatlash: Bolaning muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradigan shaxsiy murabbiylik va boshqa turdagi yordam ko‘rsatish;

Ishtirok etishning turli shakllari: Ba’zi hollarda, o‘quvchi darslarning yoki sinfdan tashqari tadbirlarning faqat bir qismiga qatnashadigan qisman ta’lim shakli yoki o‘quvchi uyda o‘qiydigan, ammo tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan nuqtali shakl qo‘llanilishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim bolalarga yo‘naltirilgan va barcha bolalar turli xil ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxslar ekanligini tan oladigan metodologiyani rivojlantirishga intiladi. Inklyuziv ta’lim turli xil ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun moslashuvchan bo‘lgan o‘qitish va o‘rganish yondashuvini ishlab chiqishga harakat qiladi. Agar inklyuziv ta’limni amalga oshiradigan o‘zgarishlar natijasida o‘qitish va

o‘rganish yanada samaraliroq bo‘lsa, unda barcha bolalar (faqat alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar emas) foyda ko‘radi.

Inklyuziv ta’lim - bu hamma uchun birdek ta’lim hisoblanadi. Har qanday maktabda imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi ta’minlanadi. Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hisobga olinadi, boshlang‘ich, asosiy va yuqori bosqichlarda ta’lim turlicha tashkil etiladi.

“Salamanka deklarasiyasi”ga muvofiq xar bir o‘quvchining tafovut, xususiyatlarini qo‘llab quvvatlovchi va ma’qullovchi isloxot sifatida qarashadi. Uning maqsadlari, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregassiyaga yo‘l qo‘ymaslik. Biroq bu konsepsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lib chiqdi. Dunyo bo‘yicha maktablarda inklyuzivga ko‘pincha umumta’lim maktablarida nogironlarni o‘zlarining tengdoshlari bilan birga ta’lim olish deb qaraladi.

Biroq inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi bilim va ma’lumotlar hali jamiyatda etarli emas. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalari ko‘pincha bir xil ma’noda ishlatiladi. Biroq shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Xulosa qilib aytganda keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tengdoshlari katori umumta’lim tizimida ta’lim olishiga jiddiy etibor berilmokda va inklyuziv ta’lim matbuot axborot vositalari orqali ommaga keng targ‘ibot qilinmoqda. Bu borada ota-onalar xam farzandlarini umumta’lim tizimidagi integrasiyalashgan va inklyuziv guruh va sinflarda ta’lim - tarbiya olishiga o‘z istaklarini bildirishmoqda.

Poydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Shoymatova “Inklyuziv ta’lim istiqboli: muammo va yechimlar” // International scientific and practical conference volume 1 | issue 8. 68-71 betlar.

DEFEKTOLOGIYALIQ DEONTOLOGIYA: INKLYUZIV BILIMLENDIRIWDE AYRIQSHA JÁRDEMGE MÚTÁJ BALALAR SHAXSINA INSANIYLIQ QATNAS JASAWDIŃ KORREKCIYALIQ ÁHMIYETI

Erejepbaeva M.S.-Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Mektepke shekemgi ham baslawısh tàlim fakulteti arnawlı pedagogika: logopediya tàlim baǵdarı 4v-kurs studenti

Djumabaeva G.B.-Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq Mektepke shekemgi tarbiya ham defektologiya kafedrasi institutı ulken-oqıtıwshısı

Búgingi kúnde bilimlendiriw sistemasındaǵı eń úlken reformalardan biri bul - inklyuzivlik, yaǵnıy hárbir balanıń imkaniyatına qaramastan, teń huqıqlı bilim alıwın támiyinlew bolıp esaplanadı. Biraq, ámeliyat sonı kórsetedi, inklyuziv bilimlendiriw tek ǵana mektep imaratına panduslar ornatıw yamasa sabaqlıqlar beriw menen sheklenbeydi. Onıń jetiskenligi bilim beriwshi qánigeniń, ásirese defektologtıń kewlinde balaǵa bolǵan múnásibet penen belgilenedi

Insaniyat rawajlanıwı sonday basqıshqa keldi, endi jámiyettiń ruwxiy jetikligi oniń fizikalıq yamasa ruwxiy rawajlanıwında kemshiligi bar shaxslarǵa bolǵan múnásibeti menen ólshenbekte. Arnawlı pedagogika hám arnawlı psixologiya tarawında xızmet etip atırǵan hárbir qánige ushın "Deontologiya" túsinigi tek ǵana kásiplik qaǵıydalar toplamı emes, al onıń kúndelikli iskerligindegi ádep-ikramlılıq kompası bolıp tabıladı.

Inklyuziv bilimlendiriw sisteması jámiyetke sonday bir haqıyqattı usındı, oǵan bola hárbir bala, onıń imkaniyatlarına qaramastan, bilim alıwǵa hám húrmetleniwge haqılı. Biraq, inklyuziv ortalıqtıń jetiskenligi tek materiallıq baza yamasa sabaqlıqlar menen belgilenbeydi. Onıń tiykarı - defektologtıń balaǵa bolǵan adamgershilikli qatnası bolıp esaplanadı. Insanıylıq - bul korrekciya procesiniń "kórinbes dvigateli" bolıp, ol balanıń kewline jol tabıw arqalı onıń tilin hám sanasın ashıwǵa xızmet etedi.

Defektologiyalıq deontologiyanıń túp tamırları ullı oyshıllar hám pedagoglardıń kózqaraslarına barıp tiykarlanadı. Atap aytqanda, L.S. Vıgockiy óziniń "Defektologiya tiykarları" shiǵarmasında balanıń kemshiligine emes, al oniń salamat funkciyalarına súyeniw kerekligin aytıp, insanıylıqtıń ilimiy tiykarın qurǵan.

Ózbekistan arnawlı pedagogikası rawajlanıwına úlken úles qosqan ilimpazlardan L.R. Muminova, M. Ayupova hám R. Shomahmudovalar óz miynetlerinde defektologtıń sóylew ádebi hám kásiplik etikası baladaǵı tutlıǵıw (logonevroz) hám autizm belgilerin jumsartıwda tiykarǵı faktor ekenligin dálillep bergen. Zamanagóy izertlewler sonı kórsetedi, pedagogtıń insanıylıq pazıyletleri korrekciyalıq shınıǵıw nátiyjeliligin 45% ke shekem arttırıw qúdiretine iye.

Ayrıqsha járdemge mútáj balalar (sóylewinde nuqsanı bar, esitiwi yamasa kóriwi sheklengen, aqılıy rawajlanıwı tómen balalar) kóbinese "Men basqalardan jamanman" degen ishki qorqıw menen jasaydı. Bul qorqıw olardıń kognitiv proceslerin tormozlap qoyadı.

Defektolog balaǵa "Nawqas" sipatında emes, al "Individual ózgeshelikke iye shaxs" sipatında qarawı kerek. Bunday múnásibet balada ózine bolǵan isenimdi oyatadı. Biz óz tájiriybemizde kórdik, bala pedagogtıń shın kewilden miyrimi hám húrmetin sezse, onda qarım-qatnasqa kirisiw zárúrligi tábiyǵıy túrde artadı. Bul - sóylew korrekciyasındaǵı eń úlken jetiskenlik.

Inklyuziv bilimlendiriwde defektologtıń roli ózine tán. Ol tek ǵana kemshiliklerdi korrekciyalap yamasa kognitiv processlerdi rawajlandırıp qoymaydı, sonıń menen birge, balanıń salamat teńlesleri arasında ózin " Jat" sezinbewin támiyinleydi.

Defektologiyada "Zıyan keltirmew" degende tek fizikalıq emes, al ruwxiy ziyan da túsiniledi. Bir ǵana suwiq qaras, "Sen buni epley almaysań" degen gáp yaki balanıń uqıpsızlıǵına ashınıp kúliw — deontologiyanıń eń awır buzılıwı. Biz óz ámeliyatımızda baqlaǵanmız, balaǵa "Sen ájayıpsan, háreket etseń, álbette jeńeseń" dep qatnas jasaw onıń sóylew orayların aktivlestiredi hám qorqıwdı joq etedi.

Defektologiyalıq deontologiyanıń teoriyalıq túp-tamırlarınan ótken ásirdiń ullı pedagog hám psixologlarınıń biri L.S. Vıgotskiy óziniń mádeniy-tariyxıy teoriyasında baladaǵı kemshilikti "Sociallıq dislokaciya" (jámiyetten ajıralıp qalıw) dep ataǵan. Onıń pikirinshe, balanıń kemshiligine berilgen sociallıq baha balanıń ózinen kóre kóbirek jaraqat jetkeredi. Baladaǵı fizikalıq yaki ruwxıy kemshilik - bul onıń "Sociallıq

ósiwindegi tosqınlıq". Eger qánige bul tosqınlıqqa tek ǵana medicinalıq kózqarastan qarasa, nátiyje kútilgendey bolmawı múmkin.

Ózbekistanlı alımlar L.R. Muminova hám M. Ayupovalar óz izertlewlerinde defektologtıń sóylew ádebi, kiyiniwi, ózin tutıwı hám ata-ana menen qatnasıǵı tikkeley korrekciya procesiniń bir bólegi ekenligin dálillegen. Insanıylıq kózqaras mine usı deontologiyalıq shınjırdıń eń tiykarǵı buwını bolıp tabıladı. Sebebi, mehir hám isenim bar jerde ǵana bala óziniń kemshiliginen uyalmaydı hám qarım-qatnasqa umtıladı.

Deontologiya qánigeden empatiyanı, yaǵnıy balanıń jaǵdayın seziniwdi talap etedi. Biraq, bul ashınıw degeni emes. Ashınıw balanı hálsizlendiredi, insanıylıq hám isenim bolsa onı kúshli etedi. Defektolog balaǵa tilekles bolıwı, biraq oniń imkaniyatlarına gúman qılmawı kerek.

Aralboyı aymaǵınıń quramalı ekologiyalıq jaǵdayı, hawanıń shańlılıǵı hám temperaturanıń keskin ózgeriwi bul jerde jasap atırǵan balalardıń ulıwma salamatlıǵına tásir etpey qalmaydı. Biziń baqlawlarımız boyınsha, Nókis qalası hám onıń átirapındaǵı mektepke shekemgi bilimlendiriw shòlkemlerinde tárbiyalanıp atırǵan balalarda tez sharshaw, ashıwshaqlıq hám dıqqattıń tarqalıwı sıyaqlı belgiler kóp ushırasadı.

Bunday sharayatta isleytuǵın defektologtan eki ese kóbirek deontologiyalıq juwapkershilik talap etiledi. Balanıń sabaqta ózin jaman seziwi yamasa túskin keypiyatta bolıwın onıń tábiyatına emes, al sırtqı faktorlarǵa baylanıstırıw, oǵan túsinip qaraw - adamgershiliktiń ámeliy úlgisi bolıp esaplanadı. Bul jerde defektolog tek muǵallim emes, al balanıń ruwxıy jaǵdayın seziniwshi psixolog sıpatında kórinedi.

Inklyuziv bilimlendiriwde ata-analar menen islesiw defektologtan joqarı diplomatiyalıq sheberlikti talap etedi. Balasınıń rawajlanıwında mashqalası bar ata-ana kóbinese tereń ruwxıy jaraqat penen jasaydı. Deontologiya bizge ata-ananı "Ayıplaw"dı emes, al olardı "Birge islesiwshi" dep biliwdi úyretedi. Nókis qalasındaǵı jergilikli sharayatta ata-analarǵa balanıń jaǵdayın ilimiy hám sonıń menen birge adamgershilikli tilde túsindiriw, olarǵa xoshamet beriw qánigeniń wazıypası bolıp esaplanadı. Inklyuziv bilimlendiriwde tabıstıń 50 procenti ata-anaǵa baylanıslı. Defektolog balanıń kemshiliklerin emes, mayda jetiskenliklerin birinshi bolıp ata-anaǵa aytıwı kerek. Balanıń diagnostikalıq maǵlıwmatların basqa shaxslarǵa bermewi kerek. Bul ata-ananıń qánigege bolǵan isenimin bekkemleydi. Ata-ananı ayıplaw (máselen, "Nege waqtında alıp kelmediniz?") qánigelik etikasına tuwrı kelmeydi. Onıń ornına házirgi jaǵdaydan qalay shıǵıp ketiw haqqında usınıslar beriw insanıylıq bolıp esaplanadı.

Biz alıp barǵan pedagogikalıq baqlawlar sonı kórsetedi, defektologiyalıq deontologiya normalarına ámel etilgen shınıǵıwlarda balalardıń ózlestiriw kórsetkishi dástúriy sabaqlarǵa qaraǵanda joqarı. Bunıń nàtiyjesinde, balada ózine bolǵan isenimi 40% ke artadı. Sóylewinde kemshiligi bar balalar "logofobiya" (sóylewden qorqiw) n tezirek jeńip ótedi. Bala salamat teńlesleri arasında óziniń "Kemshiligi" haqqında oylamay, ulıwma oyın hám shınıǵıwlarǵa kirisip ketedi.

Inklyuziv klass yamasa topardaǵı salamat balalar defektologtıń ayrıqsha járdemge mútáj balaǵa múnásibetin kórip, tolerantlıqtı úyrenedi. Eger qánige ózin deontologiyalıq jaqtan durıs tutsa, pútkil jámáátte óz-ara járdem hám adamgershilik

ortalıǵı qáliplesedi. Solay eken, defektologtıń etikası tek ǵana bir bala ushın emes, al pútkil jámiyet tárbiyası ushın áhmiyetli.

Juwmaq ornında aytıw múmkin, defektologiyalıq deontologiya - bul kewilden shıǵatuǵın hám ámeliyatta kórinetuǵın joqarı adamgershilik. Inklyuziv bilimlendiriw sharayatında insanıylıq kózqaras korrekciya procesiniń tek ǵana qosımshası emes, al onıń tiykarı bolıp esaplanadı. Hárbir bala ózine tán dúnya, defektolog bolsa mine usı dúnyanıń nurların ashıwshı qánige. Miyrim-shápáát hám professional juwapkershilik birlesken jerde tosıqlar jemiriledi, isenim bar jerde bolsa, àlbette, àjayip isler jùz berip, jàmiyette hàrbir bala òz ornın tabadı.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Ayupova M. Logopediya (Darslik). – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
3. Mo‘minova L.R., Shomahmudova R. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
4. Vygotskiy L.S. Osnovy defektologii. – Moskva: Pedagogika, 2003.
5. Inkluziv ta’lim: muammo va yechimlar. Konferensiya materiallari. – Nukus: Bilim, 2024.

Zayniddinova M. Defektologning kasbiy etikasi. – Samarqand, 2021

INKLYUZIV TA’LIMDA BOLALARGA MEHNAT KO‘NIKMALARIN HOSIL QILISHDA KREATIV YONDASHUV

Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi katta oqituvchisi K.A.Tajimuratova

Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 3-B guruh talabasi U.Saparbaeva

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyillari ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori asosida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim berishning aniq mexanizmlari belgilab berilgan. Mazkur qaror PF-6155-son Farmon hamda PQ-4860-son qaror ijrosini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, inklyuziv ta’limni keng joriy etishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi bir qator ilmiy-nazariy yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu jarayonning nazariy poydevori, avvalo, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, faoliyatga asoslangan yondashuv, madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv bilan chambarchas bog‘liqdir. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, bola rivoji uning faoliyati jarayonida, ayniqsa amaliy va mehnat faoliyatida samarali shakllanadi. Shu bois mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat amaliy ehtiyoj, balki shaxs rivojining muhim omili sifatida talqin etiladi. Madaniy-tarixiy yondashuvga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va ta’lim jarayoni orqali yuzaga chiqadi, ya’ni o‘quvchi kattalar yordamida murakkab faoliyatlarni egallaydi va asta-sekin mustaqil bajarish darajasiga o‘tadi. Bu jarayonda “yaqin rivojlanish zonasi”

tushunchasi muhim ahamiyat kasb etib, aynan pedagog tomonidan beriladigan qo‘llab-quvvatlash orqali bola o‘z imkoniyatlarini kengaytiradi. Inklyuziv ta’limda aynan shu nazariya asosida topshiriqlar differensial tarzda, bolaning imkoniyatiga mos holda tashkil etiladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishni bevosita amaliy faoliyat orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Ya’ni bola tayyor bilimni emas, balki faol ishtirok orqali tajriba orttiradi, bu esa bilimning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Ayniqsa aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda abstrakt tafakkur yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli, konkret-amaliy faoliyat asosiy o‘rganish vositasiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qo‘l mehnati mashg‘ulotlari ularning bilish jarayonlarini faollashtirish, motorika va koordinatsiyani rivojlantirish, shuningdek, tafakkur va nutqni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchining hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish aynan ushbu yondashuvning amaliy ifodasidir.

Aqli zaif bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari aqliy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi: bilish faoliyati sust rivojlangan, diqqatni uzoq vaqt saqlay olmaydi, qo‘l harakatlari noaniq, motorika zaif, tafakkur va tasavvur cheklangan, topshiriqlarni ketma-ket bajarishda qiyinchilik mavjud Shu sababli, bunday bolalar bilan ishlashda o‘qitish jarayoni: sodda bosqichma-bosqich ko‘rgazmali, qiziqarli tarzda tashkil etilishi zarur. Qo‘l mehnati inklyuziv ta’limda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.Qo‘l mehnati orqali bola nafaqat biror buyum yasaydi, balki o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his qiladi. Aqli zaif bolalar tez charchashi va diqqatining tez chalg‘ishi sababli an’anaviy metodlar doim ham samarali bo‘lavermaydi.

Kreativ yondashuv o‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Art-terapiya bolalarning hissiy holatini yaxshilaydi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: barmoq bilan rasm chizish, plastilin bilan ishlash, qum bilan rasm chizish, akvarel tomchilatish texnikasi, kollaj yashashdan iborat.

Inklyuziv ta’lim sharoitida aqli zaif bolalarda qo‘l mehnati ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifadir. Kreativ yondashuvlar orqali bu jarayon yanada samarali, qiziqarli va natijador bo‘ladi. O‘yin, art-terapiya, loyiha va sensor metodlardan foydalanish bolalarning motorikasi, mustaqilligi, ijtimoiy moslashuvi va mehnatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bois, inklyuziv ta’limda qo‘l mehnati mashg‘ulotlari bolani jamiyatga tayyorlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonun -T.: 2021 y.
2. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika(mutaxassislikka kirish).T.:G‘.G‘ulom. 2005 y.
3. M.Yu. Ayupova «Logopediya» -T.: « O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2007-yil.
4. P. Po‘latova. Maxsus pedagogika. Darslik.Toshkent-2014

TUG’MA AQLIY ZAIFLIK: TASHXIS, TARBIYA VA JAMIYATDAGI O’RNI

Aytbaeva Gulnara NDPI. Maktabgasha va boshlangish ta’lim fakulteti.
Maktabgasha ta’lim yónalishi 1-kurs keshki ta’lim talabasi
Ilmiy rahbar A.T.Saparov

Hozirgi vaqtda jamiyatimizda aqliy jihatdan zaif insonlar ham istiqomat qiladi. Ularning yashashi, ta’lim olishi davlat tamonidan kafolatlanadi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”. ”Aqlan zaiflik”-bu yig‘ma tushuncha bo‘lib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir bo’lgan vaqti, boshidan kechirilgan kasallikning harakteri, patologik o‘zgarishlarning o‘tishi, darajasi bilan bog'liq bo‘lgan masalalarni ko‘zda tutadi.

Bolalarda uchraydigan aqliy zaiflik kasalligi oligofreniya deyiladi. Uning sabablari: tug‘ruqning og‘ir o‘tishi, erta bolalik davrida o‘tkazilgan bosh miyaning og‘ir kasalliklari *(meningit, ensefalit),* bosh miya jarohatlari va qarindoshlar orasida turmush qurishdir. Homilador ayol aminokislotalar, glyukoza, vitaminlar va mineral moddalarga boy bo‘lgan oziq-ovqatlarni yetarli darajada iste’mol qilmasa ham aqliy zaif bola tug‘ilishi xavfi oshadi. Homilador ayolni ruhan ezaverish ham asabiy nosog‘lom bolaning dunyoga kelishiga sababchi bo‘ladi. Ba’zida oligofreniya sababini aniqlash qiyin.

Belgilari: aqliy zaiflik rivojlanayotganligi, odatda bola 2-3 yoshga yetganda ma’lum bo‘lib qoladi. Chunki bolaning nutqi 1yoshdan keyin chiqa boshlaydi. Ota-ona bolaning o‘z tengdoshlaridan orqada qolib borayotgani, harakatlari yo‘qligi, tili kech chiqayotganiga e’tibor qaratadi. Masalan, bola 3 yoshga yetsa ham nutqi rivojlanmay qoladi, o‘yinchoqlarga qiziqmaydi, ruhiy faolligi o‘ta sust bo‘ladi. Bunday bolalarning aksariyati jismonan nimjon ham bo‘lishadi. Oligofreniyaning og‘ir turlarida bolaning boshi kichik bo‘lib, uni tik tuta olmaydi. Bola 5-6 yoshga yetganda aqliy zaiflik belgilari yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning xatti-harakatlari 3-4 yashar bolaga o‘xshaydi, ba’zilari juda qaysar, yig‘loqi va o‘jar bo‘lsa, boshqa birlari o‘ta sust bo‘lib, o‘yin-kulgili voqealarga sira e’tibor qilmaydi. Oligofreniyaning yengil turida bola gaplashadi, uydagi ishlarni bajaradi, ust-boshiga e’tibor qiladi, biroq aqliy faollikni talab qiluvchi ishlarda ularning ojiz ekanligi bilinib qoladi. Bunday bola bog‘cha va maktabdagi oddiy topshiriqlarni bajara olmaydi, oddiy arifmetik qo‘shish-ayirishlarda juda qiynaladi, uni tengdoshlari kalaka qilib yuradi. Shuning uchun ham oligoforeniya bilan kasallangan bola o‘zidan yosh bolalar bilan o‘ynashni xush ko‘radi. Necha yashar bolalar bilan o‘ynayotganiga qarab, uning aqliy rivojlanishdan necha yil orqada qolayotganini bilib olish mumkin.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar psixologiyasi sog’lom rivojlanayotgan bolalar psixologiyasidan farq qiladi. Aqli zaif bolalarning diqqati tarqoq va idrok qilish qobilyati juda sust bo’ladi. Aqi zaif bolalar xotirasi juda sust rivojlangan bo’ladi,ammo ularning ham hotirasini rivovlantirish mumkin. Buning uchun ularga korreksion ishlar erta yo’lga qo’yilishi va to’g’ri olib borilishi kerak. Psixologiyadan malumki, inson xotirasini rivojlantirish uchun avvalo uning barcha

bilish jarayonlari ustida ish olib borish lozim. Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniya uch darajaga ajratiladi: debillik, imbetsillik va idiotlik.

Debillik-birmuncha yengil daraja bo'lib, oligofreniyaning eng ko'p tarqalgan turidir. Yordamchi maktablarga bolalarni saralash vaqtlarida asosan shu bolalar bilan ish olib boriladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining asosiy qismini ham debil bolalar tashkil qiladi. Bu bolalarni saralash vaqtida ham ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Buning asosiy sababi shuki, aqliy nuqson u darajada chuqur emas. Bu bolalar umumlashtira oladilar. Bog'cha yoshi davrida predmetli, sodda mazmunli o'yinlarni tashkil qila oladilar. Maktab yoshi davrida esa ma'lum muayyan holatlarni baholay oladi, amaliy masalalarni yechishda to'g'ri ish tutadi. Nutqi asosan saqlangan bo'lib, mexanik xotirasi nisbatan yaxshi natijalar beradi. Bularning barchasi yordamchi maktab dasturi hajmidagi materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi. Debil bolalarda yetarli harakatchanlik, ish qobiliyatlari saqlangan bo'ladi. Bu bolalarda nisbatan hissiyot-iroda sifatlari yaxshi saqlangani natijasida o'zlarini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Yordamchi maktabning maxsus sharoitlar tufayli debil bolalar 9yil davomida ommaviy maktablar boshlang'ich sinf hajmidagi o'quv materiallarini egallab, ma'lum ishlab chiqarish, kasb-hunar tayyorgarligini oladilar. Qator ijobiy xislatlarga qaramay, ma'lum darajada aqliy rivojlanmaganlik bu bolalarga ham xosdir. Bu bolalarning tafakkurlari ko'rgazma-obraz mazmunini kasb etadi. Tushunchalarning shakllanishi juda qiyin amalga oshadi. Umumlashtirish, taqqoslash jarayonlari juda qiyin kechadi. O'qilgan muayyan mazmunni qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradilar.

Embetsillik- debil darajadan birmuncha og'ir darajadir. Aqliy nuqsonning imbetsillik darajasida oligofreniyaning o'ziga xos xususiyatlari va namoyon bo'lishi birmuncha yuqori ko'rinadi. Birinchi navbatda, bu muayyan holatlarda umumlashtira olmaslik, hatto oddiy tushunchalarni hosil qila olmasligi bilan ajralib turadi. Imbetsil bolalarning mantiqiy fikrlash jarayonlari juda past darajada bo'ladi. O'qigan materialning mazmunini ilg'ab ololmaydilar. Yordamchi savollar orqaligina qisman mazmunini tushunishlari mumkin. Ko'rish va eshitish analizatorlari qabul qilgan axborotlarni tahlil qila olmasligi natijasida harflarni eslab qolishda qiynaladilar, o'xshash tovushlarni bir-birlariga aralashtirib yuboradilar. Kitobdagi matnlarni mexanik ravishda o'qib, mazmunini tushuntira olmaydilar. Yordamchi savollar orqaligina qisman mazmunini tushunishlari mumkin. O'nggacha sanash, o'n ichida hisob kitob qilishlari mumkin. Lekin ularda murakkab son haqidagi tushunchalar yo'q. Ularning so'z boyligi kam bo'lib, nutqi ifodasiz, jumlalari qisqadir. Ular faoliyatlarida tashshabuskorlik, mustaqillikka intilish kabi shaxsiy xislatlar bo'lmaydi. O'zlarining mustaqqil ishlarini aqliy jihatdan tushuntirib bera olmaydilar. O'rgangan ish uslubi, malakalar o'zgartirilsa bu bolalar shoshib qoladilar. Shu sababli ularni hayotga moslashtirishda muntazam nazoratga, rahbarlikka va yordamga muhtojlik sezadilar. Ayrim ma'lumotlarni o'zlashtirish qobiliyatlarini ko'rish mumkin. Ba'zan soda jumlalarni tushuna oladilar, narsalarning sodda, umumiy belgilariga qarab ularning farqlarini bilishlari mumkin. Ularni o'qish, yozish va tartibli sanash elementlariga o'rgatish mumkin. Murakkablashmagan oligofreniyaning yengil va o'rta darajasidagi imbetsillar jismoniy mehnatning oddiy turlarini egallashlari mumkin. Imbetsillikning og'ir darajalarida ularni eng sodda ish turlariga ham o'rgatish mumkin emas.

Idiotlik- ular idroklarida qo'pol rivojlanmaganlik ko'rinadi. Atrof-muhitga bo'lgan munosabati mos emas. O'z shaxsini aniq bilmaydi. Tafakkuri esa deyarli yo'q. Ular o'zlariga qarab gapirilgan gapdan ko'ra mimika va yuz harakatlarini nisbatan ilg'ab oladilar. Idiotlar nutqi aqliy nuqson chuqurligiga bog'liq. Ular nutqi ma'nosiz tovushlardan, ba'zan alohida so'zlar yig'indisidan iborat bo'lishi mumkin. Hissiyotlari haddan tashqari sodda bo'lib, fiziologik xohishlar bilan bog'liqdir. O'zlarining xursandchiliklarini harakat, qichqirish, mimika harakatlari bilan namoyon etsalar, xafagarchiliklarini esa qaysarlik, o'z tana organlarini jarohatlash bilan ko'rsatishlari mumkin. Idiotlarning nisbatan yengilroq turlarida ijtimoiy hislarning saqlanganligini ko'rish mumkin. Ularning umumiy kayfiyatlari goh befarq, goh bo'shanglik va xursandchilik bilan ifodalanishi mumkin. Harakat tizimlarining haddan tashqari kambag'alligi natijasida hatto yurish va tik turish malakalari ham buzilgan bo'ladi. O'zlariga xizmat qilish malakalari shakllanmagan va xulqlari esa asosan ularning talablarini qondirish bilan bog'liq. Ba'zilari bir xildagi stereotip harakat qiladilar. Ritmik ravishda tana harakati, bir xildagi bosh, bo'g'inlar harakatini kuzatish mumkin. Idiot darajadagi aqliy nuqsonlilikda turli nuqsonlar yoki tutqanoqlar, ba'zan jismoniy rivojlanishida qo'pol nuqsonlar-teri nuqsonlari, ichki organ kamchiliklari, endokrin va modda almashinuvining buzilishini ko'rish mumkin. Aqliy zaiflikka o'xshash holatlar ko'pincha, markaziy nerv tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bu o'zgarishlar alohida nerv-psixologik sistemasining rivojlanishi va faoliyatiga, shuningdek bir butun organizmning holati va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aqli zaiflik o'xshashlikka olib keladigan holatlarning sabablari turlichadir. Markaziy nerv sistemasining buzilishlarining og'irligi va lokalizatsiyasi bo'yicha ham turlicha bo'lishi mumkin. Aqliy jihatdan zaif bolalarga ta'lim berishda quyidagi amallar bajariladi:

- o'quvchilarni atroflicha pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish asosida butun ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtiriladi;
- aqli zaif o'quvchilarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini kuzatiladi;
- ularning harakat sistemalarini to'g'irlab boriladi;
- bilish faoliyatini shakllantiriladi;

Bular asosida o'quvchilarda xarakter va madaniy xulq-atvor mezonlari tarbiyalab boriladi. Oligofrenopedagog *(aqli zaif bolalar bilan ishlaydigan pedagog*) aqli zaif bola-larning ota-onalari, jamoatchilik bilan ham tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Maktabni bitirib ketgan hamma o'quvchilar bilan ham muntazam aloqa bog'lab, ketamnestik ma'lumotlar yig'ib boradi. Ularning ishga joylashishlariga yordam beradi. Bunda ularning maxsus yordamchi maktabda egallagan bilim ko'nikmalari yordamga keladi. Maxsus yordamchi maktabda ular barcha umumta'lim fanlari asoslari borasida ma'lum hajmda nazariy, amaliy bilimlar oladilar, kasbiy mehnat malakalarini egalaydilar. Maxsus yordamchi maktab va maktabgacha muassasalarida ta'lim jarayonida tuzatish ishlari tizimini amalga oshiradi. Bu ishlar bolalardagi rivojlanishning potensial imkoniyatlariga asoslanib, aqli zaif bola shaxsini atroflicha shakllantirish, bilish faoliyatlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Oligofren bolalar uchun *(soddalashtirilgan)* ta'lim 9 yil olib boriladi. O'quv rejasiga o'zbek tili, matematika, tabiatshunos-lik, geografiya, tarix, jismoniy tarbiya, qo'l mehnati, ashula hamda yuqori sinflarda kasbiy mehnat darslari o'quv rejasining asosiy qismini

egallaydi. Buning sababi bor, albatta. Maxsus yordamchi maktabni bitirayotgan o'quvchi bevosita ishlab chiqarishga, zavod, fabrikalarga, hayotga yo'llanma olayotganligi sababli yuqori sinflarda haftasiga bu mehnat turiga oltinchi, to'qqizinchi sinflarda 10-12 soat, ba'zan undan ham ortiq beriladi. Aqli zaif o'quvchilarga duradgorlik, chilangarlik, bichish-tikish ishlari, qishloq xo'ja-ligiga oid ishlar o'rgatib boriladi. Mehnat ta'limi aqli zaif bolalarda nazariy bilimlarning o'zlashtirilishiga, ularning jismoniy rivojlanishlariga, bevosita hayotlarini boshlab yuborishlariga katta yordam beradi deyish mumkin. Eng asosiysi boshqa tengdoshlari qatori bu kabi bolalarga ham mehr va g'amxorlik, kichik yutuqlarida ham rag'batlantirish, tartib va tozalikka o'rgatish *(yaxshi muomila bilan)* imkon darajasida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek "Eng katta boylik - bu aql -zakovat, ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik –bu bilimsizlikdir". Oligofren bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Albatta bu yutuqlar zamirida yurtboshimiz tomonlaridan yuqoridagi fikrlarida o'z aksini topgan, talim-tarbiya ishlariga yuksak e'tiborlari hamda yurtimizda nuqsoni bor bolalarga yaratilayotgan imkoniyat va g'mxorliklari mujassamdir.

Inklyuziv ta'lim- hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada, bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi "ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.
Jismoniy, aqliy, sensor *(sezgi)* yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar *(shaxslar)* uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.
Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi" deya aytib o'tilgan.

Xulosa:

Tug'ma aqliy zaiflik — bu bolaning hayotining ilk bosqichlaridan namoyon bo'ladigan, asosan markaziy asab tizimining rivojlanishidagi tug'ma nuqsonlar natijasida yuzaga keladigan murakkab holatdir. Bunday bolalar nafaqat intellektual rivojlanishda, balki ijtimoiy moslashuv, hissiy holatni boshqarish, nutq va harakat faoliyatlarida ham muammolarga duch keladilar. Mazkur maqolada tug'ma aqliy zaiflikning sabablari, belgilari, turlari hamda ularning jamiyatda tutgan o'rni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aqliy zaiflikning asosiy sabablari genetik buzilishlar, homiladorlik davridagi noqulay omillar, onaning kasalliklari yoki intoksikatsiyasi, tug'ruq vaqtidagi jarohatlar va boshqa biologik-psixologik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu holatlar bolaning miya faoliyatiga salbiy ta'sir etib, ularning normal rivojlanishini izdan chiqaradi. Jamiyatning bunday bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishi, ularni ajratmasdan, aksincha qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiylashuvini ta'minlashi – insonparvarlik va taraqqiyot belgisi sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

•O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023

•O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuni, 2020

•https://pedagogs.uz/ped/article/download/878/835/1657

•https://docx.uz/document/aqli-zaiflik-tushunchasining-evolyutsiyasi-dbcc49de?lang=uz

•https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/download/3737/5672/10526

•https://gujum.uz/salomatlik/bola-aqli-zaifligining-sababi-belgilari-va-davolash/

ОТ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ К ЭФФЕКТИВНОЙ ПРАКТИКЕ: БАРЬЕРЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Есназарова Зульфия Олжабаевна
Ассистент преподавателя, Кафедра дошкольного воспитания и дефектологии Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза
А. Адилбаева Студентка кафедры "Дефектология" Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

Инклюзия — это не просто педагогический выбор, а исполнение международных обязательств. Саламанкская декларация (1994)— Фундаментальный документ, провозгласивший, что обычные школы должны принимать всех детей, независимо от их состояния. По Конвенция ООН о правах инвалидов Статья 24 обязывает государства-участники обеспечивать инклюзивное образование на всех уровнях. Принцип «Разумного приспособления» — Правовое понятие, означающее внесение необходимых модификаций, которые не накладывают несоразмерного бремени на систему, но обеспечивают реализацию прав конкретного ученика. Инклюзивное образование в современном обществе рассматривается как важнейшее направление образовательной политики, направленное на обеспечение равного доступа к качественному обучению для всех детей, независимо от их индивидуальных особенностей и возможностей. Теоретические основы инклюзии базируются на принципах гуманизма, равенства, недискриминации и признания ценности каждого ребенка. Несмотря на наличие нормативно-правовой базы и научно-методических разработок, переход от теории к эффективной практике инклюзивного образования сопровождается рядом барьеров. К числу основных препятствий относятся недостаточная подготовка педагогических кадров, ограниченность материально-технических ресурсов, отсутствие адаптированных образовательных программ, а также сохраняющиеся стереотипы и недостаточный уровень информированности общества.

Особое значение имеет профессиональная готовность учителей к работе в инклюзивной среде. Недостаток специальных знаний и практических навыков снижает эффективность образовательного процесса и затрудняет реализацию

индивидуального подхода к обучающимся с особыми образовательными потребностями. В то же время развитие инклюзивного образования открывает широкие перспективы. Внедрение современных педагогических технологий, развитие междисциплинарного взаимодействия специалистов (психологов, логопедов, дефектологов), активное участие родителей, а также формирование толерантной образовательной среды способствуют повышению качества обучения и успешной социальной адаптации детей. Таким образом, эффективная реализация инклюзивного образования требует комплексного подхода, включающего совершенствование подготовки педагогов, развитие ресурсной базы, внедрение инновационных методов обучения и формирование позитивного общественного отношения к инклюзии

Инклюзивное образование рассматривается как важнейший принцип современной образовательной политики, направленный на обеспечение равного доступа к образованию для всех категорий обучающихся [3; 6]. Оно предполагает создание условий, при которых каждый обучающийся, независимо от своих физических или психических особенностей, может полноценно участвовать в образовательном процессе [2; 7]. Несмотря на активное развитие данной концепции, практическая реализация инклюзии сталкивается с рядом серьёзных трудностей. Это обусловлено как объективными факторами (ресурсные ограничения), так и субъективными (психологическая неготовность участников процесса) [5; 8]. Анализ научных источников показывает, что инклюзивное образование является междисциплинарной проблемой, охватывающей педагогику, психологию и социологию [1; 4].

Педагогические стратегии и Универсальный дизайн

Эффективная инклюзия строится на концепции **Универсального дизайна в обучении (UDL)**. Вместо того чтобы подстраивать урок под одного «особенного» ребенка, педагог проектирует урок так, чтобы он был доступен всем изначально.

Компонент UDL	**Описание**	**Пример реализации**
Множественные способы представления	Информация подается в разных форматах.	Видео с субтитрами + аудиолекция + печатный текст.
Множественные способы действия	Ученики могут демонстрировать знания по-разному.	Один пишет эссе, другой создает ментальную карту, третий защищает проект устно.
Множественные способы вовлечения	Использование разных стимулов для мотивации.	Групповая работа, геймификация, индивидуальные проекты.

Согласно международным исследованиям, инклюзия рассматривается как процесс, направленный на устранение барьеров в обучении и участие всех учащихся в образовательной деятельности [3; 6]. Ряд авторов подчёркивает, что ключевым фактором успешной реализации инклюзии является готовность образовательной системы к изменениям, включая подготовку педагогов и адаптацию образовательной среды [2; 11].

В работе использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа международного и национального опыта, а также метод обобщения педагогической практики [4; 10]. Это позволило выявить основные барьеры и определить направления развития инклюзивного образования. Недостаточная материально-техническая база остаётся одним из главных препятствий. Отсутствие адаптированной инфраструктуры, технических средств и доступной среды ограничивает возможности обучающихся [1; 62].

Проблема недостаточной разработанности адаптированных программ и методик обучения широко освещается в научной литературе [4; 11]. Педагоги испытывают дефицит методических рекомендаций и практических инструментов. Психологическая неготовность участников образовательного процесса является значимым фактором. Исследования показывают, что уровень принятия инклюзии напрямую влияет на её эффективность [5; 83].Инклюзивное образование тесно связано с уровнем развития социальной культуры. Недостаток толерантности и информированности общества препятствует успешной интеграции [3; 94]. Современные исследования подчёркивают необходимость формирования инклюзивной компетентности педагогов [2; 71]. Это включает владение адаптивными методиками и индивидуальным подходом.

Создание безбарьерной среды требует внедрения инновационных технологий и адаптации учебных материалов [1; 62]. Комплексный подход предполагает сотрудничество специалистов разных профилей, что повышает эффективность образовательного процесса [4; 10]. Формирование толерантности и социальной ответственности рассматривается как ключевой фактор устойчивого развития инклюзивного образования [5; 9]. Проведённый анализ показывает, что барьеры инклюзивного образования носят системный характер и требуют комплексного решения [2; 3; 8].В то же время наличие «точек роста» свидетельствует о позитивной динамике развития. Наиболее эффективными являются стратегии, направленные на интеграцию педагогических, социальных и технологических ресурсов [6; 12].

Инклюзивное образование представляет собой стратегическое направление развития современной образовательной системы. Его успешная реализация возможна только при условии системного подхода, включающего устранение барьеров и развитие ключевых направлений. Таким образом, переход от теории к практике требует не только организационных изменений, но и трансформации общественного сознания, что делает инклюзию важным фактором устойчивого развития общества [3; 9; 14].

Список литературы

1. Аксенова Л.И. Инклюзивное образование: теория и практика. — М., 2020.
2. Назарова Н.М. Специальная педагогика. — М., 2019.
3. 2UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. — Paris, 2021.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — М., 2018.
5. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion. — Bristol, 2017.
6. OECD. Education Policy Outlook. — Paris, 2020.
7. Florian L. Inclusive Pedagogy. — London, 2014.

8. Avramidis E., Norwich B. Teachers' attitudes towards inclusion // European Journal of Special Needs Education. — 2002.
9. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. — 2006.
10. Dyson A. Inclusive Education: A Critical Perspective. — 2018.
11. Tomlinson C.A. Differentiated Instruction. — 2017.
12. Rose D., Meyer A. Universal Design for Learning. — 2006.
13. Slee R. The Irregular School. — 2011.
14. Ainscow M. Developing Inclusive Education Systems. — 2020.

INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISHDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Yesnazarova Zulfiya Oljabayevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi o'qituvchisi assistenti
Axmatova Adiba
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi student

"Inklyuziv" so'zi inglizcha "inclusive" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "shu jumladan" yoki "birlashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi. (Yosh) Bugungi kunda ta'lim tizimini moderizatsiya qilish jarayonida inklyuziv ta'lim alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalar, jumladan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning umumta'lim muassasalarida teng sharoitda ta'lim olishlarini ta'minlovchi tizimdir. Inklyuziv ta'lim nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy integratsiyani ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi [1;8].

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi - barcha o'quvchilarga individual yondashuv asosida sifatli ta'lim berishdir. Bu jarayonda o'quvchilarning psixologik, jismoniy va intellektual xususiyatlari inobatga olinadi[2;47]. Ya'ni yosh, jinsi, etnik kelib chiqishi, jismoniy yoki intellektual qobiliyatlari, ijtimoiy mavqei va boshqalardan qat'i nazar, barcha odamlarning ishtirokni o'z ichiga olishga qaratilgan tushuncha yoki yondashuvni bildirish uchun ishlatildi.

O'qituvchilar tayyorgarligini tizimli oshirish

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati bevosita pedagogning mahoratiga bog'liq. Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar umumiy metodika bilan qurollangan bo'lsa-da, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda metodik va psixologik to'siqlarga duch kelishmoqda. Malaka oshirish kurslari: O'qituvchilar uchun faqat nazariy emas, balki amaliy treninglar tashkil etilishi lozim. Bunda defektologiya, surdopedagogika va oligofrenopedagogika asoslari o'rgatilishi zarur. Psixologik tayyorgarlik: Pedagog bolaning jismoniy yoki aqliy holatidan qat'i nazar, unga "alohida" shaxs sifatida emas, balki jamoaning teng huquqli a'zosi sifatida qarash ko'nikmasini shakllantirishi kerak. Innovatsion metodlar: Brayl alifbosi, imo-ishora tili yoki autizm spektridagi bolalar bilan muloqot qilishning zamonaviy texnologiyalarini egallash o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshiradi [3;37].

Muassasalarning moddiy-texnik bazasi "to‘siqsiz muhit" (barrier-free environment) tamoyiliga asoslanishi shart. Bu faqat bino qurilishi bilan cheklanmaydi.

- Arxitektura yechimlari: Panduslar, keng eshiklar, maxsus jihozlangan sanitariya xonalari va liftlar imkoniyati cheklangan bolaning maktabda mustaqil harakatlanishini ta’minlaydi.
- O‘quv resurslari: Ko‘zi ojizlar uchun audio-kitoblar, eshitishda nuqsoni borlar uchun vizual darsliklar va sensorli o‘quv qurollari yetishmovchiligini bartaraf etish lozim.
- Maxsus transport: Chekka hududlardagi bolalarning maktabga kelib-ketishi uchun moslashtirilgan transport xizmati (maktab avtobuslari) yo‘lga qo‘yilishi ta’limga jalb qilish darajasini oshiradi.

Har bir bolaning o‘zlashtirish tezligi va qobiliyati turlicha. Inklyuziv ta’limda "ommaviy standart" o‘zini oqlamaydi.

- Individual ta’lim dasturi (ITD): Har bir o‘quvchi uchun uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashuvchan o‘quv rejasi tuzilishi kerak [4;80].
- Tutorlik xizmati: Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun dars jarayonida ularga ko‘maklashuvchi yordamchi pedagog (tutor)larni jalb qilish yaxshi natija beradi.
- Baholash tizimi: Bolaning yutuqlarini boshqalarga nisbatan emas, balki uning o‘zining kechagi natijasiga nisbatan baholash tizimi joriy etilishi lozim.

Jamiyatda ijobiy munosabat va stereotiplarni sindirish

Eng katta to‘siq ko‘pincha binolarda emas, balki odamlarning ongida bo‘ladi. Jamiyatdagi noto‘g‘ri qarashlar bolaning izolyatsiyasiga sabab bo‘ladi [5;98]

- Ota-onalar bilan ishlash: Ko‘p hollarda ota-onalar farzandini kamsitilishidan qo‘rqib, uydan chiqarmaydi. Ularga davlat tomonidan beriladigan imkoniyatlar va inklyuziyaning afzalliklarini tushuntirish zarur.
- Tengdoshlar tarbiyasi: Sog‘lom bolalar o‘rtasida bag‘rikenglik (tolerantlik) darslarini o‘tish, ularga imkoniyati cheklangan do‘stlariga qanday yordam berishni o‘rgatish maktabdagi buling (kamsitish) holatlarining oldini oladi.
- Ommaviy targ‘ibot: Ijtimoiy roliklar va tadbirlar orqali "imkoniyati cheklangan" atamasidan ko‘ra "maxsus ehtiyojli" tushunchasini jamiyatga singdirish lozim.

Mutaxassislar bilan integratsiyalashgan hamkorlik

Inklyuziya — bu faqat o‘qituvchining ishi emas, balki jamoaviy yondashuvdir. Multidistsiplinar jamoa: Maktabda psixolog, logoped, shifokor va ijtimoiy xodim hamkorlikda ishlashi kerak. Ular muntazam ravishda bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatib borishi shart. Oilaviy konsultatsiyalar: Oila va maktab o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash uchun ota-onalarga farzandi bilan uyda qanday ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilishi lozim [3;85]. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun nafaqat qonuniy asoslar, balki jamiyatning har bir a'zosidan ma'naviy mas'uliyat talab etiladi. Har bir bola, jismoniy holatidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish va jamiyatning faol a'zosiga aylanish huquqiga ega.

Dunyo hamjamiyatiga (nazar) nazar tashlaydigan bo'lsak, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni ta'limga o'rgatish va sog'lom odamlardan farq qilmagan holda teng huquq va imkoniyatlar yaratish maqsadida ko'plab qonunlar joriy etmoqda [6;117]. Xususan 1975-yilda "Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar huquqlari to'g'risidagi"

Deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya ta'kidlanishicha: "Maxsus tarbiyaga muhtojlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqlari ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi [7;13].

Inklyuziv ta’limni joriy etish murakkab, ammo zarur pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. O‘qituvchilarning malakasini oshirish, ta’lim muhitini moslashtirish, jamiyatda ijobiy qarashlarni shakllantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Inklyuziv ta'lim. Darslik / Madatov I.Y.; O‘zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, 2024. – 240 b.
2. Shomahmudova R.Sh. Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O‘zbekistondagi tajribalar). Toshkent-2011.
3. Fayziyeva U., Nazarova D., Kolbayeva X. J. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O‘XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef. XBJ.T., 2005
4. X.N. Muzaffarova, D.Tangirova "Inklyuzv ta'lim" fani bo‘yicha o‘quv metodik qo‘llanma . Jizzax davlat pedagogika instituti. 2011 y.
5. "Inklyuziv ta'lim" fanidan o‘quv-uslubiy majmua. A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti. Toshkent -2014.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi Qarori. PQ-4860.

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Yesnazarova Zulfiya Oljabayevna - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi o‘qituvchisi assistenti

Otaboyeva Rayhona - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi talabasi

Autizm spektri buzilishi (ASB) – bu bolaning ijtimoiy muloqot, o'zaro munosabat va xulq-atvor sohalarida namoyon bo'ladigan murakkab rivojlanish buzilishidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab har 100 nafar boladan biri autizm spektri buzilishi bilan tashxis qo'yilgan. O'zbekistonda ham ushbu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib bormoqda [3;39]].

Inklyuziv ta'lim – har bir o'quvchining, jumladan, autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablarida boshqa tengdoshlari bilan birga o'qishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishidir. Bu yo'nalish insonning tengligi va qadr-qimmati tamoyillariga asoslanadi [2;37].

Autizm spektri buzilishi – bu miya rivojlanishining buzilishi natijasida kelib chiqadigan, odatda hayotning dastlabki uch yilida namoyon bo'ladigan holat. ASB bo'lgan bolalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin:

- Ijtimoiy o'zaro munosabatda qiyinchilik (ko'z temasini qo'llamaslik, his-tuyg'ularni tushunmaslik);
- Nutq va muloqotda kechikish yoki buzilish;
- Takroriy harakatlar va qat'iy tartibga moyillik;
- Sensor sezgirlikning oshishi yoki kamayishi (ovoz, yorug'lik, teginishga munosabat).

Shuni ta'kidlash muhimki, ASB "spektr" hisoblanadi – ya'ni har bir bola o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, alomatlar jiddiylik darajasi bo'yicha keng farqlanadi [1;25]. Shu sababli inklyuziv ta'limni tashkil etishda individual yondashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ASB bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi lozim:

1) Individual ta'lim rejasi (ITR): Har bir ASB bo'lgan o'quvchi uchun uning kuchli tomonlari, ehtiyojlari va maqsadlariga mos individual ta'lim dasturi tuzilishi kerak.
2) Moslashuvchan o'qitish muhiti: Sinf xonasida vizual jadvallar, tinch burchaklar va sensor imkoniyatlarini yaratish orqali qulay muhit ta'minlanadi.
3) Hamkorlikdagi ta'lim: Pedagog, defektolog, logoped, psixolog va ota-onalarning birgalikdagi samarali hamkorligi inklyuziv ta'limning asosi hisoblanadi.
4) Tengdoshlar bilan ijtimoiy integratsiya: Sinfdoshlarga ASB haqida tushuncha berish, do'stona muhitni shakllantirish va guruh ishlari orqali ijtimoiylashuv ta'minlanadi.

ABA terapiyasi va vizual yordam: Amaliyotda isbotlangan Amaliy Xulq-Atvor Tahlili (ABA) usullari va PECS (rasmli muloqot tizimi) [4;97] kabi metodlar qo'llanilishi samaradorlikni oshiradi. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagog malakasiga bog'liq. O'qituvchilar quyidagi sohalarda bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi zarur:

- ASB xususiyatlari va ularni sinf sharoitida aniqlash;
- Differentsial ta'lim metodlari va moslashuvchan baholash usullari [5;17];
- Xulq-atvor muammolarini ijobiy yondashuvlar bilan boshqarish;
- Ota-onalar bilan samarali muloqot va hamkorlik o'rnatish.

O'zbekistonda pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslari va treninglar tizimini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1) Pedagogik universitetlarda inklyuziv ta'lim yo'nalishini kengaytirish va defektologiya mutaxassisliklariga qabulni ko'paytirish;
2) Har bir maktabda resurs xonalarini tashkil etish va zarur jihozlar bilan ta'minlash;
3) OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali autizm haqida jamoatchilik tushunchasini oshirish kampaniyalari o'tkazish;

4) Ota-onalar uchun mahalliy darajada konsultatsiya va qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etish;

5) Xalqaro tajribani o'rganish va muvaffaqiyatli inklyuziv ta'lim modellarini mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish;

6) Inklyuziv ta'limni moliyalashtirishni davlat byudjeti va xalqaro tashkilotlar mablag'lari hisobiga oshirish.

Xorijiy tajriba

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi inklyuziv ta'limning samarali modellarini namoyish etadi. Masalan, Finlyandiyada har bir maktabda maxsus ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlaydigan "ko'maklashuvchi o'qituvchi" lavozimi mavjud. AQShda IDEA (Nogironlar ta'limi to'g'risidagi qonun) [3;87] ASB bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablarida o'qishi uchun kuchli huquqiy kafolatlar yaratadi. Janubiy Koreyada esa davlat maktablarida resurs xonalari tizimi keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu tajribalarni o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish milliy inklyuziv ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish – bu nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va insoniy mas'uliyat masalasidir. Har bir bola, qanday xususiyatlarga ega bo'lishidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish, tengdoshlari bilan muloqot qilish va jamiyatda o'z o'rnini topish huquqiga ega. Xalqaro muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirib joriy etish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'limni to'liq amalga oshirish vaqt, resurslar va jamiyatning umumiy irodasini talab qiladi. Biroq bu yo'lda qilingan har bir qadam nafaqat alohida bola, balki butun jamiyat uchun muhim sarmoya bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi PQ-110-son qarori "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".

3. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). – Washington, DC: APA, 2013.

4. UNESCO. Policy Guidelines on Inclusion in Education. – Paris: UNESCO, 2009.

5. Lovaas, O. I. Teaching Individuals with Developmental Delays: Basic Intervention Techniques. – Austin: PRO-ED, 2003

INKLYUZIV TA’LIMDA KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNI O‘QITISH USULLARI

Ibraymova Shaxnoza - NDPI Maktabgacha tarbiya va defektologiya kafedrasi stajor-o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitish qobiliyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablari muhitiga moslashtirish, ularga dars berishning samarali usullari va o‘qituvchi e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: inklyuziv, vizual, kompensator, skaffold, ta’limning universal dizayni

Inklyuziv ta’lim — barcha bolalarning, ularning jismoniy yoki intellektual holatidan qat’i nazar, teng huquqli ta’lim olishini ko‘zda tutadi. L.Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, har bir bola o‘z imkoniyati darajasida, lekin biroz qiyinchilik bilan bajara oladigan vazifa ustida ishlashi kerak. Inklyuziv o‘qituvchi skaffolding (ko‘prik qo‘yish) usuli orqali bolaning bugungi imkoniyati va ertangi salohiyati o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun asosiy to‘siq bu — axborot almashinuvi kommunikatsiya cheklanganligidir. O’quvchilarni inklyuziv ta’limda o’qitishda Ta’limning Universal Dizaynidan foydalanish kerak bo’ladi. Ta’limning Universal Dizayni tamoyillari inklyuziv ta’limda samarali natija berishda muhim ahamiyatga ega. Ta’limning Universal Dizayni tamoyillari bu: bolaga material turli usullada berilishi, boladan topshiriqlar turli usullarda so’ralishi, bolalarga turli usullardan foydalanib yetkazib berilishi hisoblanadi. Shu sababli, o‘qitish metodikasining markazida vizualizatsiya va individual yondashuv turishi lozim. Darslarni tashkil etishda eshitishida nuqsoni bor o‘quvchi dars jarayonida o‘zini chetlatilgan his qilmasligi uchun quyidagi texnik holatlarga amal qilish zarur. Sinfda ortiqcha shovqinni kamaytirish (derazalarni yopish, yumshoq pol qoplamalari). Zaif eshituvchi bolalar uchun har qanday fon shovqini o‘qituvchi ovozini tushunishga halaqit beradi. Joylashuv: O‘quvchi o‘qituvchining yuzini va lab harakatlarini aniq ko‘rishi uchun birinchi yoki ikkinchi partaga, yorug‘lik tushib turgan tomonga o‘tirilishi kerak. Vizualizatsiya: "Eshitish orqali qabul qilinmagan ma’lumot ko‘rish orqali o‘rnini to'ldirishi kerak" tamoyili asosida darsni tashkil etish. Sababi eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarda kompensatsiya mexanizmi sfatida ko’ruv analizatori katta ahamiyatga ega.[1] Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni o‘qitishning samarali usullari bu, labdan o‘qish (Artikulyatsiya) o‘qituvchi gapirayotganda doimo o‘quvchiga yuzlanib turishi kerak. Shovqinli muhitda yoki doskaga qarab gapirish bu o‘quvchilar uchun axborotning yo‘qolishiga olib keladi. Nutq aniq, o‘rtacha tezlikda va ortiqcha imo-ishoralarsiz bo‘lishi tavsiya etiladi. Ko‘rgazmali qurollardan foydalanishda har bir yangi tushuncha vizual tarzda mustahkamlanishi shart: prezentatsiyalar va infografikalar, video materiallar (albatta subtitrlar bilan), tayanch sxemalar va tarqatma materiallar. Ko‘rgazmali (vizual) ta’lim vositalaridan foydalanish Dual Coding Theory (ikki kanalli kodlash nazariyasi) bilan izohlanadi. Bu nazariyaga ko‘ra, axborot vizual va verbal kanallar orqali bir vaqtda berilganda, o‘quvchilar uni yaxshiroq qabul qiladi va uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi. Shuningdek, Cognitive Load Theory (kognitiv yuklama nazariyasi)ga ko‘ra, Murakkab ma’lumotni vizual strukturalash (sxema, infografika) orqali berish o‘quvchining ishchi xotirasiga tushadigan yukni kamaytiradi. Ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun asosiy kompensator kanal – ko‘rish analizatori bo‘lib xizmat qiladi. "Sheriklik" Tizimi (Peer Tutoring). Eshitadigan o‘quvchilar orasidan "yordamchi-do‘st" tayinlash. U daftardagi qaydlarni ko‘rsatishi, o‘qituvchi topshirig‘ini tushunishga ko‘maklashishi mumkin. Bu nafaqat o‘qishga, balki ijtimoiy integratsiyaga ham xizmat qiladi. Ko‘rgazmali vositalar va “Sheriklik” tizimini integratsiyalash: Multimodal ta’limni ta’minlaydi, individual farqlarni hisobga oladi. Inklyuziv ta’limda eng samarali strategiyalardan biri hisoblanadi.[3] Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarni samarali o’qitishda texnik

vositalarning rolini oshirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Zamonaviy inklyuziv ta’limda quyidagi texnikalardan foydalanish natija beradi. FM-tizimlar: O‘qituvchi kiyimiga taqilgan mikrofon ovozni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolaning eshitish apparatiga uzatadi. Individual eshitish apparatlari: Ularning sozligini va batareyasi borligini vaqti-vaqti bilan nazorat qilish (ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda). Kar va zaif eshituvchi bolalar ko‘pincha muloqotdan qo‘rqishadi. U bolalarda nuqson sababli izolyatsiya holatlari, emotsiylarni ifodalash cheklangan bo’ladi. Shu sababli ularda tengdoshlar bilan muloqat qiyinlashadi, guruh ‘yinlarida passivlik holati kuzatilishi mumkin. Ularni har bir kichik muvaffaqiyati uchun rag‘batlantirish, sinf oldida savol-javob qilganda sabrli bo‘lish o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu bolalarga psixologik qo’llab-quvvatlash, kattalarning tushunishi va sabr-toqat muhim hisoblanadi.

Demak, inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatning kaliti — o‘qituvchining moslashuvchanligidadir. Kar bolani shunchaki sinfga o‘tqizib qo‘yish inklyuziya emas. Haqiqiy inklyuziya — uning ehtiyojlarini tushunish va ta’lim muhitini unga moslashtirishdir. Ya’ni inklyuziv ta’limda Ta’limning Universal Dizaynidan foydalanilsa natija yaxshi bo’ladi. Ta’limning Universal dizaynida bolalarga darslar har xil yo’llar bilan tushuntiriladi va bolalardan so’raladi. Inklyuziv ta’limda har bir bolaning imkoniyatini hisobka olsak maqsadga muvofiq bo’ladi. inklyuziv ta’limda muvaffaqiyat — bu o‘quvchini standart qolipga solish emas, balki standart qoliplarni har xil o‘quvchilar sig‘adigan darajada kengaytirishdir. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat pedagog, balki ta’lim arxitektori va psixologi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxsus psixologiya Muminova L.R., Sh.M.Amirsaidova, N.Z.Abidova " Toshkent, 2013

2. Nurmuhamedova M.Sh. "Surdopedagogika". – Toshkent, 2017.

3. Fayziyeva U.Yu. "Inklyuziv ta’lim texnologiyalari". Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2020.

4. Shomaxmudova R.Sh. "Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot". – Toshkent, 2011.

ARNAWLI HÁM INKLYUZIV TÁLIMDE JÁRDEMSHI ASSISTIV TEXNOLOGIYALARDIŃ ORNI HÁM ÁHMIYETI

Shakirova Salima Yusipbay qızı
NMPI “Mektepke shekemgi tárbiya hám defektologiya” kafedrası assistent-oqıtıwshısı

Annotaciya: Bul tezisde arnawlı hám inklyuziv bilimlendiriw sistemasında járdemshi assistiv texnologiyalardıń ornı hám áhmiyeti kórsetilgen. Hár qıylı dárejedegi yrıqsha járdemge mútáj bolǵan balalar ushın qollanılatuǵın texnologiyalar tallanıp, olardıń oqıw procesindegi nátiyjeliligi tiykarlap berilgen. Sonday-aq, assistiv texnologiyalardı engiziwdegi mashqalalar hám keleshektegi baǵdarlar kórip shıǵılǵan.

Gilit sózler: assistiv texnologiyalar, inklyuziv bilimlendiriw, arnawlı bilimlendiriw, pedagogikalıq innovaciya, kommunikaciya quralları, bilimlendiriw sapası.

Sońǵı jıllarda bilimlendiriw sistemasında júz berip atırǵan túpkilikli ózgerisler insan huqıqları, teńlik hám sociallıq ádillik principlerine tiykarlanǵan inklyuziv bilimlendiriw modelin rawajlandırıwdı talap etpekte. Inklyuziv bilimlendiriw - bul tek ǵana imkaniyatı sheklengen balalardı ulıwma bilimlendiriw mákemelerine tartıw emes, al olardıń individual talapların esapqa alǵan halda sapalı bilim alıwı ushın zárúr sharayatlardı jaratıw procesi bolıp tabıladı. Búgingi globallasıw sharayatında sanlı texnologiyalar barlıq tarawlarǵa tereń kirip barmaqta. Bilimlendiriw sisteması da bunnan shette qalmaydı. Ásirese, ayrıqsha mútájligi bar balalar ushın zamanagóy kózqaraslardan biri sıpatında járdemshi assistiv texnologiyalardı qollanıw ayrıqsha áhmiyetke iye bolmaqta. Bul texnologiyalar oqıwshılardıń fizikalıq, sensor, sóylew hám kognitiv sheklewlerin kompensaciyalaw arqalı olardıń bilimlendiriw procesinde belsene qatnasıwın támiyinleydi. Ilimiy izertlewler sonnan, David L. Edyburn hám James M. Kauffman jumısları sonı kórsetedi, assistiv texnologiyalardı nátiyjeli qollanıw oqıwshılardıń akademiyalıq nátiyjeleri, óz betinshe islew kónlikpeleri hám sociallıq belsendiligin sezilerli dárejede arttıradı. Sonıń menen birge, olar oqıtıwshılar ushın da differenciallıq qatnastı ámelge asırıwda qolaylı pedagogikalıq qural bolıp xızmet etedi. Ózbekstan Respublikası bilimlendiriw sistemasında da inklyuziv bilimlendiriwdi rawajlandırıw mámleketlik siyasattıń tiykarǵı baǵdarlarınan biri sıpatında belgilengen. Atap aytqanda, Shavkat Mirziyoev tárepinen alǵa qoyılǵan strategiyalıq baslamalarda barlıq balalar ushın teń bilimlendiriw imkaniyatların jaratıw áhmiyetli wazıypa sıpatında atap ótilgen.

Bul maqalanıń maqseti - arnawlı hám inklyuziv tálimde járdemshi assistiv texnologiyalardıń ornı hám áhmiyetin ilimiy jaqtan tiykarlaw, olardıń túrleri, pedagogikalıq imkaniyatları hám qollanıw nátiyjeliligin analizlewden ibarat.

Assistiv texnologiyalar túsinigi zamanagóy pedagogika hám arnawlı bilim beriwde áhmiyetli kategoriyalardan biri esaplanadı. Olar mayıplıǵı yamasa rawajlanıwında hár qıylı sheklewleri bolǵan shaxslardıń funkcionallıq imkaniyatların keńeytiwge xızmet etedi. Bul texnologiyalar tek ǵana kompensaciyalıq qural sıpatında emes, al rawajlandırıwshı hám qollap-quwatlawshı pedagogikalıq resurs sıpatında da qaraladı.

Assistiv texnologiyalardı tómendegi tiykarǵı ólshemler tiykarında klassifikaciyalaw múmkin:



Sensorlıq kemshiliklerge sáykes texnologiyalar. Esitiwde kemshiligi bar oqıwshılar ushın mólsherlengen texnologiyalar informaciyanı vizual formada jetkeriwge tiykarlanadı. Máselen, subtitrli videolar, interaktiv doskalar, vizual signal sistemaları oqiw materialın qabıl etiwdi ańsatlastıradı. Kóriwinde nuqsanı bar oqıwshılar ushın bolsa Brayl sistemalı, ekran oqıw baǵdarlamaları hám audiomateriallar úlken áhmiyetke iye.



Sóylew hám kommunikaciya rawajlanıwına xızmet etiwshi texnologiyalar. Sóylewinde kemshiligi bar balalar menen islesiwde alternativ hám qollap-quwatlawshı kommunikaciya (AAC) quralları keń qollanıladı. Bul qurallar járdeminde bala óz pikirin bildiriw imkaniyatına iye boladı. Ásirese, sóylew tili tolıq rawajlanbaǵan balalar ushın vizual belgiler, piktogrammalar hám mobil qosımshalar nátiyjeli qural esaplanadı.

Háreket iskerligin qollap-quwatlawshı texnologiyalar. Háreketinde shekleniwleri bolǵan oqıwshılar ushın arnawlı beyimlestirilgen qurılmalar - adaptiv klaviatura, sensorlı basqarıw sistemaları,arnawlı qayshılar, dawıs arqalı basqarıw texnologiyaları qollanıladı. Bul qurallar oqıwshınıń óz betinshe islew imkaniyatın arttıradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. M. Yu. Ayupova Logopediya Toshkent 2019
2. Unicef Xalqaro tashkiloti

INKLYUZIV TA’LIM: NAZARIYADAN AMALIYOTGA — TO‘SIQLAR VA RIVOJLANISH NUQTALARI

Reymova Feruza Jalg’asbaevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Maktabgacha tarbiya va defektologiya kefedrasi o’qtuvchisi
Kuatbaeva Miyrimgul Talg’at qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika insitituti
Maktabgacha ta’rbiya va defektalogiya kafedrasi talabasi

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy tamoyili — tenglik va xilma-xillikni tan olishdir. Inklyuziv ta’lim nafaqat alohida ehtiyojli bolalarni umumta’lim maktablariga integratsiya qilish, balki butun jamiyatning ijtimoiy ongini o‘zgartirish jarayonidir. O‘zbekistonda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori muhim poydevor bo‘ldi. Bu qarorda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-ta’rbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog’risida”gi qarori mamlakatda inklyuziv ta’limni joriy etishning huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu tezisda biz nazariy yondashuvlarning amaliyotga ko‘chishidagi asosiy muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilamiz.

NAZARIY ASOSLAR: TIBBIY MODELdan IJTIMOIY MODELga

Uzoq vaqt davomida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan "tibbiy model" (bolani nuqsonli deb ko‘rish va uni davolash) qo‘llanilgan. Nazariya bolanning nuqsoniga e’tibor qaratgan.

Bugungi kunda zamonaviy inklyuziya esa "ijtimoiy model"ga tayanadi:

Asosiy g‘oya: Muammo bolada emas, balki uni o‘rab turgan muhitda. Agar maktabda pandus bo‘lmasa, muammo bolaning yurishida emas, balki binoning noto‘g‘ri qurilganidadir.Nogironlikni “jamiyat tominidan yaratilgan tosiqlar”deb belgilaydi.

Nazariy maqsad: Bolani jamiyatga moslashtirish emas, jamiyatni bolaning ehtiyojlariga moslashtirish.

Buyuk psixolog L.S Vigotskiy inklyuziv ta’limning pedagogik paydevorini yaratgan: Ijtimoiy kompensatsiya:Vigotskiy aytganidek,boladagi jismoniy nuqson ijtimoiy muhit orqali to’ldirilishi mumkin.Agar ko’zi ojiz bolaga audio-kitob berilsa,unung o’qish funksiyasi kompensatsiya qilinadi.Nuqsonli bololarni alohida oqitish ularning ijtimoiy rivojlanishin zonasi”ni kengaytiradi.

Amaliyotdagi asosiy to‘siqlar (to‘siqlar tahlili)

Nazariy jihatdan inklyuziv ideal ko‘rinsa-da, amaliyotda quyidagi tizimli to‘siqlar mavjud:

Arxitektura va texnik to‘siqlar: Ko‘pgina maktablarda "to‘siqsiz muhit" faqatgina pandus bilan cheklanib qolgan. Haqiqiy inklyuziya uchun eshiklar kengligi, sensorli belgilar, maxsus sanitariya-gigiyena xonalari va liftlar zarur. 150 mingdan ortiq alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olishi uchun infratuzilma hali ham yetarli emas.

Maktablarda panduslar qiyaligi juda tik (normal bo‘yicha 5-8 daraja bo‘lishi kerak), tutqichlari yo‘q yoki silliq kafel bilan qoplangan. Bu nogironligi bor bola uchun xavfli hisoblanadi.

Binoning ichki qismi: Sinf xonalari, oshxona va ayniqsa sanitar-gigiyena xonalari (tualetlar) nogironlar aravachasi kirishi uchun moslashtirilmagan.

Maxsus uskunalar tanqisligi: Ko‘zi ojizlar uchun Brayl yozuvidagi darsliklar, eshitishda nuqsoni borlar uchun ovoz kuchaytiruvchi FM-tizimlar va sensorli xonalarning yetishmasligi ta’lim sifatini tushirib yuboradi.

Pedagogik va kadrlar tayyorgarligi: Umumta’lim maktabi o‘qituvchilarida maxsus metodika bilan ishlash ko‘nikmasi yetishmaydi. Eng katta muammo — "Tutor" (ko‘makchi pedagog) shtatining mavjud emasligi yoki yetishmasligi. O‘qituvchi 35-40 nafar o‘quvchisi bor sinfda alohida ehtiyojli bolaga yetarlicha vaqt ajratolmaydi.

Psixologik va ijtimoiy to‘siqlar (Stigmalar): Jamiyatdagi stereotiplar hali ham kuchli. Ba’zi ota-onalar inklyuziv sinflarda ta’lim sifati pasayadi deb hisoblaydi.

Ota-onalarning e’tirozi: Ko‘pincha "sog‘lom" bolalarning ota-onalari: "Nogiron bola mening bolamning o‘qishiga xalaqit beradi yoki uning psixologiyasiga yomon ta’sir qiladi", degan noto‘g‘ri tushunchada bo‘lishadi.

Bolalar o‘rtasidagi "bullyiing" (mazax qilish): Maktab muhitida bolalar orasida inklyuziv madaniyat shakllanmagan bo‘lsa, alohida ehtiyojli bola tengdoshlari tomonidan chetlatilishi yoki kamsitilishi mumkin. Bu esa bolaning ruhiyatiga qattiq zarba beradi. Davlat ta’lim standartlari hamma uchun bir xil. Masalan, autizm bilan

og‘rigan bola matematika misolini yecholmasligi mumkin, lekin u ajoyib rasm chizadi. Amaliyotda esa tizim undan baribir matematika bo‘yicha nazorat ishini talab qiladi.

Oila to‘sig‘i: Ba’zi ota-onalar farzandining kamchiligidan uyalib, uni uyda qamab saqlashni yoki faqat ixtisoslashtirilgan internatlarga berishni ma’qul ko‘rishadi.

Bu esa "ijtimoiy izolyatsiya"ning saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Moslashtirilgan dasturlarning yo‘qligi: Barcha bolalar bir xil standart asosida baholanadi. Bu esa o‘zlashtirishi sekin bo‘lgan bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. O‘zbekistonda 2024/2025 o‘quv yiliga kelib inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni 950 tadan oshdi.

Yutuqlar: UNICEF ko‘magida Toshkent shahridagi maktablar "Universal dizayn" asosida rekonstruksiya qilinmoqda. Bu binoni nafaqat harakatlanish nuqsoni borlar uchun, balki ko‘zi ojizlar (taktil yo‘lakchalar) uchun ham moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Bola yopiq muhitda(internatda)emas,sog’lom tengdoshlari orasida o’ssa,mulaqat qilishni ,dostlashishni va jamiyatga moslashishni tezroq o’rganadi. Taqqiqotlar shuni ko’rsatadiki,inklyuziv muhitdagi bolalar ixtisoslashtirilgan maktablardagiga qaraganda darslarni yaaxshiqroq o’zlashtirishga harakat qiladi.Bola yoshligidanoq o’zini jamiyatning tolaqonli a’zosi deb his qiladi,bu unung kelajakda mustaqil kasb egallashi va o’zini boqishi uchun zamin yaratadi.

Muammolar: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi hali ham eng og‘riqli nuqta bo‘lib qolmoqda. Ko‘plab maktablarda alohida ehtiyojli bolalar shunchaki sinfda o‘tiradi ("integratsiya"), lekin ular uchun Individual Ta’lim Dasturlari (ITD) amalda to‘liq ishlamaydi.

RIVOJLANISH NUQTALARI (STRATEGIK YECHIMLAR)

Mavjud to‘siqlarni yengish va tizimni ko‘zlangan 70% lik qamrovga olib chiqish uchun quyidagi "o‘sish nuqtalari"ga e’tibor qaratish lozim:

1. Individual Ta’lim Dasturlari (ITD)ni joriy etish:

Har bir bola uchun uning kognitiv imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda individual reja tuzilishi shart. Bunda baholash bolaning boshqa bolalar bilan emas, balki o‘zining kechagi natijasi bilan solishtirilishi orqali amalga oshiriladi.

2. Assistiv va raqamli texnologiyalar:

Inklyuziya texnologiyasiz samarali bo‘lmaydi. Ko‘zi ojizlar uchun Jaws yoki NVDA dasturlari, eshitishda nuqsoni borlar uchun FM-tizimlar va nutqni matnga aylantiruvchi sun’iy intellekt ilovalarini maktablarga integratsiya qilish zarur.

3. Multidistsiplinar yondashuv (Resurs markazlari):

Maktablarda nafaqat o‘qituvchi, balki psixolog, logoped, defektolog va shifokordan iborat doimiy "qo‘llab-quvvatlash guruhi" faoliyat yuritishi kerak.

4. Jamiyatda "Inklyuziv madaniyat"ni shakllantirish:

Maktablarda bag‘rikenglik (tolerantlik) darslarini joriy etish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv muhitda tahsil olgan sog‘lom bolalarda emotsional intellekt (IQ) va rahm-shafqat hissi boshqalarga qaraganda ancha yuqori bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta’lim — bu shunchaki ta’lim tizimidagi islohot emas, balki jamiyatning insonparvarlik darajasini belgilovchi ijtimoiy ko‘zgudir. Nazariy tahlillar va amaliy jarayonlarni o‘rganish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Tizimli o‘zgarish zarurati: Inklyuziya faqatgina imkoniyati cheklangan bolani oddiy maktabga olib kelish bilan cheklanmaydi. U o‘quv dasturlarini, baholash tizimini va maktab infratuzilmasini har bir bolaning individual ehtiyojiga moslashtirishni talab qiladi.

To‘siqlarni bartaraf etish: Amaliyotdagi asosiy to‘siqlar — arxitektura (panduslar, moslashtirilgan xonalar), kadrlar yetishmovchiligi (tutorlar masalasi) va ijtimoiy stereotiplardir. Ushbu to‘siqlarni yengish uchun faqat davlat emas, balki keng jamoatchilik va ota-onalar hamkorligi zarur.

Texnologik integratsiya: JAWS, NVDA va FM-tizimlar kabi assistiv texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish alohida ehtiyojli bolalarning o‘zlashtirish darajasini sog‘lom tengdoshlari bilan tenglashtirishning eng samarali yo‘lidir.

Ijtimoiy foyda: Inklyuziv muhit nafaqat alohida ehtiyojli bolalarga, balki sog‘lom o‘quvchilarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi — ularda yuqori emotsional intellekt va bag‘rikenglikni shakllantiradi.” Tutor" (ko‘makchi pedagog) shtatini joriy etish: Har bir inklyuziv sinfga asosiy o‘qituvchidan tashqari, alohida ehtiyojli bola bilan shug‘ullanadigan tutor biriktirish tizimini qonuniy mustahkamlash.

Pedagogika universiteti talabalari uchun "Inklyuziv ta’lim metodikasi" fanini majburiy va amaliyotga yo‘naltirilgan holda o‘qitish.

Yakuniy fikr: Inklyuziv ta’limni rivojlantirish — bu kelajakda davlat va jamiyat uchun mustaqil, o‘zini o‘zi ta’minlay oladigan va ijtimoiy faol fuqarolarni tarbiyalashga qilingan eng to‘g‘ri investitsiyadir.O’zbekiston Respublikasinning Konstitusiyasi 41-modda .”Har kim bilim olish huquqiga ega” yani jamiyatta hamma teng har bir inson bilim olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Madatov Ilhom Yusup Og’li.”Inklyuziv Ta’lim” 2024- 240b

F.U.Qodirova , D.A.Pulatova ”Inklyuziv ta’lim:nazariya va metodika”-Chirchiq” 2022-259b.

INKLYUZIV TA’LIMDA KORREKSION MARKAZ VA MAKTAB INTEGRATSIYASI: MULTIDISCIPLINAR YONDASHUVNING SAMARADORLIGI (SPECTRUM MODELI ASOSIDA)

Dilruxsor Xalmuratova Spectrum korreksion markazi rahbari
O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Telefon: +998933662822
Konferensiya bo‘limi: Inklyuziv ta’lim

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimidagi asosiy muammolar va ularni hal etishda multidistsiplinar yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, korreksion markaz va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi integratsiyaning yetishmasligi inklyuziya samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani asoslangan. Spectrum korreksion markazi misolida ABA terapiya, sensor integratsiya, neyropsixologiya va logopedik ishlarni birlashtirgan holda bolalarni maktab muhitiga tayyorlash va qo‘llab-

quvvatlash modeli yoritilgan. Olingan natijalar tizimli yondashuv inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar Inklyuziv ta’lim, multidistsiplinar yondashuv, ABA terapiya, sensor integratsiya, neyropsixologiya, logopediya, RAS, ZPRR, korreksion markaz, individual ta’lim dasturi

Kirish

So‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Biroq amaliyotda mazkur tizimning samaradorligi ko‘p hollarda kutilgan darajada emas. Ayniqsa, RAS (autizm spektri buzilishi) va ZPRR (psixik rivojlanishda kechikish) tashxisiga ega bolalarda maktab muhitiga moslashish murakkab kechmoqda.

Buning asosiy sabablaridan biri — ta’lim tizimi va korreksion xizmatlar o‘rtasidagi uzilishdir. Ilmiy tadqiqotlarda ham bolalar rivojlanishida kompleks yondashuv va mutaxassislar hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi [2,10].

Asosiy qism

Inklyuziv ta’lim tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning samaradorligiga to‘sqinlik qilayotgan omillar tizimli xarakterga ega. Amaliyotda ko‘p hollarda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muhitiga joriy etish faqat formal tarzda amalga oshiriladi. Bu esa bolaning real adaptatsiyasi va rivojlanishini ta’minlamaydi. Xususan, RAS va ZPRR tashxisiga ega bolalarda bu muammo yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ko‘plab o‘qituvchilarda bunday bolalar bilan ishlash uchun zarur amaliy ko‘nikmalar shakllanmagan. Shu bilan birga, individual ta’lim dasturlarining amaliyotda keng joriy etilmagani bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini cheklaydi. Eng muhim muammolardan biri — korreksion markazlar va maktablar o‘rtasida tizimli hamkorlikning yo‘qligidir. Natijada bola bir muhitda shakllangan ko‘nikmalarni ikkinchi muhitga ko‘chira olmaydi. Ota-onalarning inklyuziv ta’limga nisbatan ishonchsizligi ham jarayon samaradorligini pasaytiradi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etishda multidistsiplinar yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv turli mutaxassislarning yagona maqsad asosida hamkorligini nazarda tutadi. Xususan, ABA usuli orqali bolaning xulq-atvori shakllantiriladi, logopedik ish orqali nutqiy rivojlanish ta’minlanadi, sensor integratsiya mashg‘ulotlari orqali sensor regulyatsiya yaxshilanadi, neyropsixologik mashqlar esa kognitiv funksiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muhim jihat shundaki, mazkur yo‘nalishlar alohida emas, balki yagona reja asosida amalga oshiriladi.

Amaliy jihatdan mazkur yondashuvni tatbiq etish maqsadida Spectrum korreksion markazi doirasida integratsiyalashgan model ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, avvalo bolaning kognitiv, nutqiy va sensor holati kompleks diagnostika orqali baholanadi. Keyin barcha mutaxassislar ishtirokida individual korreksion dastur tuziladi va unda aniq, o‘lchovli maqsadlar belgilanadi.

Keyingi bosqichda bola bilan kompleks korreksion ishlar olib boriladi. Bu jarayonda ABA mashg‘ulotlari, logopedik korreksiya, sensor integratsiya va neyropsixologik mashqlar o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan

birga, bolani maktab muhitiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, ko‘rsatmaga amal qilish, diqqatni saqlash, guruhda ishlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish asosiy vazifalar sifatida belgilanadi.

Integratsiya jarayonining muhim bosqichi — maktab bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Bu jarayonda o‘qituvchilarga bolaning individual xususiyatlari bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi, bolaning rivojlanish dinamikasi muntazam monitoring qilinadi va zarur hollarda korreksion dasturga o‘zgartirishlar kiritiladi. Bunday yondashuv bolaning turli muhitlarda bir xil ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliyot natijalari shuni ko‘rsatadiki, multidistsiplinar va integratsiyalashgan yondashuv qo‘llanilganda bolalarda ijobiy dinamika kuzatiladi. Masalan, 3 oylik korreksion dasturdan keyin ko‘z aloqasi, taqlid qilish qobiliyati, ko‘rsatmalarni bajarish darajasi va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Problem xulq-atvorlarning kamayishi ham qayd etiladi. Bu esa bolalarning maktab muhitiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Shu tariqa, inklyuziv ta’limda asosiy e’tibor alohida metodlarga emas, balki ularni birlashtiruvchi tizimga qaratilishi lozim. Korreksion markaz va maktab o‘rtasidagi samarali hamkorlik esa mazkur tizimning asosiy elementi hisoblanadi.

Muhokama Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limda asosiy muammo alohida metodlar emas, balki ularning tizimli integratsiyasi yetishmasligi bilan bog‘liq. Ilmiy manbalar ham kompleks yondashuv bolalar rivojlanishida yuqori samara berishini tasdiqlaydi [3,17].

Shu bilan birga, ota-onalarning jarayonga jalb qilinishi va maktab bilan doimiy aloqa o‘rnatilishi natijalarni yanada yaxshilaydi.

Xulosa

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun quyidagilar muhim:

- multidistsiplinar yondashuvni joriy qilish
- korreksion markaz va maktab integratsiyasini ta’minlash
- individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish
- mutaxassislar malakasini oshirish

Spectrum modeli amaliyotda samarali integratsiyani tashkil etish mumkinligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Inklyuziv ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida qaror*. — Toshkent, 2020.

2. American Psychiatric Association. *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5)*. — Washington: APA Publishing, 2013.

3. Cooper J. O., Heron T. E., Heward W. L. *Prikladnoy analiz povedeniya (Applied Behavior Analysis)*. — Upper Saddle River, NJ: Pearson Education, 2007.

4. Ayres A. J. *Sensornaya integratsiya i rebenok (Sensory Integration and the Child)*. — Los Angeles: Western Psychological Services, 1979.

5. Luriya A. R. *Osnovy neyropsixologii*. — Moskva: Izdatelstvo MGU, 1973.

ASSISTIV TEXNOLOGIYALAR: INKLYUZIV TA’LIMGA KIRISH KALITI

Fayziyeva Nozima Oybek qizi
O’zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktorantura talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda assistiv texnologiyalar tushunchasining nazariy asoslari hamda ularning inklyuziv ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati keng yoritiladi. Xususan, imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim olish jarayonida duch keladigan to‘siqlarni bartaraf etishda zamonaviy texnologik yechimlarning roli tahlil qilinadi. Tezisda eshitish va nutq funksiyalarida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan assistiv vositalar, dasturiy platformalar va innovatsion qurilmalarning qisqacha tasnifi berilib, ularning pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda assistiv texnologiyalarning integratsiyasi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari va ta’lim infratuzilmasining moslashuvchanligi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so’zlar: Assistiv texnologiyalar; inklyuziv ta’lim; maxsus ta’lim ehtiyojlari; pedagogik innovatsiyalar; raqamli ta’lim; moslashuvchan muhit.

Abstract. This thesis examines the theoretical foundations of assistive technologies and highlights their role and significance within the inclusive education system. In particular, the study analyzes the role of modern technological solutions in overcoming barriers faced by individuals with disabilities in the educational process. The paper provides a brief classification of assistive devices, software platforms, and innovative technologies designed for students with visual, hearing, speech, and motor impairments, and substantiates their pedagogical effectiveness from a scientific perspective. Furthermore, special attention is given to the integration of assistive technologies in the development of an inclusive educational environment, as well as to the digital competencies of teachers and the adaptability of educational infrastructure.

Keywords: Assistive technologies; inclusive education; special educational needs; pedagogical innovations; digital education; adaptive environment.

Аннотация.В данной работе рассматриваются теоретические основы ассистивных технологий, а также их роль и значение в системе инклюзивного образования. В частности, анализируется роль современных технологических решений в преодолении барьеров, с которыми сталкиваются лица с ограниченными возможностями в процессе обучения. В статье представлена краткая классификация ассистивных средств, программных платформ и инновационных устройств, предназначенных для обучающихся с нарушениями зрения, слуха, речи и опорно-двигательного аппарата, а также научно обоснована их педагогическая эффективность. Кроме того, особое внимание уделяется вопросам интеграции ассистивных технологий в формирование инклюзивной образовательной среды, развитию цифровых компетенций педагогов и адаптивности образовательной инфраструктуры.

Ключевые слова: ассистивные технологии; инклюзивное образование; особые образовательные потребности; педагогические инновации; цифровое образование; адаптивная среда.

Kirish. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim global ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. World Health Organization ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 1 milliarddan ortiq inson, ya’ni global aholi sonining qariyb 15 foizi turli darajadagi nogironlik bilan yashaydi.[1] Ularning muhim qismi bolalar va o‘quvchilardan iborat bo‘lib, ta’lim olish jarayonida turli to‘siqlarga duch kelmoqda. UNESCO hisobotlariga ko‘ra, alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning maktabga qatnash darajasi boshqa tengdoshlariga nisbatan ancha past bo‘lib, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 10–20 foizgacha tushib ketadi.[3] Shu bilan birga, UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan bolalarning maktabga bormaslik ehtimoli sog‘lom bolalarga nisbatan 2–3 barobar yuqori.[4] World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, assistiv texnologiyalarga global ehtiyoj juda yuqori bo‘lib, hozirda ularga muhtoj insonlarning atigi 10 foizi zarur vositalardan foydalanish imkoniga ega.[2,5] Shuningdek, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi assistiv vositalarning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Masalan, nutqni matnga aylantirish, ekran o‘qish dasturlari, eshitish apparatlari va alternativ kommunikatsiya tizimlari ta’lim jarayonini yanada inklyuziv va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, assistiv texnologiyalarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish nafaqat pedagogik zarurat, balki ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim omili sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi assistiv texnologiyalarning samaradorligi adabiyotlarda keng muhokama qilingan bo'lib, uning samaradorligi asosan pedagoglarning tayyorgarligi, tegishli infratuzilmaning mavjudligi va siyosiy qo'llab-quvvatlashga bog'liq.[6] Ushbu texnologiyalarning samarali integratsiyasi uchun hamkorlikdagi yondashuv va dalillarga asoslangan strategiyalarni qo'llash zarurati ta'kidlanadi. Xususan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutqni aniqlash, ekran o'qish dasturlari va maxsus o'quv platformalari kabi moslashuvchan texnologiyalarni joriy etish imkoniyati cheklangan talabalarning o'qishdagi ishtiroki va akademik natijalarini sezilarli darajada oshiradi.[7] Bunday texnologiyalar, ayniqsa sanoat inqilobi 4.0 davrida, ta'lim tizimlarida raqamli transformatsiyani kuchaytirib, ta'limni yanada inklyuziv, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan qilish imkoniyatini yaratmoqda.[8] Ekvador kabi mamlakatlarda inklyuziv ta'limni targ'ib qilishda erishilgan sezilarli yutuqlarga qaramay, nogironligi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlashda qiyinchiliklar mavjud bo'lib, assistiv texnologiyalar bu bo'shliqlarni bartaraf etish uchun samarali vositalarni taqdim etadi.[9] Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan assistiv texnologiyalar akademik ko'rsatkichlarni, ijtimoiy ishtirokni va talabalarning umumiy ta'lim tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.[10]

Assistiv texnologiyalar imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi, shu bilan birgalikda ularga o'z tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o'qish va o'rganish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar kognitiv, jismoniy va hissiy to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beruvchi moslashuvchan o‘quv dasturlari va sensorli yordamchi qurilmalarni o'z ichiga. Ushbu vositalar o'quv materiallariga kirishni osonlashtiradi, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va shu bilan birga akademik ko'rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Bu raqamli vositalar va ixtisoslashtirilgan qurilmalar turli qobiliyatga ega o'quvchilar uchun ta'limga teng darajada kirishni ta'minlab, o'qitish usullarini moslashtirish va ishtirok etishni cheklovchi to'siqlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Assistiv texnologiyalarga eng ko‘p ehtiyoj sezuvchi guruhlar quyidagilardan iborat: nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, qandli diabet va insult kabi kasalliklarga chalingan bemorlar, ruhiy buzilishlarga ega shaxslar (jumladan, demensiya va autizm bilan og‘riganlar), shuningdek, funksional imkoniyatlari bosqichma-bosqich pasayib borayotgan insonlar.

–assistiv texnologiyalar nafaqat shaxsning sog‘ligi va farovonligiga, balki uning oila a’zolari hamda kengroq ijtimoiy-iqtisodiy muhitga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalar tomonidan eshitish apparatlaridan erta foydalanish ularning nutq va til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa keyinchalik ta’lim olish va mehnat faoliyatini boshlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi:

– qo‘l bilan boshqariladigan nogironlar aravachalari ta’lim olish va mehnat faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ular kontrakturalar xavfini kamaytirib, sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

– assistiv texnologiyalar keksalarga o‘z uyida mustaqil yashashni davom ettirish imkonini beradi hamda maxsus uzoq muddatli parvarish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni kechiktiradi yoki kamaytiradi.

– qandli diabet bilan kasallangan bemorlar uchun mo‘ljallangan ortopedik poyabzallardan foydalanish oyoq yaralari paydo bo‘lish xavfini kamaytiradi, pastki ekstremitalarning amputatsiyasining oldini olishga yordam beradi va natijada sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan yukni yengillashtiradi.

Nutq buzilishi mavjud shaxslar uchun eng asosiy texnologiyalar – bu **nutq hosil qiluvchi qurilmalar**. Ular:

– Matn yoki belgilarni nutqqa aylantiradi (text-to-speech),

– Ovoz chiqarish qobiliyati cheklangan shaxsga so‘zlash imkonini beradi,

– Individual ovoz va intonatsiyani sozlash imkoniyatini beradi.

SGD qurilmalari murakkabligiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi:

Birinchisi, **maxsus (Dedicated) qurilmalar**- faqat muloqot uchun ishlab chiqarilgan apparatlar. Ular juda chidamli, batareyasi uzoqqa chidaydi va kuchli dinamiklarga ega. Masalan, *Tobii Dynavox* yoki *Prentke Romich Company (PRC)* mahsulotlari.Ikkinchisi **moslashtirilgan (Non-dedicated) qurilmalar**- odatdagi planshetlar (iPad) yoki smartfonlar bo‘lib, ularga maxsus AAC ilovalari o‘rnatiladi.

Masalan:Tobii Dynavox yoki PRC Accent kabilar.[12]

Bu qurilmalar orqali nutq buzilishi bo‘lgan shaxs o‘z fikrini mustaqil ifodalashi, savol-javoblarda va ijtimoiy muloqotda ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy SGD tizimlarida **Voice Banking** funksiyasi mavjud. Bu inson o‘z ovozini yo‘qotishidan oldin (masalan, ALS kasalligining ilk bosqichida) o‘z ovozini yozib qoldirishi va keyinchalik qurilma aynan uning o‘z ovozida gapirishi demakdir. Bu foydalanuvchining shaxsiy identifikatsiyasini saqlab qolishga yordam beradi.[11]

2. Kommunikatsiya yordamchilari (Augmentative and Alternative Communication – AAC)

AAC– bu og‘zaki nutqni to‘ldiruvchi yoki almashtiruvchi texnologiyalar tizimi bo‘lib, nutq buzilishi mavjud shaxslarning axborot almashinuvi va muloqotini ta’minlaydi. "Augmentative" (qo‘shimcha) mavjud nutqni to‘ldirishni, "Alternative" (muqobil) esa nutq bo‘lmagan holatlarda uning o‘rnini bosishni anglatadi.Ular belgilar, tasvirlar, piktogrammalar yoki ekran menyusi orqali fikrni ifodalaydi, mobil ilovalar va planshetlarda ishlaydi hamda nutqni hosil qiluvchi qurilmalar bilan integratsiya qilinadi. AAC tizimlari foydalaniladigan texnologiyaga qarab ikki guruhga bo‘linadi: Bulardan birinchisi yordamchisiz (Unaided) AAC. Bunda hech qanday tashqi texnika yoki moslama talab qilinmaydi. Inson faqat o‘z tanasidan foydalanadi. Ya’ni imo-ishora tili, maxsus shakllangan qo‘l harakatlari, yuz ifodalari va tana tili: His-tuyg‘ularni ifodalash, barmoq bilan ko‘rsatish (Pointing) kabilar. Ikkinchisi Yordamchi (Aided) AAC- bunda muloqot uchun tashqi vositalar kerak bo‘ladi. Bular ham o‘z navbatida ikki xil: **Past texnologiyali (Low-tech):** Elektron bo‘lmagan vositalar. Masalan: Rasm panellari (Communication boards), kitoblar yoki albomlar, yozuv taxtachalari. **Yuqori texnologiyali (High-tech):** Elektron qurilmalar, nutq hosil qiluvchi planshetlar (SGD), maxsus dasturlar (masalan, *Proloquo2Go*), ko‘z harakati bilan boshqariladigan kompyuterlar.

3. Logopedik dasturlar va trening platformalari- nutqida buzilishi mavjud shaxslar uchun terapevtik va mashq dasturlari kommunikatsiya qobiliyatini oshiradi. Ular artikulyatsiya, fonatsiya va ritmni mashq qilish imkonini beradi, talaffuz va nutq aniqini monitoring qiladi hamda individual mashqlarni va dasturlarni sozlash imkoniyatiga ega sanaladi.

Mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, individual ta’lim trayektoriyasi samaradorligi bir nechta muhim mexanizmlar bilan izohlanadi.Birinchidan, har bir bola uchun alohida belgilangan maqsadlar va moslashtirilgan mashqlar nutqiy yuklamaning optimal taqsimlanishini ta’minladi. Ikkinchidan, o‘yin texnologiyalari va multimodal yondashuvlardan foydalanish bolalarning kognitiv va kommunikativ faolligini kuchaytirdi.[14]

Xulosa. Umuman olganda, assistiv texnologiyalar nogironligi bo‘lgan shaxslar hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar ularga yaxshiroq ko‘rish, eshitish va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular insonning funksional cheklovlarini qisman kompensatsiya qilib, shaxsiy rivojlanish va kasbiy shakllanish jarayonining muhim vositasiga aylanadi. Mazkur vositalardan kasbiy ta’lim jarayonida foydalanish sog‘lig‘ida cheklovlari mavjud shaxslarning bilim darajasini sezilarli darajada oshiradi hamda axborotni uzatish va qabul qilish jarayonini yengillashtiradi. Shu bois, moddiy-texnik bazani yaratish va assistiv texnologiyalarni talabalar imkoniyatlari hamda ehtiyojlariga mos ravishda qo‘llash ularning muvaffaqiyatli ta’lim olishi uchun zarur shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Health Organization. (2011). *World Report on Disability*. Geneva: WHO Press.

2. World Health Organization & UNICEF. (2022). *Global Report on Assistive Technology*. Geneva: WHO.
3. UNESCO. (2020). *Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education – All Means All*. Paris: UNESCO.
4. UNICEF. (2021). *Seen, Counted, Included: Using Data to Shed Light on the Well-being of Children with Disabilities*. New York: UNICEF.
5. World Bank. (2021). *Disability Inclusion and Accountability Framework*. Washington, DC: World Bank.
6. Tanjung, A., et al. (2024). *Assistive Technology in Inclusive Education: Teacher Readiness and Policy Support*. Journal of Inclusive Education Research.
7. Arteaga-Alcívar, L. (2023). *Impact of Assistive Technologies on Academic Performance of Students with Disabilities*. International Journal of Educational Technology.
8. Mais, F., & Yaum, K. (2025). *Digital Transformation and Inclusive Education in the Era of Industry 4.0*. Education and Information Technologies Journal.
9. Rivas, P. (2024). *Challenges in Implementing Inclusive Education in Developing Countries*. International Review of Education, 70(3), 410–425.
10. Gutiérrez, M., & Macas, J. (2025). *Artificial Intelligence in Assistive Technologies for Inclusive Learning*. Computers & Education.
11. Beukelman, D., & Light, J. (2020). *Augmentative and Alternative Communication: Supporting Children and Adults with Complex Communication Needs*. Baltimore: Paul H. Brookes Publishing.
12. Tobii Dynavox. (2023). *Assistive Communication Devices and AAC Solutions*.
13. Prentke Romich Company (PRC). (2022). *AAC Devices and Speech Generating Technologies*.
14. Fayziyeva.N. Individual ta'lim trayektoriyasi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o’ziga xos xususiyatlari. // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislar to‘plami. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 2026-yil, fevral 2(2)-son. (54-57-b)

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГА КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

Пирманова Бахора Эшмухаммадовна Докторант 2 курса Научно-исследовательского института «Семья и гендер» Республике Узбекистан.

Аннотация. В статье исследуется профессиональная компетентность педагога как ключевой фактор эффективности инклюзивного обучения. Определяются структурные компоненты компетентности, обосновывается их влияние на образовательные и социальные результаты обучающихся с особыми образовательными потребностями. Представлены результаты теоретического анализа и обобщения практического опыта. Выявлены педагогические условия, способствующие формированию компетентности.

Ключевые слова: инклюзивное образование, профессиональная компетентность, педагог, обучающиеся с ОВЗ, эффективность обучения, индивидуализация.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi inklyuziv ta'lim samaradorligining asosiy omili sifatida ko'rib chiqiladi. Kompetensiyaning tarkibiy qismlari aniqlanadi va ularning ta'lim va ijtimoiy natijalarga, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy o'rganish ehtiyojlariga ta'siri asoslanadi. Nazariy tahlil natijalari va amaliy tajriba xulosasi taqdim etiladi. Kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, kasbiy kompetensiya, o'qituvchi, nogiron o'quvchilar uchun o'qitish, samarali o'qitish, individualizatsiya.

Abstract. V state issleduetsya professionalnaya kompetentnost pedagoga kak klyuchevoy factor effektivnosti inklyuzivnogo obucheniya. Opredelyayutsya structural components of competence, obosnovyvaetsya ix influence on educational and social results obuchayushchixsya with personal educational needs. Predstavleny resultaty teoreticheskogo analiza i obobshcheniya prakticheskogo opyta. Vyyavleny pedagogicheskie usloviya, sposobstvuyushchie formationyu kompetentnosti.

Key words: inclusive education, professional competence pedagogue, students with disabilities, effective training, individualization.

Современная система образования ориентирована на обеспечение равного доступа к качественному обучению для всех категорий обучающихся. В этом контексте особую значимость приобретает инклюзивное образование, предполагающее совместное обучение детей с различными образовательными потребностями.

Становление и развитие инклюзивного образования в Республике Узбекистан является приоритетным направлением современного образования. Гарантию равных прав и возможность получения образования лицам с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ) провозглашает закон «Об образовании в Узбекистане». Согласно Конституции Республики Узбекистан в статье 49: Каждому гражданину гарантируется право на образование, закон «Об образовании» (в редакции от 23 сентября 2020 г., № ЗРУ–637) , каждый ребенок с ОВЗ имеет право на получение образования и свободного выбора образовательного учреждения. Следовательно, ребенок, имеющий особые образовательные потребности может появиться в любом образовательном учреждении. Реализация инклюзивной практики в образовательных организациях осуществляется таким образом, что дети с особыми образовательными потребностями обучаются со своими нормально развивающимися и не имеющими ограничений в состоянии здоровья сверстниками в одной образовательном учреждении, но по адаптированным образовательным программам, что говорит о их разных образовательных маршрутах. Следовательно, современный педагог должен быть готов к реализации инклюзивной практики в рамках любого образовательного учреждения. Поэтому необходима качественная профессиональная подготовка

современных работников образования к работе с детьми, имеющими особые образовательные потребности.

В связи с введением инклюзивного образования структура профессиональной компетентности современного педагога преобрела еще один компонент, такой как инклюзивная компетентность. Инклюзивная компетентность будущих педагогов является составляющей профессиональной компетентности, необходимой для реализации инклюзивного образования в условиях современного цифрового общества.

Вопрос формирования профессиональной компетентности педагога в условиях инклюзивного образования активно разрабатывается узбекскими учеными. Так, Н. Рахманкулова и Н. Ахмедова подчеркивают значимость индивидуализации обучения и признания уникальности каждого обучающегося. Г.Р. Тожибоева выделяет коммуникативную и информационную составляющие компетентности как ключевые элементы профессиональной подготовки педагога. М.М. Байбекова и Ю.Х. Кушаков акцентируют внимание на необходимости совершенствования системы подготовки учителей, указывая на существующие пробелы в их психологической и профессиональной готовности к инклюзивной практике. В свою очередь, Ф.Х. Худайкулова рассматривает компетентность педагога через призму толерантности и эмпатии как основы успешной социализации обучающихся.

Объектом исследования ряда ученых (И. Н. Хафизуллиной, М. Е. Чайковского, О. С. Бородиной, О. А. Козыревой и др.) стало содержание термина «инклюзивная компетентность», этапы ее становления и развития на всех уровнях системы профессионального образования. Исследователи выделили ряд ключевых проблем, с которыми столкнется современный педагог, работая в инклюзивном коллективе обучающихся, что, по их мнению, сформировало запрос на формирование инклюзивной компетентности будущих педагогов в отечественной системе профессионального образования. Ученные считают что, современный педагог в рамках своей профессиональной компетентности должен обладать инклюзивной компетентностью, так как он определяет цели, задачи, содержание, методы обучения и воспитания детей с особыми образовательными потребностями. Для реализации инклюзивной практики в образовательных учреждениях подготовка профессиональных кадров является неотъемлемой составляющей. Также развитие инклюзивного образования определяет особенности и специфику формирования, совершенствования профессиональных качеств личности педагога через систему профессионального образования (профессиональной подготовки, профессиональной переподготовки, повышения квалификации).

Структура профессиональной компетентности педагога в инклюзивной среде выделяет следующие компоненты:

Когнитивный — знания о психофизических особенностях обучающихся, принципах инклюзии, современных технологиях обучения.

Операциональный — умения адаптировать программы, применять дифференцированный подход, разрабатывать индивидуальные образовательные маршруты.

Коммуникативный — навыки взаимодействия с детьми, родителями и специалистами сопровождения.

Личностный — ценностные установки, эмпатия, толерантность, рефлексия и стрессоустойчивость.

Таким образом можно сказать что, влияние педагогической компетентности на эффективность инклюзивного обучения. Высокий уровень профессиональной компетентности педагога способствует:

- Эффективной организации учебного процесса и повышению качества образования.
- Качественному контролю за результатами обучения.
- Самореализации личности педагога, раскрытию его творческого потенциала.
- Созданию комфортной психологической среды и благоприятной атмосферы в классе.
- Вовлечению всех учащихся в учебный процесс.
- Готовности и способности принимать грамотные педагогические решения.
- Развитию умений взаимодействия и применения знаний в педагогической практике.
- Повышению уровня мотивации (как педагога, так и обучающихся).
- Развитию педагогической рефлексии.
- Способности решать сложные и непредсказуемые ситуации.

В целом, профессиональная компетентность является основой педагогического мастерства, объединяя теоретическую и практическую готовность к эффективной педагогической деятельности.

Компетентный педагог выступает медиатором между образовательной системой и индивидуальными потребностями ребенка.

Следовательно, можно сказать о том, что подготовка будущих и практикующих педагогов и формирование у них инклюзивной компетентности может осуществляться посредством:

1. Включения в дисциплины (модули) тем по инклюзивной педагогике.
2. Введения дополнительной дисциплины либо курсов по выбору по инклюзивной педагогике.
3. Прохождения профессиональной переподготовки или получение дополнительного образования в сфере инклюзивной педагогики.
4. Прохождения курсов повышения квалификации.
5. Проведения исследовательской и экспериментальной деятельности.
6. Осваивания новых педагогических технологий, работы в творческих группах, методических объединениях, различных формы педагогической поддержки.

Таким образом, профессиональная компетентность педагога является ключевым фактором эффективности инклюзивного обучения. Она обеспечивает не только академические достижения обучающихся, но и их успешную социализацию. В современных условиях такой подход позволяет образовательным учреждениям различного уровня вывести на новый уровень подготовки специалистов в области инклюзивного образования, способных себя

эффективно реализовать в его практике. Поэтому одной из приоритетных задач профессиональной подготовки педагогов является формирование у них инклюзивной компетентности, что необходимо не только для его профессионального роста, но и для формирования высокоморального развитого общества в целом. Развитие данной компетентности должно рассматриваться как приоритетное направление образовательной политики и профессиональной подготовки педагогов.

Список литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан Статья 49: Каждому гражданину гарантируется право на образование. Закон «Об образовании» (в редакции от 23 сентября 2020 г., № ЗРУ–637)

2. Рахманкулова Н., Ахмедова Н. Вопросы повышения эффективности обучения в условиях инклюзивного образования // Современное образование. - Ташкент, 2022. - № 3. - С. 45–50.

3. Тоджибоева Г.Р. Инклюзивное образование и условия современной образовательной среды // Педагогика и психология. – Чирчик, 2023. – № 2. - С. 112–118.

4. Ишматова О.С. Инклюзивное образование: проблемы и решения // Журнал научных исследований. - Ташкент, 2021. - № 5. - С. 67–72.

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLI BOLALARDA LUG'AT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI AMALGA OSHIRISHNING KORREKSION-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Tuxtayeva Maxfirat
Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada autistik spektr buzilishi (ASB) tashxisi qo'yilgan bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish asosida muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini amalga oshirishning korreksion-pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, individual ta'lim yo'nalishi, o'yin asosidagi kommunikativ faoliyat, ko'rgazmali-moddiy vositalar hamda oila bilan hamkorlikning samarali modeli asoslab beriladi. Korreksion-pedagogik shart-sharoitlarni tizimli joriy etish ASBli bolalarda faol lug'at hajmini sezilarli darajada oshiradi va muloqot ko'nikmalarining sifat jihatidan yaxshilanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: autistik spektr buzilishi, lug'at boyligi, muloqot ko'nikmalari, korreksion pedagogika, logopedik ish, individual ta'lim, kommunikativ faoliyat, inklyuziv ta'lim.

Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический и практический анализ коррекционно-педагогических условий реализации методики формирования коммуникативных навыков посредством развития словарного запаса у детей с диагнозом расстройство аутистического спектра

(РАС). Обоснована эффективная модель организации развивающей среды, индивидуального образовательного маршрута, игровой коммуникативной деятельности, наглядно-материальных средств и сотрудничества с семьёй. Доказано, что системное внедрение коррекционно-педагогических условий существенно расширяет объём активного словаря и приводит к качественному улучшению коммуникативных навыков у детей с РАС.

Ключевые слова: расстройство аутистического спектра, словарный запас, коммуникативные навыки, коррекционная педагогика, логопедическая работа, индивидуальное обучение, коммуникативная деятельность, инклюзивное образование.

Abstract: This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the correctional-pedagogical conditions for implementing the methodology of forming communication skills through vocabulary development in children diagnosed with autism spectrum disorder (ASD). An effective model of organizing a developmental environment, individual educational pathway, play-based communicative activity, visual-material aids, and family collaboration is substantiated. It is demonstrated that the systematic implementation of correctional-pedagogical conditions significantly increases the volume of active vocabulary and leads to qualitative improvement of communication skills in children with ASD.

Keywords: autism spectrum disorder, vocabulary, communication skills, correctional pedagogy, speech therapy, individual education, communicative activity, inclusive education.

Autistik spektr buzilishi (ASB) — bolaning ijtimoiy muloqot, nutq va xulq-atvor sohasida kuzatiladigan kompleks neyrorivojlanuv buzilishi bo'lib, bugungi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan tashxislardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, har 100 boladan taxminan bittasida ASB belgilari aniqlanmoqda. O'zbekistonda ham bu toifadagi bolalar soni ortib bormoqda, bu esa korreksion-pedagogik xizmatlarni takomillashtirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda.

ASBli bolalarda muloqot ko'nikmalarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular so'zning kommunikativ funksiyasini to'liq anglash va uni ijtimoiy munosabatda qo'llashda qiyinchilik his etadilar. Tilshunoslik, neyropedagogika va logopediya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar ko'rsatadiki, lug'at boyligini maqsadli rivojlantirish ASBli bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Zero, so'z zahirasining kengayishi nafaqat nutq faoliyatiga, balki ijtimoiy idrokka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ASBli bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish orqali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini amalda joriy etishning zaruriy korreksion-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat.

ASBli bolalarda muloqot va nutq rivojlanishini o'rganish masalasiga jahon ilmiy hamjamiyatida katta e'tibor qaratilmoqda. L.S. Vigotskiyning proksimal rivojlanish zonasi nazariyasi ASBli bolalar bilan ishlashda ham fundamental ahamiyatini saqlab qolmoqda: kattalar va tengdoshlarning yordami orqali bola mustaqil bajara olmagan

vazifalarni uddalay oladi. Ushbu yondashuv kommunikativ faoliyatni qo’llab-quvvatlash printsipi asosida tashkil etishda keng qo'llaniladi.

Amaliy xulq-atvor tahlili (Applied Behavior Analysis - ABA) metodologiyasi va uning zamonaviy modifikatsiyalari — tayanch javob usuli (Pivotal Response Treatment - PRT) hamda verbal xulq-atvor yondashuvi (Verbal Behavior Approach - VBA) — ASBli bolalarda lug'at boyligini shakllantirishda eng ko'p qo'llaniladigan yondashuvlar sifatida tan olingan. PRT metodining muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi bir qator meta-analitik tadqiqotlarda eksperimental jihatdan tasdiqlangan.

O'zbek defektologiya ilmida ham ushbu yo'nalishda muhim ishlar amalga oshirilgan. Mahalliy tadqiqotchilar ASBli o'zbek bolalarida nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdi va milliy sharoitga moslashtirilgan korreksion texnologiyalarni ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi. Biroq lug'at boyligini rivojlantirish orqali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik shart-sharoitlari alohida, to'liq tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan bo'lib, ushbu bo'shliq mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Rivojlantiruvchi muhitni maqsadli tashkil etish. Birinchi va asosiy shart-sharoit sifatida ASBli bola uchun taxminiy, his-tuyg'u jihatdan xavfsiz va kommunikativ jihatdan boyitilgan ta'lim muhitini yaratish belgilanadi. Psixologik xavfsizlik muhiti bolaning yangi so'zlarni o'zlashtirishga ichki motivatsiyasini oshiradi. Buning uchun har bir darsdagi vaziyatlar, vaqt tartibi va faoliyat algoritmlari vizual jadvallar shaklida mahkamlanadi. Sensor yukni kamaytirish maqsadida sinfda yorug'lik darajasi, tovush fonining intensivligi va ranglarning kontrasti muvozanatlashtirilishi lozim.

Muhitni boyitish uchun PECS (*Picture Exchange Communication System*) kartochkalari, AAC (*Augmentative and Alternative Communication*) qurilmalari va predmetli-faoliyat markazlari tashkil etilishi tavsiya etiladi. Har bir predmetli markaz tegishli leksik mavzular bo'yicha etikotka va piktogrammalar bilan jihozlanadi. Bu yondashuv lug'at birliklarini real kontekstda qo'llash imkoniyatini yaratib, so'zning kommunikativ funksiyasini faollashtiradi.

Individual ta'lim yo'nalishini loyihalash. Ikkinchi shart-sharoit — har bir bola uchun individual korreksion-rivojlantirish yo'nalishini (IKR yo'nalish) ishlab chiqishdir. Bu yo'nalish psixolog, logoped, defektolog va ota-onalarning birgalikdagi mulohazalari asosida tuziladi va bolaning mavjud kommunikativ darajasini, o'rganish uslubini hamda qiziqishlarini hisobga oladi. IKR yo'nalishda lug'at boyligini rivojlantirishning quyidagi bosqichlari belgilanadi: passiv lug'atni faollashtirish; nominativ funksiyani mustahkamlash; harakat fe'llarini kontekstda qo'llash; tavsifiy sifat va bog'lovchi vositalarni kengaytirish.

Individual yondashuvda bolaning rivojlanish darajasini doimiy monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Dinamik baholash metodologiyasi asosida olingan ma'lumotlar IKR yo'nalishni moslashuvchan ravishda yangilab borishga imkon beradi va ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan pedagogik yuklamaning oldini oladi.

O'yin asosidagi kommunikativ faoliyat. Uchinchi shart-sharoit sifatida bolaning tabiiy motivatsiyasiga suyanadigan, o'yin orqali leksik va kommunikativ vazifalarni birlashtiradigan strukturlashtirilgan o'yin faoliyati tashkil etiladi. Tabiiy

muhitda o’qitish (Natural Environment Teaching - NET) yondashuvi asosida o'quv faoliyati bolaning qiziqishlariga mos keluvchi o'yin stsenariylari doirasida amalga oshiriladi. Rolli o'yinlar (bozorchilik, shifoxona, oshpazlik) ma'lum leksik mavzular bo'yicha kontekstli muloqot vaziyatlarini yaratadi.

Birgalikdagi harakatlar ketma-ketligi (Joint Action Routines - JAR) texnikasi yordamida ikki va undan ortiq ishtirokchi o'rtasida muloqotni talab qiladigan takrorlanuvchi o'yin sekvenslari ishlab chiqiladi. Bu texnika bolada muloqotni boshlash ko'nikmasini shakllantirishda ayniqsa samarali ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan.

Ko'rgazmali-moddiy va texnologik vositalardan foydalanish. To'rtinchi shart-sharoit — lug'at o'rganish jarayonida ko'p kanalli sensor ma’lumot ta'minotini amalga oshirishdir. ASBli bolalar uchun vizual ma'lumot ayniqsa muhim bo'lganligi sababli, har bir yangi so'z rangli rasm, predmet yoki video bilan birga taqdim etiladi. Leksik kartochkalari — so'z, rasm, piktogramma va qisqa ta'rif kombinatsiyasidan iborat — darsning asosiy didaktik vositasiga aylantiriladi.

Bundan tashqari, nutq yaratuvchi qurilmalar (Speech Generating Devices - SGD) va maxsus ilovalar (Proloquo2Go, Cboard, Snap Core First) orqali bolalar muqobil kommunikatsiyani ham o'zlashtirishi mumkin. Texnologik vositalarni qo'llashda ortiqcha sensor yuklamadan qochish va bolaning individual qabul qilish xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Oila bilan hamkorlik va generalizatsiyani ta'minlash. Beshinchi, yakuniy shart-sharoit — o'rganilgan leksik birliklar va kommunikativ ko'nikmalarning turli muhitlarda (maktab, uy, jamoat joylari) generalizatsiyasini ta'minlash uchun oila bilan tizimli hamkorlikdir. Ota-onalar bolaning qiziqishlarini nutq rivojlantirishga yo'naltirish usullarini o'zlashtirishi, haftalik topshiriq varaqlari asosida korreksion ishlarga faol jalb etilishi lozim.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, oilasi faol ishtirok etgan bolalar lug'at boyligini rivojlantirish sur'ati bo'yicha sezilarli ustunlik ko'rsatadi. Shuning uchun mutaxassis va oila o'rtasida doimiy, ikki tomonlama kommunikatsiya kanalini yaratish korreksion tizimning ajralmas qismi sifatida qaralishi zarur.

Taklif etilayotgan beshta korreksion-pedagogik shart-sharoit birgalikda yaxlit, o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi. Har bir shart-sharoit alohida qo'llanilganida ham ma'lum samara bersa-da, ularning kompleks tatbiq etilishi sinergetik ta'sir ko'rsatadi. Muhit tashkil etish va individual yo'nalish ishlab chiqish boshlang'ich shart bo'lib, o'yin asosidagi faoliyat va texnologik vositalar ularni boyitadi; oila hamkorligi esa erishilgan natijalarning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Xalqaro tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, taklif etilayotgan model bir tomondan xalqaro miqyosda tan olingan yondashuvlarga (ABA, PRT, NET) asoslanadi, ikkinchi tomondan esa o'zbek madaniy kontekstida oila tuzilishi, muloqot urf-odatlari va maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Bu esa metodikaning mahalliy sharoitda qo'llanilishi samaradorligini oshiradi. Korreksion-pedagogik shart-sharoitlarni tatbiq etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy to'siqlar qatoriga mutaxassislarning yetarli malakaga ega emasligi, oilalarning kam xabardorligi va moddiy-texnik ta'minotning cheklanganligi kiradi. Ushbu

to'siqlarni bartaraf etish uchun tizimli kadrlar tayyorlash dasturlari, ota-onalar uchun treninglar va inklyuziv ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ASBli bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish orqali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini joriy etish uchun quyidagi beshta korreksion-pedagogik shart-sharoit majmuasi zarur va yetarli hisoblanadi:

1) rivojlantiruvchi muhitni maqsadli tashkil etish;

2) individual korreksion-rivojlantirish yo'nalishini loyihalash;

3) o'yin asosidagi kommunikativ faoliyatni tashkil etish;

4) ko'rgazmali-moddiy va texnologik vositalardan kompleks foydalanish;

5) oila bilan tizimli hamkorlikni ta'minlash.

Ushbu shart-sharoitlarning tizimli tatbiq etilishi ASBli bolalarda faol lug'at hajmini sezilarli darajada oshiradi, muloqotni mustaqil boshlash ko'nikmasini rivojlantiradi va turli ijtimoiy vaziyatlarda kommunikativ kompetentlikni mustahkamlaydi. Olingan ilmiy xulosalar inklyuziv va maxsus ta'lim muassasalarida ASBli bolalar bilan ishlayotgan logoped, defektolog va korreksion pedagoglar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda yuqorida ko'rsatilgan shart-sharoitlarni turli yosh guruhlarida, shuningdek, qo'shma buzilishlar (eshitish, ko'rish) mavjud bo'lgan ASB holatlarida ham sinab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. American Psychiatric Association. Diagnostic and statistical manual of mental disorders (5th ed.). Arlington, VA: APA. 2013.

2. Axrorova S. “Autizm sindromiga chalingan bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olish va korreksiyalash” (2022)

3. Baron-Cohen, S. The pattern seekers: How autism drives human invention. Basic Books. 2020.

4. Kasari, C., Kaiser, A., Goods, K., Whooten, J., Giserman, P., Kain, A., & Shire, S. Communication interventions for minimally verbal children with autism. Journal of the American Academy of Child & Adolescent Psychiatry, 55(7), 570–579. 2016.

5. Lovaas, O. I. Behavioral treatment and normal educational and intellectual functioning in young autistic children. Journal of Consulting and Clinical Psychology, 55(1), 3–9. 1987.

6. Prizant, B. M., & Wetherby, A. M. Enhancing language and communication development in autism spectrum disorders. In D. J. Cohen & F. R. Volkmar (Eds.), Handbook of autism and pervasive developmental disorders. Wiley. 2018.

7. Schreibman, L., Dawson, G., Stahmer, A. C., Landa, R., Rogers, S. J., & Halladay, A. Naturalistic developmental behavioral interventions: Empirically validated treatments for autism spectrum disorder. Journal of Autism and Developmental Disorders, 45(8), 2411–2428. 2015.

8. Vigotskiy, L. S. Myshleniye i rech'. Moskva: Labirint. 1996.

INKLYUZIV TA’LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O’QITISH VA MUOMMOLARNI BARTARAF ETISH

Kamalova Gavhar Nuratdinovna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri 27-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'lim madaniyati!*

Kalit so’zlar: *Ta'lim, bolalar, nogironlar, maxsus ta'lim, umumiy ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ajratish, maktab, nogironlar, yaxlit, jins, umumiy ta'lim muassasalari.*

Davlatimiz rahbarining 2020-yilgi 13-oktyabrdagi 4860 sonli qarori va 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli farmonida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga ularni jamiyatdagi obro‘sini yanada oshirishga qaratilgandir. 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tog‘risida”gi PF-5712- sonli farmonda ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoilini bosqichma- bosqich singdirib borish, ta’lim berish metodlarni takomillashtirish imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim xizmati sifatini oshirish hamda mazkur toifadagi har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishga bo‘lgan huquqini taminlashga qaratilgan chora- tadbirlarni belgilab beradi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o’quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning extièjlarini qondirish, ijtimoiy xaètga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruèbga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limning muammolari. Ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo‘yicha davlat normativ xujjatlarida qayd qilinmaganligi; Nogiron bolalarga nisbattan salbiy munosabat; Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosi; Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko‘rinmaslik

muammosi; Moddiy mablag‘ muammolari; Ta'lim muassasalarini moslashtirish; Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi; Kambag‘allik; Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish; Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi; Favqulodda vaziyatlar , mojarolar, qochoqlar; Kadrlar masalasidagi muammolar. Haqli savol tug‘iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta'lim tizimiga o‘tishga qanday zaruriyat bor?

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi.

Ammo bu ta'lim tizimining nafli jixati juda ko‘p ular sirasiga qo‘yidagilar kiradi:

- ✓ Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- ✓ Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- ✓ Kamsitishlarni oldini oladi;

Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta'limning prinsiplari:

1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug‘iga bog‘liq emas.
2. Har bir inson o‘ylash va xis qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir\biriga muxtoj.
5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab quvvatlashga muxtoj.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqga erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi haètini har tomonlama ko‘chaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi qo‘yidagi ta'lim muassasalarni o‘z ichiga oladi; maktabgacha umuta'lim, umu o‘rta ta'lim, o‘rta maxsus kasb-xunar va oliy ta'lim. Bu ta'lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb-xunarga tayèrlashda ularning o‘rtasidagi to‘siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muxitini yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi.

Bolaning tarbiya va o‘quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o‘zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro‘y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog‘ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g‘oyani ilgari suradi. Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o‘simlikka o‘xshatadi. «Uning ingichkagina ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o‘zo‘zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi. Bunday o‘simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagi sharoitda taraqqiyotning cho‘qqisiga yetmasdan, bujmayib so‘lib qoldi», deydi. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini har bir millat va elatning o‘ziga xos tomonlari, milliy an'analari, urf-odatlari, davlatning maqsad-vazifalari hamda

tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarda kattalar bolaning rayiga, mustaqil bo‘lishiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagi, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklar o‘z-o‘zidan barham topadi. Imkoniyati cheklangan bolada o‘jarlik, qaysarlik, itoatsizlik xususiyatlari paydo bo‘lishi bu kattalarning haddan tashqari paypaslaganliklari oqibatida vujudga keladi. Psixolog olima L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo‘llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo‘lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim.

Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o’z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o’z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o’z vaqtida olibib borilsa abatta ko’zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya’ni inklyuziv ta’limning samarasi yuqori darajada bo’ladi.

Adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –С. 42.

2. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-б.

3. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet

4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

5. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468- 474 P.

6. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P

INKLYUZIV BOLALARNING MAKTABGA MOSLASHUV JARAYONI

Qoraqalpogiston Respublikasi Nukus shahri 27-maktabning Maxsus pedogogi Abdikerimova Gulnaz

Annotatsiya: Inklyuziv bolalarning maktabga moslashuv jarayoni o‘ziga xos va murakkab ijtimoiy-psixologik, pedagogik, madaniy hamda ma’naviy jarayondir. Maktab hayotiga ilk qadam qo‘yayotgan inklyuziv bolalar uchun turli sohalardagi tayyorgarlik, moslashish va moslashuv strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan va sog‘lom o‘quvchilar uchun teng rivojlanish, bilim olish hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topish

imkoniyati yaratadigan ilg‘or tizimdir. Taraqqiyot jarayonida inklyuziv maktablar va ularning faoliyat yo‘nalishi tobora muhim mavzuga aylanib bormoqda.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, moslashuv jarayoni, maktab muhitiga moslashuv, psixologik yordam, pedagogik strategiya, jamiyat, shaxsiy ehtiyoj, integratsiya, ijtimoiy muhit, maxsus yordam.

O‘zbekiston ijtimoiy hayotida inklyuziv ta’lim masalasi dolzarb mavzulardan sanaladi. Inklyuziv bolalarning maktabga moslashuv jarayonini o‘rganishda birinchi navbatda bolalarning psixologik va emotsional holatini, jamiyat va muhit bilan munosabatini, shuningdek, moslashuvni osonlashtiruvchi tashkiliy-pedagogik sharoitlarni hisobga olish zarur. Maktabga kelgan har bir bola, ayniqsa, imkoniyatlari cheklangan va ijtimoiy tajribasi kam bo‘lgan bolalar yangi muhitga ko‘nikish, yangi do‘stlar topish, o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan muloqot qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Bolalarning moslashuv jarayoni avvalo oiladan boshlanadi. Ota-ona mehr-muhabati, bolaga bo‘lgan e’tibor, uning alohida ehtiyojlariga munosabat, ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash maktab moslashuvining poydevoridir. Inklyuziv bolalarning psixologik tayyorligi o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his qilish, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish va individual qiyinchiliklarni yengib o‘tishda asosiy omillardan hisoblanadi. Oila muhitidagi mehr, sabr, bardamlik, bolaga bo‘lgan ishonch uni yangi muhitda o‘ziga ishonch, ijtimoiy faoliyat yuritish va o‘zini namoyon etish imkonini beradi. Moslashuv jarayonining ikkinchi bosqichi – maktab muhitiga kirish, yangi ijtimoiy rolga ega bo‘lish, sinfdoshlar jamoasi va o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqani mustahkamlash. Maktabga kelgan inklyuziv bolalarga ilk kunlardanoq maxsus yo‘riqnomalar, qulay sharoitlar, ijtimoiy va pedagogik yordam tizimi taqdim etilishi kerak. O‘qituvchilar inklyuziv ta’lim metodologiyasi, shaxsiy va guruhiy yondashuv asoslarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Sinf jamoasidagi ijtimoiy muhit, do‘stona aloqa, tengdoshlarning yordami maktabga tez va samarali moslashish imkonini beradi [1].

Inklyuziv bolalarning maktabdagi birinchi tajribalari ko‘pincha hayajon, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik, yangi muammolar bilan birga kechadi. Har bir bola o‘z imkoniyatlariga, sog‘lig‘iga va shaxsiy xususiyatlariga ega bo‘lganligi sababli, ularning maktab muhitiga moslashuv tezligi, jarayonning qiyin yoki oson kechishi individual hisoblanadi. Pedagoglar va psixologlar inklyuziv bolalarning shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, ehtiyojlarini sinchiklab o‘rganib, ularga individual dasturlar asosida yordam berishlari muhimdir. Maktab muhitidagi moslashuv jarayoni o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga kirishish va yangi tajribalarni o‘zlashtirish bosqichlaridan iborat. Inklyuziv bolalar uchun mavhum vazifalar, qulay infrastruktur, maxsus yordamchi texnologiyalar, shaxsiy ta’lim rejalari va individual yondashuv samarali natija beradi. O‘qituvchilarning fidoyiligi, tafakkuri va bilim saviyasi inklyuziv bolalarga maktabda o‘zini yaxshi his qilish, rag‘batlantirish, salbiy stresslarni kamaytirish uchun asos bo‘la oladi.

Jamiyatimizda inklyuziv bolalar bilan ishlashda maxsus psixologik xizmatlar, konsulьtatsiya, logopedlar, defektologlar va ijtimoiy pedagoglarning faoliyati tobora kengaymoqda. Bu mutaxassislar maktab muhitida bolalarga salbiy stresslardan, xavotir va o‘zga muammolardan xoli bo‘lishda, ularga yangi do‘stlarni topishda, moslashuvga yordam berishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Inklyuziv bolalarning maktab

hayotiga to‘liq moslashuvi uchun zamonaviy maktablar bezak, jihozlanish, darsliklar, texnologiyalar va o‘quv dasturlariga alohida e’tibor qaratmoqda [2].

Moslashuv jarayonini osonlashtirishda sinfdoshlarning inklyuziv bolalar haqidagi axborot va madaniy bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sinf jamoasida yordam, do‘stona aloqa, bir-biriga e’tibor, hamkorlik va tenglik g‘oyasining rivojlanishi bolaning yangi muhitda o‘zini erkin his etishiga ta’sir ko‘rsatadi. Maktab dargohlarida hamkorlik tamoyili, ochiqlik va empatya, inklyuzivlik ruhini keng shakllantirish ahamiyatlidir. Har bir bola – bu jamiyatning to‘laqonli a’zosi, har bir bola o‘z iste’dodi, orzu-umidlari va salohiyati bilan muhimdir. Inklyuziv bolalar uchun moslashuvda fanlarni o‘rganish, sinf mashg‘ulotlariga faol qatnashish, darsdan tashqari tadbirlarda, to‘garak, sport va madaniy faoliyatlarda ishtirok etish alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy moslashish natijasida bola o‘z tengdoshlari bilan tajriba almashadi, mustaqil o‘ylash va muammolarni hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Yangi ko‘nikma va bilimlar bolaning hayotga, o‘ziga va jamiyatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Inklyuziv bolalarning sinfdoshlari bilan o‘zaro aloqasini mustahkamlash, ularni umumiy jamoaning faol a’zosiga aylantirish ta’lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biridir [3].

Maktabga kelgan inklyuziv bolalarning moslashuvi uchun o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalar uzviy hamkorlikda ishlashlari, har bir bolaning individual qiyinchiliklarini yengillashtirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishlari zarur. Mashg‘ulotlarda ijodiy o‘yinlar, rolli o‘yinlar, birgalikdagi loyihalar, musobaqa va tadbirlar orqali bolalarning maktab muhitiga uyg‘unlashuvi tezlashadi. Bu esa bolaning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati, o‘ziga va atrofdagilarga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Moslashuv jarayonida bolaning o‘zini boshqalardan kam his qilmasligi, jamiyatda o‘z o‘rnini aniq tushunishi, o‘z imkoniyatlariga ishonchi muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv bolalarning moslashuv jarayonida madaniy va axloqiy qadriyatlar, hamjihatlik, yengil muammolar, birgalikda o‘sish madaniyati asos qilib olinishi lozim. Bola ijtimoiy guruhda o‘zini erkin va to‘laqonli a’zo sifatida his qilganda, uning rivojlanishi, bilim olishi hamda kattalar bilan muloqoti samarali kechadi.

Hozirgi kunda inklyuziv ta’lim maktablarida turli jihatlarni hisobga oluvchi rivojlangan pedagogik metodlar tatbiq qilinmoqda. Darslarda individual va guruhiy yondashuv, bolalarning mustaqilligi va ijodkorligini oshirish usullari, noan’anaviy mashg‘ulot turlari keng qo‘llaniladi. Inklyuziv bolalarning shaxsiy ehtiyojlari uchun moslashtirilgan o‘quv rejalar, maxsus vositalar va texnologiyalar yordamida ular ham barcha bolalarga teng bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Inklyuziv bolalarning maktabga moslashuvini ta’minlash uchun ijtimoiy infratuzilma, maktab infratuzilmasi, sinflar, darslik, maxsus moslamalar, transport va maktab ichki makonini jismoniy imkoniyatlar doirasida qulaylashtirish kerak. Yoshlarni ko‘proq hayotda faol ishtirok etishga, yetakchilikka, o‘z fikri va orzularini erkin namoyon etishga rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv bolalarni maktabga moslashuv jarayonida o‘zga bolalar va jamiyat a’zolarining ularni qabul qilishi, yordam berishi va kuchli do‘stlik rishtalarini shakllantirishi asosiysi hisoblanadi. Bu jarayon bir kun yoki bir hafta emas, balki uzoq vaqt davomida, muntazam sa’y-harakat, doimiy yordam, ma’naviy va axloqiy tarbiya asosida amalga oshadi. Oiladagi muhit, ota-onalar va yaqinlar

yordamida maktabga qadam qo‘ygan inklyuziv bola jamiyatda ilgari surilgan ijtimoiy qadriyat, tenglik, do‘stlik va mehr-muhabbat muhitida ulg‘ayadi [4].

Inklyuziv bolalar uchun moslashuv jarayonining har bosqichida pedagoglar, psixologlar va sinfdoshlarning ko‘magini hiss etish juda muhim. Har bir bolaning muvaffaqiyati va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun ijtimoiy muayyan majburiyatlar, ochiqlik, mehr-muhabbat, madaniyatli muloqot va bir-birining dardini anglash talabi doimiy holda yuksak darajada bo‘lishi zarur. Moslashuvdagi yutuqlar o‘z-o‘zini qadrlash, shaxsiy imkoniyatlarni to‘laqonli namoyon qilish va kelajak hayotda faol jamiyat a’zosiga aylanish poydevoridir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan inklyuziv ta’lim siyosati asosida maktab muhitining moslashtirilishi, ijtimoiy va psixologik muhitning yaxshilanishi, pedagog va ota-onalarning hamkorligi, bolaning jamiyat hayotiga samarali moslashuvi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Yangi o‘quv standartlari, pedagogik texnologiyalar, maxsus vositalarning joriy qilinishi natijasida inklyuziv bolalar yanada faol, bilimli, mustaqil, kuchli shaxs bo‘lib ulg‘aymoqda. Maktabga moslashuv jarayonining yangicha talqini, bolaning shaxsiy ehtiyojlari, imkoniyatlari va orzu-umidlari, ijtimoiy muhit hamda pedagogik yordam uyg‘unligida amalga oshiriladi. Inklyuziv bolalarning maktabdagi muvaffaqiyati – bu butun jamiyat taraqqiyoti, insonparvarlik, tenglik, adolat va ishonch muhitining natijasidir. Sinf jamoasining ijobiy ta’sir doirasi, pedagog va ota-onalarning fidoyilik bilan harakat qilishi, ochiq va konstruktiv hamkorlik inklyuziv bolalarning maktab hayotiga to‘laqonli moslashuvining kafolatidir [5].

Xulosa. Inklyuziv bolalarning maktabga moslashuv jarayoni ko‘p qirrali, kompleks va doimiy e’tibor talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun oilaning qo‘llab-quvvatlashi, maktab muhitidagi individual yondashuv, hamkorlikka asoslangan pedagogik strategiyalar va jamiyatning ochiqligi juda muhimdir. Inklyuziv bolalar uchun taqdim etilayotgan yordam, ijtimoiy va pedagogik qo‘llab-quvvatlash, munosib sharoitlar bola shaxsining to‘liq rivojlanishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonch va jamiyatga integratsiya bo‘lishiga imkon beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa – inklyuziv bolalarning maktabga moslashuviga zamin yaratish, ular uchun teng sharoit va imkoniyatlarni ta’minlash, dastlabki bosqichlardan boshlab o‘ziga xos yordam va strategiyalar ishlab chiqishdan iborat. Inklyuziv bolalarga nisbatan ijobiy munosabat, jamiyat va maktabda konstruktiv hamkorlik, shaxsiy ehtiyojlarga mos yondashuv kelajagimiz uchun kuchli, bilimli va sog‘lom avlod yetishtirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘razaliyeva B. (2020). Inklyuziv ta’limda bolalarning moslashuv bosqichlari. Toshkent: Ma’rifat nashriyoti.

2. Mamatova G. (2022). Zamonaviy maktabda inklyuziv bolalarning ijtimoiy moslashuvi. Pedagogika va Psixologiya jurnali, Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.

3. Tursunov V. (2018). Inklyuziv ta’lim asoslari va amaliyoti. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti.

4. Axmedova O. (2021). Inklyuzivlik va pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Maorifi nashriyoti.

5. Islomova D. (2019). Maktabda inklyuziv o‘quvchilarga yordam berish usullari. Toshkent: Resursli maktablar tajribasi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti.

6. Usmanova S. (2017). Shaxsiy o‘sish va inklyuziv muhit. Toshkent: O‘zbekiston Yoshlar jurnali nashriyoti.

INKLYUZIV BILIMLENDIRIW SHARAYATINDA AUTIZMLI BALALARDIŃ SOCIALLIQ BEYIMLESIWI

Bazarbaeva Anjim Jamǵırbay qızı
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı.
Mektepke shekemgi tárbiya hám defektologiya kafedrası magistranti

Annotaciya.

Usı jumısta inklyuziv tálim sharayatında autizm spektriniń buzılıwına (ASB) autizm spektrı buzılg’an balalardıń sociallıq beyimlesiw ózgeshelikleri kórip shıǵıladı. Tiykarǵı pedagogikalıq tosqınlıqlar analiz yetiledi hám autizm spektrı buzılg’an bolǵan balalardı tálim ortalıǵına tabislı kirgiziwge qaratılǵan nátiyjeli pedagogikalıq strategiyalar usınıs yetiledi.

Tayanish sózler: inklyuziv bilimlendiriw, autizm, sociallıq beyimlesiw, pedagogikalıq tosıqlar, individual jantasıw, korrekciyalıq pedagogika.

Abstract. This work examines the characteristics of social adaptation for children with autism spectrum disorders (ASD) within inclusive education. The main pedagogical barriers are analyzed, and effective pedagogical strategies aimed at the successful integration of children with ASD into the educational environment are proposed.

Keywords: inclusive education, autism, social adaptation, pedagogical barriers, individual approach, correctional pedagogy.

Аннотация: В данной работе рассматриваются особенности социальной адаптации детей с расстройствами аутистического спектра (РАС) в условиях инклюзивного образования. Анализируются основные педагогические барьеры и предлагаются эффективные педагогические стратегии, направленные на успешную интеграцию детей с РАС в образовательную среду.
Ключевые слова: инклюзивное образование, аутизм, социальная адаптация, педагогические барьеры, индивидуальный подход, коррекционная педагогика.

Inklyuziv bilimlendiriw — bul tek ǵana imkaniyatı sheklengen balalardı mektepke jaylastırıw emes, al bilimlendiriw sistemasın hár bir balanıń jeke zárúrliklerin sáykeslestiriw procesi bolıp tabıladı. Zamanagóy bilimlendiriw siyasatınıń eń áhmiyetli baǵdarı retinde, ol barlıq kategoriyadaǵı balalar ushın bilim alıwdan teńdey paydalanıw imkaniyatın támiyinlewge qaratılǵan.

Biraq, autizm spektriniń buzılıwı bar balalar bul sistemada eń quramalı kontingent esaplanadı. Sebebi, olarda nevrologiyalıq rawajlanıwdıń ózgesheligi tek bilimdi iyelewde emes, bálki qorshaǵan ortalıqtı qabıllaw hám adamlar menen baylanıs jasawda úlken tosqınlıqlardı payda etedi. Autizm spektriniń buzılıwı bar balalar

sociallıq beyimlesiw procesinde basqa kórsetkishli balalarǵa qaraǵanda ózgeshe fenomenal qıyınshılıqlarǵa dus keledi.

Autizm spektrı buzılǵan balalardıń jámáátke qosılıwına kesent beretuǵın bir neshe fundamental faktorlar bar:

Kommunikaciyalıq deficit: Autizm spektriniń buzılıwı bar balalarda verbal (sózlik) hám noverbal (ım-siltew, kóz qatnası) baylanıs tómen rawajlanǵan. Olar óz mútájliklerin bildiriwde yamasa basqalardıń sóylewin túsiniwde krizislerge ushıraydı. Sociallıq óz ara tásirlerdiń sheklengenligi: Bul balalar qatarları menen "oyın qaǵıydaların" túsiniwde qıynaladı. "Siz" hám "Biz" tùsinikleri arasındaǵı shegaranı ajıratıw olar ushın abstrakt tusinik bolıp qala beredi.

Minez-qulıq stereotipleri: Qaytalanıwshı háreketler hám ózgermeytuǵın kúndelikli tártipke (rutina) baylanıslılıq jańa ortalıqqa (mektepke) beyimlesiwdi qıyınlastıradı.

Sensorlıq qabıllaw ózgeshelikleri hám oqıw ortalıǵı

Autizm spektrı buzılǵan balalardıń sensorlıq seziwsheńligi (giper- yamasa giposeziwsheńlik) inklyuziv ortalıqta ayrıqsha orın iyeleydi. Kópshilik jaǵdaylarda mekteptegi kópshilik, qattı dawıslar, ashıq reńler bala ushın "sensorlıq hújim" (sensory overload) bolıp xızmet etiwi múmkin.

Házirgi kúnde inklyuziv bilimlendiriwdiń sapasına kesent berip atırǵan obyektiv pedagogikalıq tosqınlıqlar ámelde bar:

1.Kásiplik tayarlıq: Kópshilik ulıwma bilim beriw mektepleri pedagoglarınıń defektologiya hám psixologiya tarawındaǵı bilimi jetispeydi. Autizm spektriniń buzılıwı bar bala menen islesiw ushın arnawlı metodikalıq mamanlıq kerek.

2.Baǵdarlamalardıń sáykeslendirilmegenligi:Standart oqıw baǵdarlamaları autizm spektriniń buzılıwı bar balanıń kognitiv hám emociyalıq qábiletine mas kelmeydi.

3.Korrekciyalıq texnologiyalardıń jetispewshiligi:ABA-terapiya (ámeliy minez-qulıq analizi), TEACCH baǵdarlaması sıyaqlı dálillengen metodikalardıń mektep tálimine tolıq engizilmegenligi.Sociallıq beyimlesiwdiń nátiyjeliligin Arttırıw jolları

Sociallıq beyimlesiw .Vizual qollap-quwatlaw (Visual Supports): Autizm spektriniń buzılıwı bar balalar informaciyanı kóz benen jaqsı qabıllaydı. Kúnlik rejeler, háreketler algoritmi hám qaǵıydalardı súwretler (piktogrammalar) arqalı kórsetiw balanıń tınıshlanıwına hám ortalıqtı túsiniwine járdem beredi.

Sociallıq tariyxlar: Balanıń kútilmegen jaǵdaylarda ózin qalay tutıwı kerek ekenligin túsindiriwshi kishi hikayalar islep shıǵıw.

Strukturalastırılǵan oqıw:Hár bir tapsırmanıń baslanıwı, dawam etiw waqtı hám tamamlanıwı anıq kórsetiliwi tiyis.

Multidisciplinar qatnas: Birge islesiw modeli

Inklyuzivlik — bul tek muǵallimniń jumısı emes. Bul jerde túrli taraw qánigeleriniń tez óz-ara birge islesiwi zárúr:

Pedagog hám tyutor: Balanı sabaqqa baǵdarlap barıwı.

Logoped hám defektolog:Kommunikaciyanı rawajlandırıw hám sensorlıq kemshiliklerdi korrekciyalaw.

Psixolog hám ata-analar: Balanıń emociyalıq fonın baqlaw hám mektep penen úy arasındaǵı baylanıstı bekkemlew.

Demek, inklyuziv bilimlendiriw sharayatında autizm spektrı buzılǵan balalardıń tabıslı sociallıq beyimlesiwi — bul kóp qatlamlı process. Bul process pedagogikalıq sistemalı shólkemlestiriw, muǵallimlerdiń inklyuziv mamanlıǵın úzliksiz arttırıw hám hár bir bala ushın jeke sensorlıq-psixologiyalıq qolaylıq jaratıw shárti menen múmkin. Tek ǵana zamanagóy korrekciya usılların hám ilimiy tiykarlanǵan texnologiyalardı (sensorlıq integraciya, vizual struktura) engiziw arqalı biz bul balalardıń jámiyetke tolıqqanlı aǵzası retinde qosılıwına erise alamız.

Ádebiyatlar dizimi:

1. Vigotskiy L.S. Osnovı defektologni. - M.: Prosveshenie, 1983.
2. Lebedinskiy V.V. Narusheniya psixicheskogo razvitiya u detey. - M.: MGU, 2003.
3. Nikolskaya O.S. Autizm: diagnostika i korrekciya. - M.: Vlados, 2005.
4. Kagan V.E. Autizm u detey. - Sankt-Peterburg: Piter, 2010.
5. Pevzner M.S. Deti s otkloneniyami v razvitii. - M.: Akademiya, 2002.
6. Baron-Cohen S. Autism and Asperger Syndrome. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
7. Wing L. The Autistic Spectrum. - London: Constable, 1996.
8. American Psychiatric Association. DSM-5: Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders. - Tashkent, 2013.
9. UNESCO. Inklyuziv tálim qoidalari. - Paris, 2009.
10. Odom S.L. Handbook of Autism and Pervasive Developmental Disorders. - New York: Wiley, 2014

INKLYUZIV KLASTA ESITIW QÁBILETI TÓMEN BALALARDI OQÍTIWDA SANLI TEXNOLOGIYALAR HÁM JASALMA INTELLEKTTEN PAYDALANIW

Abdullaeva Shaxsanem Maratovna
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı.
Mektepke shekemgi tárbiya hám defektologiya kafedrası magistranti

Sanlı texnologiyalar hám jasalma intellekt (IT) integraciyası esitiw qábileti buzılǵan balalardı inklyuziv klasslarda oqıtıw ushın ózgermeli potencialǵa iye bolıp, olar esitiw qábiletindegi teńlesleri menen birge bilim aladı. Bul teziste real waqıtta sóylewdi tekstke aylandırıw (STT), 3D avatarlar arqalı ım-siltew tilin anıqlaw hám awdarmalaw, tekstti sóylewge aylandırıw (ST) sistemaları hám beyimlesiwshi oqıtıw platformaları sıyaqlı IT tiykarında isleytuǵın járdemshi qurallar boyınsha eń sońǵı ádebiyatlar (tiykarınan, 2024-2025-jıllar) sintezlengen. Bul texnologiyalar tiykarǵı tosqınlıqlardı, sonıń ishinde, esitiw imkaniyatı sheklengen, baylanıstaǵı kemshilikler hám sociallıq izolyaciyanı saplastıradı, sonday-aq, ulıwma bilim beriwdi rejelestiriw principleri tiykarında teńlikti rawajlandıradı. Sistemalı kórip shıǵıwlardıń tiykarǵı nátiyjeleri oqıwǵa qatnasıw, túsiniw hám qamtıp alıwdıń jaqsılanǵanın kórsetedi, sonıń menen birge joybarlawǵa qatnasıw, anıqlıq hám oqıtıwshılardı tayarlawdaǵı turaqlı mashqalalardı kórsetedi. Qarap shıǵıwda 40 tan aslam emperikalıq hám teoriyalıq dáreklerge súyenilip, jasalma intellekttiń juwapkershilikli engiziliwi inklyuziv

bilimlendiriwdegi boslıqlardı saplastırıwı múmkin ekenligi, keleshekte balalarǵa baǵdarlanǵan, sociallıq-mádeniy jaqtan itibarlı izertlewler ushın usınıslar berilgen.

Nafas olish mashqlari	To'g'ri diafragmatik nafasni shakllantirish	Qorin bilan nafas olish, nafasni ushlab turish va chiqarish mashqlari	Ovoz hosil bo'lishi uchun barqaror havo oqimi, ovozning chidamliligi
Artikulyatsion gimnastika	Artikulyatsion apparat harakatchanligini oshirish	Til, lab, jag' mushaklari uchun mashqlar	Nutq aniqligi, tovushlarning to'g'ri talaffuzi
Fonatsion mashqlar	Ovoz paychalari funksiyasini tiklash	Ovoz balandligi, kuchi va tembrini boshqarish mashqlari	Ovozning barqarorligi, balandligi va kuchi nazorati
Rezonansni rivojlantirish	Ovozning jarangdorligi va tembrini yaxshilash	Burun va og'iz bo'shlig'i rezonatorlaridan foydalanish	Ovozning boy tembri, jarangdorligi va yoqimliligi
Intonatsion mashqlar	Nutqning emotsional ifodaliligini oshirish	Turli intonatsiyalar bilan matn o'qish, savol-javoblar	Nutqning ohangdorligi, emotsional boyligi, kommunikativ samaradorlik

Pedagogik yordamning samaradorligi ko‘p jihatdan individual yondashuvga bog‘liq. Har bir bolaning ovoz buzilishi turi, uning og‘irlik darajasi, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari va oilaviy muhiti inobatga olinishi shart. Dastlabki diagnostika jarayonida ovoz buzilishining sabablari, mexanizmlari va klinik

koʻrinishlari chuqur oʻrganiladi. Bu ma'lumotlar asosida individual korreksion dastur tuziladi, unda aniq maqsadlar, vazifalar, qoʻllaniladigan metodlar va baholash mezonlari belgilanadi. Dastur doirasida muntazam ravishda mashgʻulotlar oʻtkaziladi, ularning natijalari qayd etib boriladi va zarur boʻlganda dasturga oʻzgartirishlar kiritiladi. Logopedik mashgʻulotlar nafaqat kabinet sharoitida, balki uy sharoitida ham ota-onalar ishtirokida davom ettirilishi muhimdir, bu esa korreksiya jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi va erishilgan natijalarni mustahkamlaydi

Samaradorlikni baholashda bir qator mezonlar va usullar qoʻllaniladi. Bularga akustik tahlil (masalan, ovoz balandligi, chastotasi, intensivligi, tembri kabi parametrlarni oʻlchash), perseptiv baholash (logoped va boshqa mutaxassislar tomonidan ovoz sifatini subyektiv baholash), shuningdek, bolaning oʻzini oʻzi baholashi va ota-onalarning kuzatuvlari kiradi. Akustik tahlil ob'ektiv ma'lumotlarni taqdim etsa, perseptiv baholash ovozning kommunikativ sifatini va tinglovchiga ta'sirini aks ettiradi. Bundan tashqari, maxsus soʻrovnomalar va testlar yordamida bolaning nutqiy faolligi, ijtimoiy muloqotga kirishish darajasi va psixo-emotsional holatidagi oʻzgarishlar baholanadi. Samaradorlikni baholashning asosiy maqsadi qoʻllanilayotgan pedagogik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligini aniqlash va zarur boʻlganda korreksion jarayonga tuzatishlar kiritishdir. Bu jarayon doimiy monitoringni va logopedning professional refleksiyasini talab etadi

Xulosa qilib aytganda, ovoz buzilishlarida pedagogik yordamning samaradorligi kompleks va individual yondashuvga asoslangan holda yuqori natijalar beradi. Turli metod va texnikalarni uygʻunlashtirish orqali nafaqat ovoz funksiyasi tiklanadi, balki bolaning nutq rivoji, ijtimoiy moslashuvi va psixologik holati ham yaxshilanadi. Shu bois, logopedik ishlar tizimli, ilmiy asoslangan va uzluksiz olib borilishi zarur. Samaradorlikni oshirishda diagnostika aniqligi, ota-onalar bilan hamkorlik va muntazam monitoring muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Морозов В.П. Основы голосовой терапии. - Санкт-Петербург: Специальная литература. 2018.

2. Titze I. Principles of Voice Production. - Iowa City: National Center for Voice and Speech. 2020.

3. Stemple J.C. Voice Therapy: Clinical Case Studies. - San Diego: Plural Publishing. 2020.

4. Поварова И.А. - Современные методы коррекции голосовых нарушений у детей. - Москва: Академия. 2020.

5. Лаврова Е.В., Таптапова С.Л. - Физиологическая коррекция голосовых расстройств у детей. Санкт-Петербург: Наука. 2019.

6. Игнатьева С.А., Калягин В.А. Психологические аспекты голосовых нарушений. Москва: Юрайт. 2020.

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALARGA ART-TERAPIYANI SAMARALI QO‘LLASH

Jumabaeva Saltanat O’serbay qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Magistratura bo‘limi Maxsus pedagogika (logopediya) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda inklyuziv ta’lim sharoitida duduqlanuvchi bolalarning nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishda art-terapiya, xususan, izoterapiya (rasm chizish) metodining samaradorligi tadqiq etilgan. Maqolada rasm chizish mashg‘ulotlarining boladagi psixofiziologik zo‘riqishni kamaytirish, muloqotga bo‘lgan qo‘rquvni bartaraf etish va nutqiy ravonlikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan. Olingan natijalar logoped va maxsus pedagoglar uchun amaliy tavsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, duduqlanish, art-terapiya, izoterapiya, nutqiy korreksiya, logofobiya.

Аннотация

В данной тезисной работе исследуется эффективность методов арт-терапии, в частности изотерапии (рисования), в процессе устранения речевых дефектов у детей с заиканием в условиях инклюзивного образования. Обосновывается роль занятий рисованием в снижении психофизиологического напряжения, преодолении страха речи (логофобии) и обеспечении плавности речи. Результаты исследования могут быть использованы логопедами и специальными педагогами в практической деятельности.

Ключевые слова: инклюзивное образование, заикание, арт-терапия, изотерапия, речевая коррекция, логофобия.

Abstract

This thesis examines the effectiveness of art therapy, specifically isotherapy (drawing), in addressing speech defects among children who stutter within inclusive education settings. The paper scientifically substantiates the role of drawing activities in reducing psychophysiological tension, overcoming the fear of communication (logophobia), and promoting speech fluency. The findings serve as practical recommendations for speech therapists and special educators.

Keywords: inclusive education, stuttering, art therapy, isotherapy, speech correction, logophobia.

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan nutqida nuqsoni bor, xususan, duduqlanuvchi bolalar ko‘pincha muloqotga kirishishda qiyinchiliklar, ijtimoiy fobiya va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik hissini tuyadilar. An’anaviy logopedik usullar har doim ham bolaning hissiy-irodaviy holatiga ta’sir qila olmaydi. Shu sababli, duduqlanuvchi bolalarning nutqiy va psixologik reabilitatsiyasida art-terapiya (ranglar bilan ishlash, loy terapiyasi, qum terapiyasi va h.k.) metodlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Duduqlanishning psixofiziologik tabiatini I.A.Sikorskiy, V.M.Bexterev kabi olimlar tadqiq etgan bo‘lsalar, inklyuziv ta’limda art-terapiyaning o‘rni L.D.Lebedeva va M.V.Kiselyova kabi mutaxassislar tomonidan tahlil qilingan. Biroq, aynan inklyuziv muhitda duduqlanuvchi bolalarning adaptatsiyasi uchun art-terapevtik usullarni kompleks qo‘llash metodikasi hali to‘liq shakllanmagan.

Tadqiqotda inklyuziv sharoitda duduqlanish darajasiga ko‘ra art-terapiyaning individual va guruhli shakllarini uyg‘unlashtirish algoritmi ishlab chiqilgan. Art-terapiya nafaqat nutqni ravonlashtirish vositasi, balki bolaning ichki qo‘rquvlarini bartaraf etuvchi psixokorreksion omil sifatida talqin etilgan.

Duduqlanish — bu murakkab nutq nuqsoni bo‘lib, u nafaqat nutq apparatidagi spazmlar, balki markaziy asab tizimidagi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining nomutanosibligi bilan bog‘liqdir. Inklyuziv ta’lim sharoitida bunday bolalar tengdoshlari orasida o‘zini namoyon qilishda kuchli hayajon va nutqiy to‘siqlarga duch keladilar. Rasm chizish (izoterapiya) jarayoni bolaning diqqat markazini nutqiy qiyinchilikdan ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi. Bu jarayonda miyaning o‘ng yarim shari faollashib, hissiy yengillik yuzaga keladi, natijada nutq markazlaridagi patologik qo‘zg‘alishlar pasayadi. Rasm chizish davomida bola o‘zining ichki qo‘rquv va xavotirlarini qog‘ozda aks ettirish orqali psixologik yukdan xalos bo‘ladi, bu esa nutqiy ravonlik uchun zarur bo‘lgan xotirjamlikni ta’minlaydi.

Tadqiqotimiz doirasida duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashda bir qancha samarali izoterapevtik usullar qo‘llanildi. Jumladan, "nam qog‘ozga rasm chizish" texnikasi boladagi hissiy qisilishlarni (bloklarni) ramziy ma’noda yumshatishga yordam beradi. Bo‘yoqlarning qog‘oz ustida erkin oqishi va bir-biriga qo‘shilib ketishi bolada jarayonni nazorat qilish emas, balki undan zavqlanish hissini uyg‘otadi. Shuningdek, barmoqlar bilan rasm chizish metodi mayda motorikani to‘g‘ridan-to‘g‘ri rag‘batlantirib, miya po‘stlog‘idagi nutq sohalarining faoliyatini yaxshilaydi. Inklyuziv guruhlarda jamoaviy rasm chizish mashg‘ulotlari esa bolaning ijtimoiy adaptatsiyasini tezlashtiradi: bola o‘z ishini tengdoshlariga namoyish etish jarayonida ijobiy emotsional holatda bo‘lganligi sababli, uning nutqidagi duduqlanish epizodlari sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi.

Olib borilgan amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, muntazam ravishda o‘tkazilgan izoterapevtik mashg‘ulotlar duduqlanuvchi bolalarning nutqiy tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Rasm chizish jarayonida va undan keyingi ijodiy ishni sharhlash bosqichida bolalarning nutqiy nafasi barqarorlashadi va so‘zlarni cho‘zib, ravon aytish ko‘nikmasi shakllanadi. Tajriba davomida aniqlandiki, rasm chizish orqali erishilgan psixofiziologik relaksatsiya (bo‘shashish) duduqlanishning shakllarini yumshatishda an’anaviy logopedik mashqlarga nisbatan yuqoriroq samaradorlikni namoyon etadi. Bu esa inklyuziv ta’limda izoterapiyani nafaqat yordamchi, balki asosiy korreksion vositalardan biri sifatida qo‘llash zarurligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4860-son qarori. Toshkent, 2020-yil 13-oktabr.

2. Ayupova M.Y. Logopediya. (Darslik). – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 432 b.
3. Lebedeva L.D. Praktika art-terapii: podxodi, diagnostika, sistema zanyatiy. – SPb.: Rech, 2003. – 256 s.
4. Muminova L.R. Logopediya (Darslik). – Toshkent: "Noshir", 2019.
5. Kiselyova M.V. Art-terapiya v rabote s detmi: Rukovodstvo dlya detskix psixologov, pedagogov, vrachey i spetsialistov, rabotayushix s detmi. – SPb.: Rech, 2008. – 160 s.
6. Nurkeldiyeva D.A. Nutq nuqsonlari bor bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2015.

INKLYUZIV BILIMLENDIRIW SHARAYATINDA DIZARTRIYALI OQIWSHILARǴA ERTEK TERAPIYASIN NÁTIYJELI QOLLAW

Dawletbaeva Muxabbat Polatovna
Ájiniyaz atındaǵi Nókis mámleketlik pedagogıkalıq instituti Magistratura bólimi Arnawlı pedagogıka (logopediya) qanigeligi magistrantı

Annotaciya

Bul teziste inklyuziv bilimlendiriw sharayatında dizartriya kemshiligi bar oqıwshılardıń nutqın korrekciyalawda ertek terapiyasınıń áhmiyeti talqılanadı. Dizartrıyalı oqıwshılarda ushırasatuǵın psixofiziologik mashqalalardı ertekler arqalı dúzetiw, olardıń baylanısqa bolǵan qorqınıshın jeńiw hám sóylew motorikasın rawajlandırıw jolları kórsetilgen.

Tiykarǵı sózler: inklyuziv bilimlendiriw, dizartriya, ertek terapiyası, korrektsiya, psixolingvistika, nutq rawajlanıwı.

Аннотация

В данном тезисе анализируется значение сказочной терапии в коррекции речи учащихся с дизартрией в условиях инклюзивного образования. Показаны способы исправления психофизиологических проблем, встречающихся у учащихся с дизартрией, посредством сказок, преодоления их страха перед связью и развития речевой моторики.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дизартрия, сказкотерапия, коррекция, психолингвистика, развитие речи.

Abstract

This thesis analyzes the significance of fairy tale therapy in correcting the speech of dysarthric students within inclusive education. Methods for correcting psychophysiological problems encountered in dysarthria students through fairy tales, overcoming their fear of communication, and developing speech motor skills have been demonstrated.

Keywords: inclusive education, dysarthria, fairy tale therapy, correction, psycholinguistics, speech development.

Inklyuziv bilimlendiriw processinde hár bir balanıń jeke imkaniyatların esapqa alıw tiykarǵı wazıypa esaplanadı. Dizartriya kemshiligi bar oqıwshılarda sóylew apparatınıń paralıshı yamasa háreketiniń sheklengenligi sebepli sóylew processi

qıyınlasadı, bul bolsa olarda ózine isenimsizlik hám sociallıq izolyatsiyanı keltirip shıǵaradı. Ertek terapiyası bolsa balanıń qıyalı hám emotsiyalarına tásir etiw arqalı, onı qısıp turǵan psixologik tosıqlardı joq etiwge járdem beretuǵın eń nátiyjeli metodlardan biri.

Dizartriya-bul nutq apparatı bulshıq etler inervacıyası buzılıwı nátiyjesinde payda bolatuǵın quramalı nuqsan bolıp, ol tek ǵana sóylewdi emes, al dem alıw, dawıs hám nutq ritminiń buzılıwın da óz ishine aladı. Inklyuziv bilimlendiriw sharayatında bunday oqıwshılar ózleriniń nutqıy kemshilikleri sebepli kóbinese baylanısqa kirisiwden qashadı, bul bolsa olarda "nutqiy negativizm" hám logofobiyanıń (sóylewden qorqıw) qáliplesiwine alıp keledi. Ertek terapiyası (skazkoterapiya) bunday jaǵdayda balanıń ishki dúnyasına tásir etiwshi hám onı psixofiziologik jaqtan bosastırıwshı tiykarǵı metod retinde qaraladı. Ertekler arqalı oqıwshı ózindegi tosıqlardı fantastıkalıq qaharmanlar obrazı arqalı jeńip ótiw imkaniyatına iye boladı.

Dizartrıyalı oqıwshılar menen islesiwde ertek terapiyası bir neshe jóneliste qollanıladı. Birinshiden, bul — erteklerdi passiv tıńlaw emes, al aktiv dramatizatsiya (sahnalastırıw) procesi. Ertek qaharmanlarınıń háreketlerin hám sóylewin qaytalaw barısında bala sezdirmesten artikulyacıyalıq shınıǵıwlardı orınlaydı. Mısalı, qaharmanlardıń túrli dawıslarda sóylewi (pás yamasa bálent, tez yamasa áste) dizartrıyalı balalarda dem alıwdı hám dawıstı basqarıw qábiletin rawajlandıradı. Ekinshiden, ertek terapiyası barısında qollanılatuǵın "ertek-oyın" metodı balanıń mayda motorikasın (qol háreketlerin) rawajlandıradı, bul bolsa óz gezeginde bas miy qabıǵındaǵı sóylew oraylarınıń jumısına unamlı tásir etedi. Oqıwshı ertek qaharmanların kórsetip yamasa olardıń súwretin sızıp atırǵanda, onıń nutqıy sharshawı tómenleydi hám baylanısqa bolǵan qızıǵıwshılıǵı artadı.

Inklyuziv sharayatdaǵı oqıwshılardı gúzetiwler sonı kórsetedi, ertek terapiyası elementlerin sabaq procesine kiritiw dizartrıyalı oqıwshılardıń sociallıq aktivligin sezilerli dárejede asıradı. Ertek terapiyası dástúriy logopedik metodlardan óziniń "jumsaqlıǵı" menen parqlanadı: bala bul jerde nawqas retinde emes, bálki aktiv dóretiwshi retinde qatnasadı. Nátiyjede, oqıwshılardıń sóz baylıǵı rawajlanadı, artikulyacıyalıq apparattıń aktivlıgı artadı hám eń tiykarǵısı, sóylewge bolǵan qorqınısh sezimi joǵaladı. Ámeliy tájiriybelerdiń kórsetiwinshe, erteklер arqalı qurılǵan korrekcion shınıǵıwlar dizartriyalı oqıwshılarda sóylew ritmin 25-30% ǵa jaqsılaw imkaniyatın beredi. Bul bolsa inklyuziv bilimlendiriwde ertek terapiyasın nátiyjeli metodikalıq qural retinde bahalawǵa tiykar boladı.

Ertek terapiyası dizartrıyalı oqıwshılar menen islesiwde tek ǵana kewil ashar oyın emes, bálki kúshli korrekcion qural bolıp tabıladı. Inklyuziv bilimlendiriw sharayatında bul metod oqıwshınıń emotsional jaǵdayın turaqlastıradı hám nutqıy qabiletlerin rawajlandırıwǵa imkaniyat beredi. Ertekler arqalı qurılǵan korrekcion jumıslar balanıń jamiyetke integratsiyalasıwın tezlestiredi.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Muminova L.R. Logopediya. – Tashkent, 2019.
2. Zinkevich-Yevstigneyeva T.D. Praktikum po skazkoterapii. SPb.: Rech, 2000.
3. Ayupova M.Y. Logopediya. – Tashkent: "O'zbekiston", 2011.
4. Nurkeldiyeva D.A. Nutq nuqsonlari bor bolalar psixologiyasi. – Tashkent, 2015.

MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQI TO‘LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI ART TERAPIYA, ÓYIN TERAPIYASI VA ERTAK TERAPIYASI YORDAMIDA MAKTABGA NUTQIY JIHATDAN TAYYORLASH

Sarsenbaeva Sayora Alauatdin qizi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Maxsus pedagogika logopediya tàlim yónalishi"1-kurs magistratura talabasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmasligi zamonaviy pedagogika va defektologiyadagi dolzarb muammolardan biridir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bolalar bog‘chalarida nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar ulushi 20-30% ni tashkil etadi. An’anaviy logopedik usullar (artikulyatsiya mashqlari, fonetik tahlil) samarali bo‘lsa-da, bolaning hoqish-istaklari past bo‘lgan hollarda ular yetarli emas. Bu yerda art-terapiya,ertak terapiyasiva o‘yin terapiyasi innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu terapiyalar bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi, chunki maktabgacha davrda o‘yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. Art-terapiya bolaga so‘zsiz o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish imkonini beradi,Ertak va o‘yin terapiyasi esa kommunikativ va nutqiy ko‘nikmalarni tabiiy sharoitda shakllantiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, ertak terapiyasi nutqi kechikkan bolalarda lug‘at boyligini oshiradi, sodda gaplarni tuzishni, voqealarni ketma-ket aytib berishni yaxshilaydi. Ayniqsa, oilada yoki bog‘chada har kuni ertak o‘qish yoki tinglash juda samarali. Bolaning nutqi sekinroq rivojlansa ham, ertak orqali ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi — u ko‘proq so‘z ishlatadi, ko‘z bilan aloqa qiladi, imo-ishoralar bilan birga gapiradi.

Masalan ertak terapiya misolida ko’rib chiqamiz. Bundan oldin ertak nima ekanligiga to’xtalib o’tamiz. Ertak - bu xayoliy harakat, lekin u atrofidagi hayot haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bu bolaga real vaziyatlarni to'g'ri baholashga va muayyan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ertaklar ko'p qirrali material bo'lib, undan bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish foydalansa bo’ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ertak terapiyasi bolalarning psixologik muammolarini tuzatishning juda samarali usuli hisoblanadi. Ertakterapiya bu-psixologik usul bo’lib, bola bilan birgalikda olib boriladi. Ertak yordamida bolaning shaxs emotsional muammolarini hal qilishda va bolani axloqiy reaksiyalarini korreksiyalashda foydalaniladi. Ertakterapiya kontseptsiyasining manbalari L. S. Vigotskiy, D. B. Elkonin asarlari hisoblanadi. Ertakterapiyaning tarixi amaliy psixologiya maktabi sifatida o'z mazmunida san'at, fantaziya elementlarini va inson bilan o'zaro munosabatlarning madaniy kontekstining o'ziga xos xususiyatlarini XX asrning 90-yillaridan boshladi. Biroq, agar biz buni aniq shaxsga faol ta'sir qilish usuli deb hisoblasak, unda uning tarixi ancha qadimiy ildizlarga ega bo'ladi.

Ertakterapiyada ishlatiladigan ertak turlari:

Didaktik ertak - bolalarga yangi tushunchalar (uy, tabiat, oila, jamiyatdagi xatti-harakatlar qoidalari va boshqalar) haqida gapirib berish uchun yaratilgan. Bunday ertaklardagi vazifalar bolaga olingan bilimlarni amalda darhol qo'llash imkoniyatini beradi. Didaktik ertakni har qanday qulay shaklda (hikoya, multfilm yoki shunchaki

o'yin) aytib berish mumkin. Bu bolada qiziqish uyg'otishi va muntazam mashg'ulotni jonlantirishi mumkin bo'lgan didaktik ertak.

Psixologik ertak- bolaning shaxsiy rivojlanishini yo'naltirish va boyitish uchun mo'ljallangan.

Badiiy ertak - bolalarni insoniyatning estetik tamoyillari, an'analari bilan tanishtiradi.

Diagnostik ertak - bolaning xarakterini aniqlashga yordam beradi va uning dunyoga munosabatini ochib beradi.

Meditatsion ertak - bu ertakning o'ziga xos turi bo'lib, u tinglovchining ongsizligi bilan muloqot orqali uning tasavvurida jonli yorqin tasvirlarni yaratishga urg'u beradi.

Giperaktiv bolalar uchun ertakterapiya. Diqqat tarqoq giperaktivlik buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlashda ko'pincha ertakterapiya usuli qo'llaniladi, bu haddan tashqari faollikni kamaytiradi va bolaning hissiy holatini normallashtiradi.

Ertak orqali giperaktiv bola o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rganadi, yanada xotirjam bo'ladi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda ertak terapiyasi juda foydali va samarali usul hisoblanadi. Bu bolalar (masalan, 3–7 yoshdagi nutq kechikkan, so‘z boyligi kam yoki gap tuzish qiyin bo‘lgan bolalar) uchun ertak tinglash, aytish va o‘ynash orqali nutqini o‘sdirishga yordam beradi.

Ertak terapiyasi — bu bolaga qiziqarli hikoya (ertak) orqali nutqni rivojlantirish va his-tuyg‘ularini yaxshilash usuli. Bola ertakni tinglaydi, keyin o‘zi gapirishga harakat qiladi, savollariga javob beradi yoki ertakni o‘yin qilib o‘ynaydi.

Gap tuzishni o‘rganish — Ertakda voqealar ketma-ketligi bor: boshlanishi, o‘rtasi, oxiri. Bola ertakni qayta aytib berishga urinadi — bu sodda gaplardan murakkab gaplarga o‘tishga yordam beradi.

Tushunish va eshitishni yaxshilash — Ertak tinglaganda bola savollarga javob beradi (“Qahramon nima qildi? Nega shunday bo‘ldi?”). Bu eshitish va fikrlashni kuchaytiradi.

Muloqot va ishonchni oshirish — Bola ertak qahramoni bilan o‘zini solishtiradi, o‘z his-tuyg‘ularini aytadi. Qo‘rquv, uyatchanlik kamayadi, gapirishga jur’at qiladi.

Tasavvur va xotirani kuchaytirish — Ertakdagi rasmlar, qahramonlar bolaning miyasini faollashtiradi. Keyin bola o‘zi hikoya qilishni o‘rganadi.

Nutq rivojlanishi buzilishi bolaning psixo-fiziologik rivojlanishidagi murakkab jarayon bo‘lib, nozik motorika, intergemisferik bog‘lanishlar, fonematik eshitish bilan chambarchas bog‘liq. L.S. Vygotskiy va A.N. Leontyevning nazariyalariga ko‘ra, o‘yin va ijodiy faoliyat nutq rivojlanishining asosiy mexanizmlarini faollashtiradi.

Korreksion-logopedik mashg‘ulotlarda art va o‘yin terapiyasini integratsiya qilish quyidagicha amalga oshiriladi:Mashg‘ulot strukturasida: Kirish – o‘yin-motivatsiya (5-7 daqiqa), asosiy qism – izoterapiya yoki rol o‘ynash bilan nutqiy topshiriqlar (15-20 daqiqa), yakun – muhokama va tasvirlash (5 daqiqa).

Misollar: “Ertak chizish” – bolalar ertakni tinglab, rasmini chizadi va keyin hikoya qiladi. “Musiqali harakatlar” – musiqa o‘zgarganda harakat o‘zgartirish va uni tasvirlab berish.

Rossiya va xorij tadqiqotlari (L.S. Avanesova, K.O. Polyakova va boshqalar) shuni tasdiqlaydiki, art-terapiya va o‘yin terapiyasi qo‘llanilganda nutq rivojlanishi 30-50% ga tezlashtiriladi. O‘zbekiston tajribasida ham san’at orqali davolash bolalar xulq-

atvorini ijobiy o‘zgartiradi.Bu usullar an’anaviy logopediyani to‘ldirib, kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Art-terapiya – san’at vositalari orqali psixokorrektsiya usuli bo‘lib, bolaning ichki dunyosini ifoda etishga yordam beradi. O‘yin terapiyasi esa psixoterapiyaning bir turi sifatida bolaning tabiiy o‘yin orqali muammolarini hal qilishiga asoslanadi. Ikkala usul ham an’anaviy logopediya bilan integratsiyalashganda sinergetik ta’sir ko‘rsatadi: Nutqiy buzilishlarni bartaraf etish bilan birga shaxsiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Art-terapiya nutq rivojlanmagan bolalarda so‘zsiz ifoda vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. U nozik motorikani rivojlantiradi, artikulyatsiya apparatini faollashtiradi, nutq nafasini tartibga soladi va bog‘liq nutqni shakllantiradi. Asosiy yo‘nalishlar:

Izoterapiya (rasm chizish): Klyaksografiya, barmoq bo‘yoqlari, manna yoki qum ustida chizish, barg bosma usullari. Bu usullar ko‘z-qo‘l muvofiqlashtirishini oshiradi, tasavvur va ijodni rivojlantiradi. Masalan, ertak qahramonlarini chizish orqali bolalar ular haqida hikoya qilishga undaladi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, art-terapiya emotsional bloklarni olib tashlaydi, bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va logopedik mashg‘ulotlarda ishtirokni 2-3 baravar kuchaytiradi.

O‘yin terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiiy va eng samarali usuldir. U kommunikativ ko‘nikmalarni, bog‘liq nutqni, tasavvur va ijtimoiy normalarni rivojlantiradi. Rol o‘ynash o‘yinlari (bolalar asosiy qahramon, logoped yordamchi) orqali bolalar vaziyatlarni tasvirlab berishga, savollar berishga va javob berishga o‘rganadi.

Qum o‘yinlari nozik motorikani va emotsional barqarorlikni ta’minlaydi. O‘yin terapiyasi psixoterapevtik xususiyatga ega: bolaga xavfsiz muhit yaratib, ichki ziddiyatlarni hal qiladi va nutqiy faollikni oshiradi. O‘zbekiston maktabgacha ta’limida o‘yin milliy va folklor o‘yinchoqlar bilan boyitilsa, vatanparvarlik va estetik tarbiya ham kuchayadi.

Xlosa Art-terapiya, o‘yin terapiyasi va ertak terapiyasi — bu bolaning nutqini rivojlantirishning eng mehribon va samarali yo‘llaridan biri. Ular bolani nafaqat so‘z va gaplarga o‘rgatadi, balki uni baxtli, ishonchli va ijodiy shaxs qilib shakllantiradi. Maktabga tayyorgarlik — bu faqat harflar va sonlarni emas, balki dunyo bilan muloqot qilishni o‘rganishdir. To‘g‘ri tanlangan ijodiy usullar bilan har bir bola muvaffaqiyatga erisha oladi.

Foydalanilgan ádabiyotlar

1.Djo’rayeva, S. (2022). BOLALARDA NUTQ TEMPINING BUZILISHI VA UNI BARTARAF ETISHNING KORREKSION USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4950

2. Tkach R. M. T-48 Bolalar muammolari uchun ertakterapiya . - SanktPeterburg: nutq; M .: Sfera. 2008. - 118 b.

3. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1)

4.T. A. Tkachenko Логопедические игры и упражнения 2003

5.Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. Ozbekiston Respublikasi Oliy va orta- maxsus ta’lim muassasalari uchun darslik. T.:, “Istiqlol”, 2006 y.

6. Dergunskaya V.A., Koshkina A.A., O`yinlar - maktabgacha tarbiyachilar bilan tajriba: O‘quvuslubiy yordam - Moskva, Ustoz ta'limi markazi, 2013 - 64 p.

SÓYLEW TILI KEMSHILIGINE IYE BOLǴAN BALALARDA MUZIKALIQ RITMIKANIŃ AHMIYETLILIGI

Sultanova Jasmina Kuatbay
Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Logopediya bağdarı 2-kurs studenti

Salamatlastiriwshi waziypalar sheshimi sóylewde patologiyasi bolg`an balalardin` fizikaliq xalatindagi so`ylew tili buziliwiniń júzege keliwi, tásir yetken faktorlar yamasa ol menen baylanisli ráwishte shuqirlawshi esaplanatuǵin nuqsanlar yamasa oqiwlarga sebeshi boladi. Logaritmik shiniǵiwlarda óz aldina itibar rinolalliyaniń túrli formalari ( awir rinolaliya, simptokompleksi, bolg`an balalar) dizantriya, alaliya tutiqlaniw funktsiyonal dislaliyasi bar balalardi salamatlastiriwǵa qaratiladi. Misali rinolaliyasi bolǵan balalarda diafragmal dem aliwiniń rawajlandiriw, diafragma muskilleri hám qabirǵalar ara muskillerdi bekkemlew kerek. Bul balalarda dem aliw hám dawis shiniǵiwlarin jumsaq tańlaydi bekkemleydi. Bul awiz bosliǵinda operatsiya otkiziw ushin jaǵimli sharayat jaratadi. Jalliqlaniw keseliktiń profilaktikasinda ózine masliqti jaratadi. Dizantiriyasi bolǵan balalarda logortimik tásir dozalanǵan halda ámelge asiriladi. Shipaker hám logoped dizanteriyanin mexanizmi hám simptomatikadan kelip shiǵip hám bir óz aldina qaysi bulshiq etler toparin qanday kólemde qanday fizikaliq júkleme menen rawajlaniwin beligileydi. Tálimiy waziypalar balanin jetkeshi iskerligi hám tárbiya dástúri balalar baqshasi yamasa arnawli sóylew jerlerde balaniń jetkeshi oqitiwin esapqa alǵan halda qayt qilinadi. Bul máselelerin sheshiw ushin bay material soylewin rawajlandiriw átirraptaǵi tábiyat penen tanistirw oyinli iskerlik boyinsha dástúrlerdiń bólimlerinde belgili boladi. Estetik waziypalar hám mektepkeshe jastaǵi balalardi tárbiyalaw dástúrleri tuwrali aniqlanadi. Olar balaniń jasinan kelip shiǵip differensiyalandi. Sebebi muzikani ańlaw hám túsiniw 3 jasta 7 jasinan kóre basqasharaq. Shiniǵiwlar ushin jasqa múnásip qosiqli hám logoritmik materiallar tańlandi. Sol halatta estetik qasiyetinin` formalaniwi yamasa kelesindegi boyinsha tek ǵana logopedke emes al bálkim oniń bilimine ishki dúnyasina júdá jaqin, muzika oniń isenim payda etedi. Muzikaliq temadagi sa`wbetler muzikaliq temadagi ashiq ilmiy kórinisler joqarǵi pukarashiliq insanparwaliq watanparwarliq ruxi menen parqlaniwshi túrli kosiqshilarǵa taqlit qiliwi estetik kaǵuydalarin júzege keliwine járdem beredi. Tarbiyaliq waziypani sheshimin sheshiw óz-ara járdem tapsiriqlardi bejeriwge múnesbet mustaqil tuyǵilarin rawajlandiriwǵa jónelgen. Oqiwshilar óspirimler hám úlkenler menen tárbiyali waziypalar diferensiyalanǵan qolda sheshiledi. Oqiwshilarǵa tiykarinan tárbiya xat dástúrleri tiykarinda logopedik sabaqliqlar tiykarinda ámelge asadi. Óspirimler hám úlkenlerge qaraganda tárbiya xarakter

tálim intelektual imkaniyatlar qizigiwlarinlarin esapqa alǵan halda tiykarlanadi. Logoritmik shinigiwlariniń quriliwi hám mazmuni tekǵana olar kontigent shuǵillaniwshilarǵa jóneltirgenlerge ámelge erisiwi múmkin. Úlkenler óspirimler hám oqiwshilar menen logoritmik shiniǵiwlarda korrektsion waziypalar olardiń soylew buziliwina ózine hám atiraptaǵilarina shaxs sipatinda qarasina ońli múnásebet dárejesinde sheshiledi. Shuǵillaniwshilar olar menen alip barilatuǵin olardiń óz nutqlari hám óz iskerliginde ol yamasa bul dárejede matorika menen óz ózin basqariw ústinde jeke jumis alip barip qoyatuǵin shiniǵiwlardiń zárúrligi hám paydaliligi túsiniledi. Nuqsanga qanshaliq ańli múnesebette bolinsa, oni sonshelik toliq pitiriwge umtiladi. Iskerliginiń óz-ózin iqtiyarli baskariw dárejesi hám joqari boladi. Tabiyiykiy pedagog (logoped,retmist) xam psixoterapivt shuǵillaniwishilarǵa jeke jumisti uyimlastiriwda ásirese óspirim hám oqiwshilarga járdem beredi.

Jetiskenlik xámde áwmetsizliktiń sebeblerin analiz qiladi, nutqiy xaraketleniwsheń kónlikpelerin jaqsi natiyjeler menen iyelewlerine adamlar menen qarim qatnasta onnan paydalaniwga isenimin sindiradi.

Kórsetilgen jastaǵi adamlar menen islesiwde korrektsion waziypalar sheshimi bir qansha nutqiy buziliwlarin jaylastiriw ketpe-ketligin ańli aniqlawin hám kózde tutadi. Misali tutiqlaniwshi balalarda mektepkeshe jasta dawis aytiliwinin buziliwi nutq ritmi hám tempin normallastiriw menen parallel, bazi bir qollarda bolsa aldiniraraq, ǵarezsiz so`ylewdiń rawanligi, astinda jumis baslawdan aldin hám kórip shiǵilsa, úlken jastaǵı tutliǵip soylewshilerdiń so`ylew buziliwinda birinshi na`wbette neni ámelge kerekligin tańlawga tuwri keledi: tutliǵiw yamasa awiz dawisi bunda kóplew buziliwǵa qanshelik múnesebet bar ekenligi esapqa aladi.

Paydalanıǵan ádebiyatlar

1.Abdullaeva G. T. Logopedik diagnostika asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.

2.Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: Iste’dod, 2007.

3.Maxmudov N.M. "Nutq buzilishi diagnostikasi va korreksiyasi", Toshkent, 2017

4.Raxmatullaeva G.Z., Ayupova M.G. Logopediya darslari uchun amaliy qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2020.

ART-TERAPIYA ASOSIDA DUDUQLANISHNI KORREKSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Matsafoyeva Tozagul Maxsud qizi Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagokika instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada duduqlanish muammosini bartaraf etishda art-terapiyaning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Nutq buzilishlari, xususan duduqlanishning kelib chiqish omillari psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Art-terapiya usullarining (rasm chizish, musiqiy faoliyat, dramatizatsiya va boshqa ijodiy yondashuvlar) nutq erkinligini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, mazkur yondashuvning bolalar va o‘smirlar bilan ishlashdagi samaradorligi, ularning emotsional holatini barqarorlashtirish va kommunikativ ko‘nikmalarini

rivojlantirishga ta’siri amaliy misollar orqali ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari art-terapiya duduqlanishni korreksiya qilishda samarali, xavfsiz va innovatsion usullardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so’zlar: art-terapiya, duduqlanish, nutq buzilishlari, korreksiya, psixologik yordam, emotsional holat, kommunikativ ko‘nikmalar, ijodiy faoliyat, logopediya, reabilitatsiya**.**

Annotation:

This article explores the theoretical and practical foundations of using art therapy in the correction of stuttering. The causes of speech disorders, particularly stuttering, are analyzed from psychological and social perspectives. The role of art therapy methods—such as drawing, music activities, dramatization, and other creative approaches—in improving speech fluency is scientifically substantiated. Additionally, the effectiveness of this approach in working with children and adolescents, its impact on stabilizing emotional states, and enhancing communicative skills are demonstrated through practical examples. The results of the study confirm that art therapy is an effective, safe, and innovative method for correcting stuttering.

Keywords: art therapy, stuttering, speech disorders, correction, psychological support, emotional state, communicative skills, creative activity, speech therapy, rehabilitation.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы применения арт-терапии в коррекции заикания. Причины речевых нарушений, в частности заикания, анализируются с психологической и социальной точек зрения. Обосновывается роль методов арт-терапии (рисование, музыкальная деятельность, драматизация и другие творческие подходы) в развитии плавности речи. Также на практических примерах показана эффективность данного подхода в работе с детьми и подростками, его влияние на стабилизацию эмоционального состояния и развитие коммуникативных навыков. Результаты исследования подтверждают, что арт-терапия является эффективным, безопасным и инновационным методом коррекции заикания.nicative skills, creative activity, speech therapy, rehabilitation.

Ключевые слова: арт-терапия, заикание, речевые нарушения, коррекция, психологическая помощь, эмоциональное состояние, коммуникативные навыки, творческая деятельность, логопедия, реабилитация.

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda inson nutqi va kommunikativ kompetensiyasining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Nutq — shaxsning ijtimoiylashuvi, fikr almashinuvi va o‘zini ifoda etishining asosiy vositasi hisoblanadi. Shu bois nutqdagi har qanday buzilish, xususan duduqlanish, nafaqat lingvistik muammo, balki psixologik va ijtimoiy muammo sifatida ham muhim o‘rin tutadi.Duduqlanish ko‘pincha bolalik davrida yuzaga kelib, shaxsning emotsional holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va jamiyat bilan muloqotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy logopedik yondashuvlar nutq apparatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa-da, duduqlanishning psixologik omillarini bartaraf etishda har doim ham yetarli natija bermaydi. Shu nuqtai nazardan, kompleks va integrativ yondashuvlarga ehtiyoj ortib

bormoqda.So‘nggi yillarda art-terapiya duduqlanishni korreksiya qilishda samarali usullardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv orqali shaxsning ichki kechinmalari, hissiy holati va ijodiy salohiyati ochib beriladi, bu esa nutqdagi erkinlikni oshirishga xizmat qiladi. Art-terapiya nafaqat nutqni rivojlantirish, balki shaxsning psixologik muvozanatini tiklash, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.Mazkur maqolaning maqsadi — art-terapiya asosida duduqlanishni korreksiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda uning samaradorligini ochib berishdan iborat.

Art-terapiya asosida duduqlanishni (logonevroz) korreksiya qilish — bu nutq nuqsonlarini davolashda ijodiy faoliyat (rasm chizish, loy bilan ishlash, ertak terapiyasi va boshqalar) orqali bolalar yoki kattalarning ruhiy-emotsional holatini barqarorlashtirishga qaratilgan samarali yondashuvdir. Bu usul duduqlanishning nafaqat tashqi ko'rinishini, balki uning zamirida yotgan psixologik sabablar — qo'rquv, tashvish va ishonchsizlikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Quyida art-terapiyaning duduqlanishni korreksiya qilishdagi nazariy va amaliy asoslari batafsil keltirilgan:

1. Nazariy Asoslari:Psixo-emotsional holatni tuzatish: Duduqlanish ko'pincha nutq qo'rquvi (logofobiya) va yuqori tashvish bilan bog'liq. Art-terapiya bu ichki kuchlanishni kamaytirish va hissiyotlarni boshqarishga yordam beradi.[i] Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish: San'at orqali o'zini ifodalash orqali inson muloqotdagi to'siqlarni yengib o'tadi, bu esa nutqning ravonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ong osti bilan ishlash: Art-terapiya inson ongi va ong osti o'rtasidagi bog'lovchi zanjir bo'lib, yashirin kechinmalar va qo'rquvlarni rasm yoki boshqa san'at turlari orqali chiqarib tashlashga imkon beradi.

Shaxsiy o'sish va ishonch: Duduqlanuvchi shaxslarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy moslashuvni yaxshilash nazariy asos hisoblanadi.

2. Amaliy Asoslar va Metodlar

Duduqlanishni korreksiya qilishda quyidagi art-terapevtik usullar qo'llaniladi:

Rasm chizish (Izoterapiya): Qo'rquvni, kayfiyatni yoki "nutq" mavzusini rasmda ifodalash. Bu ichki nizolarni vizualizatsiya qilishga yordam beradi.

Loy va qum terapiyasi: Qum yoki loy bilan ishlash qo'l motorikasini rivojlantirish bilan birga, asab tizimini tinchlantiradi va stressni kamaytiradi.

Ertak terapiyasi: Ertaklar to'qish yoki sahnalashtirish orqali nutq qo'rquvini yengish va kommunikativ ko'nikmalarni oshirish.

Musiqa va raqs terapiyasi: Ritmli harakatlar va musiqiy mashqlar nutq ritmini tartibga solishga yordam beradi.

3. Korreksion Ishning Bosqichlari

Diagnostika: Bemorning emotsional holati va nutq buzilishining sabablarini aniqlash (rasm chizish orqali).

Tinchlantirish va ishonch hosil qilish: Art-terapevtik mashg'ulotlar orqali qo'rquv va stressni kamaytirish.

Faol korreksiya: Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ijodiy topshiriqlar, rolli o'yinlar.

Nutq va his-tuyg'ularni birlashtirish: San'at asari orqali his-tuyg'ularni nutq bilan ifodalashga o'rgatish.

Duduqlanish-bu eng keng tarqalgan nutq buzilishlaridan biri bo’lib, nutq va harakatlar koordinatsiyasining buzilishi bilan namoyon bo’ladi va bu bolalarning nutq rivojlanishida kechikishlarga olib keladi. Hozirgi kunda duduqlanish davolash uchun ko’plab yondashuvlar mavjud bo’lib, ulardan san’atchilik terapiyasi tobora ommalashmoqda. San’atchilik terapiyasi turli ijodiy faoliyatlar (rasm chizish, loydan ishlash, musiqa, raqs va h.k.) orqali shaxsni rivojlantirish, psixo-emotsional bloklarni bartaraf etish va nutq buzilishlarini tuzatish usuli sifatida aniqlanadi.Duduqlanishdan aziyat chekayotgan bolalar bilan ishlashda san’atchilik terapiyasi o’ziga bo’lgan ishonchni rivojlantirishga, emotsional holatni mustahkamlashga, nutq qo’rquvini va xavotirni kamaytirishga yordam beradi hamda kommunikativ ko’nikmalarni yaxshilashga yordam beradi. Ushbu usul bolalar bilan ishlashda psixoterapevtik yondashuvning ajralmas qismiga aylangan bo’lib, zaikanni davolashda barqaror natijalarga erishishni ta’minlaydi.

4. Art-terapiyaning Afzalliklari

Xavfsizlik va yumshoqlik: Bu usul ruhiyatga nozik ta'sir ko'rsatadi va qarshilik tug'dirmaydi.

Kompleks yondashuv: Ham psixologik, ham nutqiy muammolarni bir vaqtda hal qiladi.

Ijodiy yondashuv: Mashg'ulotlar qiziqarli bo'lgani uchun bolalar uchun juda samarali.

Art-terapiya duduqlanishni davolashda an'anaviy logopedik usullar bilan birgalikda qo'llanilganda yuqori samaradorlik ko'rsatadi va shaxsning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi. Mahalliy va xorijiy olimlar uzoq yillardan buyon duduqlanishning sabablari va mexanizmlarini o‘rganib kelmoqdalar. Ularning ushbu muammo bo‘yicha qarashlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, duduqlanishning yuzaga kelish mexanizmlari bir xil emas. Biroq har qanday holatda ham uning asosida yotuvchi fiziologik va psixologik buzilishlarning o‘zaro birligini inobatga olish zarur. Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, har bir logoped o‘z oldiga duduqlanuvchi shaxslarda shakllanayotgan erkin nutq unsurlarini maxsus, sun’iy yaratilgan sharoitlardan olib chiqib, ularni tabiiy muloqot muhitiga ko‘chirishga xizmat qiladigan samarali usul, vosita va metodlarni topishni maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur maqolada duduqlanishni korreksiya qilish bo‘yicha logopedik mashg‘ulotlarda art-terapiya metodlaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ulari, istaklari va orzu-intilishlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. U atrof-muhitni anglaydi, o‘z imkoniyatlarini kashf etadi, o‘zaro munosabatlarni modellashtiradi hamda turli xil, jumladan salbiy hissiyotlarni ham ifodalaydi. Shu sababli, art-terapiya metodlari logopedik mashg‘ulotlarda psixologik zo‘riqishni kamaytirish, stress holatlarini bartaraf etish hamda nevrotik buzilishlarni, jumladan duduqlanish bilan bog‘liq holatlarni korreksiya qilishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi.

O.A. Beglovaning (2009) dissertatsiyasi duduqlanuvchi o‘smirlar va kattalarda psixofizik buzilishlarni raqs-harakat (tansey-harakat) texnikalari (TDT) yordamida korreksiya qilishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Muallif TDTni logopedik jarayonga kiritish mushaklardagi zo‘riqishni

kamaytirish, psixoemotsional holatni yaxshilash va davolash samaradorligini oshirishga xizmat qilishini isbotlaydi.

Ishning asosiy qoidalari:

Maqsad: duduqlanishni kompleks logopsixokorreksiya qilish jarayonida raqs-harakat texnikalaridan foydalanishni ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

Ilmiy yangiligi: ilk bor duduqlanishning nutqqa aloqador bo‘lmagan simptomlarini (tana siqilishlari, ritm buzilishlari, xavotir holati) bartaraf etishga qaratilgan raqs-harakat mashqlari majmuasi taklif etilgan.

Natijalar: TDTni amaliyotga joriy etish duduqlanuvchilarga o‘z tanasidagi zo‘riqishlarni anglash, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi, bu esa bevosita nutqning ravonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maqsadli guruh: duduqlanishi aniq psixofizik belgilar bilan kechadigan o‘smirlar va kattalar.

Mazkur ishda taklif etilgan metodikaning samaradorligi eksperimental jihatdan tasdiqlangan. Batafsil materiallar, jumladan avtoreferat, Rossiya Davlat kutubxonasida hamda DisserCat saytida mavjud.

Mazkur maqola doirasida olib borilgan tahlillar duduqlanishning murakkab va ko‘p komponentli nutq buzilishi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Uning yuzaga kelishida nafaqat nutq apparati faoliyatidagi fiziologik omillar, balki shaxsning psixologik holati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy muhit ham muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan duduqlanishni korreksiya qilishda yagona usul bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki tizimli, kompleks va individual yondashuv zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy logopedik mashg‘ulotlarni art-terapiya elementlari bilan boyitish korreksion jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, rasm chizish, musiqa, dramatizatsiya, ertak terapiyasi va raqs-harakat (tana yo‘naltirilgan) mashqlar bolalarning ichki kechinmalarini ochib berishga, psixologik to‘siqlarni yumshatishga hamda nutq jarayonidagi zo‘riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Art-terapiyaning muhim jihatlaridan biri — uning noverbal (so‘zsiz) ifoda vositalari orqali ishlashi hisoblanadi. Bu esa ayniqsa duduqlanuvchi bolalar uchun qulay imkoniyat yaratadi, chunki ular nutq orqali ifoda etishda qiynalgan hissiyot va fikrlarini ijodiy faoliyat orqali bemalol namoyon qila oladilar. Natijada bolada o‘ziga nisbatan ishonch ortadi, ichki qo‘rquv va xavotir darajasi pasayadi, bu esa nutqning ravonlashuviga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, raqs-harakat texnikalari (TDT)ni qo‘llash orqali tana mushaklaridagi ortiqcha zo‘riqishlar bartaraf etiladi, harakat va nutq ritmi uyg‘unlashadi, o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulyatsiya) ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa duduqlanishning psixofizik komponentlarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Amaliy jihatdan qaralganda, art-terapiya asosidagi mashg‘ulotlar quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

- nutqiy nafasni me’yorlashtirish va nutq ritmini yaxshilash;
- psixoemotsional holatni barqarorlashtirish;
- ijtimoiy muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ijodiy va kommunikativ faollikni oshirish;
- duduqlanish bilan bog‘liq nevrotik holatlarni kamaytirish.

• Shu bilan birga, o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini inobatga olgan holda art-terapiya metodlarini moslashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir tilning tovush tizimi, urg‘u va ritmik tuzilishi korreksion ishlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, art-terapiya va unga yaqin bo‘lgan innovatsion yondashuvlar (jumladan, tana yo‘naltirilgan va raqs-harakat metodlari) duduqlanishni korreksiya qilishda samarali vosita bo‘lib, ular nafaqat nutqni tiklash, balki bolaning umumiy psixologik rivojlanishini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni kengaytirish, milliy sharoitga mos metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sonli qarori.

2.Арт-терапия в коррекции заикания | Дефектология Проф

3..Беглова О.А. Коррекция психофизических проявлений в структуре заикания подростков и взрослых средствами танцевально-двигательных техник. 13.00.03 -коррекционная педагогика. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. 2009.

47. Beglova O.A. *Duduqlanuvchi o‘smirlar va kattalarda psixofizik buzilishlarni raqs-harakat texnikalari asosida korreksiya qilish.* – Moskva, 2009.

5. Rubin J.A. *Approaches to Art Therapy: Theory and Technique.* – New York: Routledge, 2010.

ART-TERAPIYA, O’YIN TERAPIYASI VA ERTAK TERAPIYASI TARBIYAVIY ISHNING SAMARALI VOSITALARI SIFATIDA

M.R. Nazarova, A.R. Komilova
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika (logopediya) ta’lim yo‘nalishi 3-g guruh talabalari

Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning emotsional, ijtimoiy va nutqiy rivoji keyingi ta’lim bosqichlarining samaradorligini belgilaydi. Shu sababli tarbiyaviy jarayonda an’anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur. Art-terapiya, o‘yin terapiyasi va ertak terapiyasi ana shunday samarali pedagogik-psixologik vositalar sirasiga kiradi.

Art-terapiya – bu tasviriy faoliyat orqali bolaning ichki kechinmalarini ifodalash va psixologik holatini muvozanatlashtirishga qaratilgan metoddir. Ushbu yondashuvda rasm chizish, bo‘yash, kollaj yaratish, plastilin bilan ishlash kabi faoliyat turlari qo‘llaniladi. Art-terapiya bolalarning emotsional zo‘riqishini kamaytiradi, xavotir darajasini pasaytiradi va o‘z-o‘zini ifodalash imkoniyatini kengaytiradi. Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatishicha, tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanish bolalarda mayda motorika rivojlanishini tezlashtiradi, bu esa nutq faoliyatining shakllanishiga ijobiy

ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, art-terapiya bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi hamda ichki konfliktlarni yumshatadi.

O‘yin terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin orqali bola atrof-muhitni o‘rganadi, ijtimoiy tajriba orttiradi va muloqot ko‘nikmalarini egallaydi. O‘yin terapiyasi jarayonida rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar va syujetli o‘yinlardan foydalaniladi. Ushbu metod bolaning ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishiga, xulq-atvorini tartibga solishiga va jamoa bilan o‘zaro hamkorlik qilishiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin faoliyati bolalarning nutq faolligini oshiradi, lug‘at boyligini kengaytiradi va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Bundan tashqari, o‘yin terapiyasi bolalarda ijobiy emotsional fon yaratadi, stress va qo‘rquv holatlarini kamaytiradi.

Ertak terapiyasi bolalarning psixologik rivojlanishiga ta’sir etuvchi samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ertaklar orqali bola hayotiy vaziyatlarni ramziy tarzda anglaydi, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini farqlashni o‘rganadi. Ertak terapiyasida ertaklarni tinglash, qayta hikoya qilish, sahnalashtirish va mustaqil ertak tuzish kabi usullar qo‘llaniladi. Ushbu metod bolaning tasavvurini boyitadi, nutqiy faoliyatini rivojlantiradi va axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi. Ilmiy jihatdan asoslanganki, ertak terapiyasi bolalarda ichki qo‘rquvlarni kamaytiradi, o‘ziga ishonchni oshiradi hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur terapiya turlarining alohida qo‘llanilishi ijobiy natija berishi bilan birga, ularni integrativ yondashuv asosida qo‘llash yanada yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Integrativ yondashuvda art-terapiya, o‘yin terapiyasi va ertak terapiyasi o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Masalan, ertak asosida o‘yin tashkil etilib, keyinchalik uning mazmuni rasm orqali ifodalanadi. Bunday kompleks faoliyat bolalarning emotsional, kognitiv va nutqiy rivojini bir vaqtning o‘zida qo‘llab-quvvatlaydi.

Integrativ qo‘llanish bolalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi: emotsional barqarorlikning ortishi, ijtimoiy moslashuvning yaxshilanishi, nutq faolligining kuchayishi va ijodiy tafakkurning rivojlanishi. Shu bilan birga, bolalarda o‘z fikrini erkin ifodalash, jamoa bilan ishlash va muammoli vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalari shakllanadi. Tadqiqot natijalari ushbu metodlarning kompleks qo‘llanilishi tarbiyaviy ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur yondashuv inkluziv ta’lim sharoitida ham yuqori samaradorlikka ega. Turli rivojlanish darajasiga ega bolalar uchun moslashuvchan metod sifatida ularning imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, nutqiy rivojlanishda qiyinchiliklarga ega bolalarda bilvosita kommunikatsiya vositalari orqali faollik oshadi va asta-sekin to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqiy muloqotga o‘tish kuzatiladi.

Umuman olganda, art-terapiya, o‘yin terapiyasi va ertak terapiyasining ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan qo‘llanilishi tarbiyaviy jarayonni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu metodlar bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning ichki resurslarini faollashtirishga, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi

